

N. ABDURAHMONOVA, L. O‘RINBOYEVA

MATEMATIKA

2- SINF
O‘QITUVCHI UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta‘limi vazirligi tasdiqlagan

«O‘ZBEKISTON» NMIU
TOSHKENT – 2012

Mas'ul muharrir:

Mamanazar Jumayev — Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Shuhrat Qayumov — Beruniy nomidagi TDTU dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi;

Nazira Ahmedova — RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi boshlig'i;

Ziyoda Payziboyeva — Toshkent shahar 41-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

© «O'zbekiston» NMIU, 2012.

© «Yangiyo'l Poligraf Servis» MChJ, 2012.

© N. Abdurahmonova, L. O'rinboyeva, 2012.

KIRISH

2- sinf matematika darsligi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun talablari va uni amalga oshirish yo'lidagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida yaratilgan bo'lib kelajakning egasi bo'lgan yoshlarni milliy istiqloq mafkurasi ruhida bilimdon qilib tarbiyalashga ularning ma'naviyati yuksak insonlar bo'lib yetishuviga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Darslikda ilgari surilgan va bayon qilingan o'quv ma'lumotlari o'quvchilar ongiga yetkazish hamda o'zbekona odob, milliy an'analar ruhi va xalqaro bilimdonlik me'zonlariga muvofiq ta'lim berishda o'qituvchiga amaliy yordam vazifasini bajaradi, deb o'ylaymiz.

O'qituvchi ta'lim jarayonida bolalarning nafaqat ma'lum bilim va malakalarini o'zlashtirib olishi, balki ularda kuzatuvchanlik, idrok, ijodiy tasavvur, diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish qobiliyatlarining ilmiy rivojlanishini ham nazarda tutadi. Bu ishlar mantiqiy tafakkur bilan bog'liq ravishda og'zaki va yozma matematik nutqni o'ziga xos aniq, ixcham, sodda va to'g'ri bayon qilish kabi zarur sifatlarni rivojlantirishi kerak.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, o'quvchilar aqliy faoliyatining muhim usullari: tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlik kiritish, o'xshashini topish kabi murakkab vazifalarni bajarish ko'nikmalarini ham hosil qilish lozim. O'qituvchi bolalarga darsda o'rganiladigan tushuncha va qoidalarning hammasi amaliy faoliyatda ishlatilishini, ular turmush talablari tufayli kelib chiqqanligini tushuntirishi kerak. Bu ishda ushbu qo'llanma dasturiy vazifasini bajaradi.

Shuningdek, qo'llanmada darslik va boshqa diadaktik materiallardan unumli foydalanish, darsning ta'limiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish haqida maslahatlar beriladi.

Darsga tayyorlanishda o'qituvchi darslikdagi o'quv ma'lumotlari va qo'llanmadagi ko'rsatmalar bilan to'liq tanishib chiqish ularning mazmunini va maqsadini puxta idrok qilganidan keyingina dars rejasini tuzadi, kerakli ta'lim vositalarini tayyorlaydi.

Qo'llanmada har qaysi mavzu bo'yicha oldin uni o'rganishga doir

asosiy vazifalar belgilanadi, dars tarkibi va bosqichlari bo'yicha uslubiy maslahat va tavsiyalar keltiriladi. Albatta bu ishlar o'qituvchining ongli ijodiy mehnati orqali amalga oshiriladi.

Mazkur qo'llanmada, darslikda berilgan har bir mavzu bo'yicha darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadi, namunaviy darsni o'tish uchun ta'lim vositalari va ulardan unumli foydalanish yo'llari, didaktik materiallar, metodik ko'rsatmalar, qo'shimcha topshiriqlar va amaliy vazifalar berilgan. Undan tashqari, har bir mavzudagi o'quv ma'lumotlarini turmush bilan bog'lab, ularning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish va o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish usullari ham bayon qilingan. O'qituvchi darsga tayyorlanishda, darslik va metodik qo'llanma bilan to'liq tanishib chiqib, ularning mazmunini va maqsadini puxta idrok qilgandan keyin dars rejasini tuzadi va kerakli ta'lim vositalaridan foydalanadi. Albatta, bu ishlar o'qituvchining ongli va o'zining ijodiy mehnati orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarning aniq sharoitini, o'zlashtirishini hisobga olgan holda, o'quvchilarga berilishi kerak bo'lgan topshiriq mashqlari va vazifalaridan o'rinli foydalangan holda reja tuzishi darkor.

Ushbu qo'llanmada mavzular asosida darsni o'rganishga doir umumiy yo'l-yo'riqlar va asosiy vazifalar belgilanadi.

Asosiy vazifalar:

1. Har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasini aniqlash.
2. O'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni tartibga solish va to'ldirib borish.
3. Darslikdagi mavzularni ijodiy izlanishlar asosida fikrlash jarayoni-shakllantirish, o'quv ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Tavsiya etilayotgan og'zaki mashqlarni o'qituvchi turli usullarda berishi, ya'ni o'zining ijodiy izlanishidan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda ba'zan almashtirishlari ham mumkin. Tavsiya etilayotgan matematik o'yinlarga, boshqotirmalarga, didaktik o'yinlarga ijodiy yondashish, iloji boricha, ularning xilma-xil bo'lishiga, har bir darsning aniq maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning qiziqarli va mazmunli o'tishiga alohida e'tibor berish kerak.

Hozirgi paytda har bir narsani matematik yo'l bilan hal etish har qadamda uchrayotgan ekan, o'quvchilarni matematika fanini puxta

o'zlashtirishlari uchun egallagan bilimlarini boshqa fanlar (ona tili, tasviriy san'at, o'qish, atrofimizdagi olam, jismoniy tarbiya, musiqa, odobnoma) bilan bog'lab olib borish maqsadga muvofiqdir. Har bir pedagog davr talabiga javob beradigan o'quvchilarni yetkazib berishda, matematika fanini puxta o'zlashtirishlari uchun bor imkoniyatlardan o'rinli foydalana olishi darkor. Shu bois, o'quvchilarni mustaqil yo'naltira oladigan materiallardan unumli foydalanish, har bir mavzuni kundalik turmush va hayot bilan bog'lab olib borish, darsni qiziqarli qilib o'tishda turli usullardan o'rinli foydalanish, ya'ni boshqotirma, testlar, didaktik o'yin, ertak, rivoyat, matematik diktantdan o'z o'rnida foydalana bilish, matematika fanidan o'tganlarini tarbiya bilan uzviy bog'lab olib borish vazifalari ko'zda tutilgan.

Har bir matematik muammolarni do'stona, birodarlik, hamjihatlik bilan hal etishda interfaol usullaridan o'rinli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-o'quvchi (subyekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarining bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni, shaxsiy sifatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular materialni erkin bayon etish, mustaqil o'rganish, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun qiziqarli topshiriq vazifalarni bajarishdan iborat. Didaktik o'yin metodidan foydalanish o'quvchi faoliyatini faollashtirishga yordam berish bilan birga aqliy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

2-sinflar uchun matematikadan quyidagi o'quv qo'llanmalaridan foydalaniladi:

1. «Matematika» darsligi.
2. O'qituvchi kitobi (metodik qo'llanma).

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorligiga, bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. Shu bois, «Matematika» darsligini

ham, o'qituvchi kitobini ham o'ziga xos maqsad va vazifalarini o'z ichiga olgan. O'qituvchi kitobida o'quvchilarning matematik tushunchalarni hayotiy materiallar asosida o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa, darsda o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va qoidalar amaliyotga xizmat qilishni, ular hayotiy ehtiyojlar natijasida ro'yobga kelganligini o'quvchilarga yetkazib berish imkonini beradi, hamda fan va amaliyot orasidagi bog'lanishlarni to'g'ri tushunish uchun asos yaratadi. Shunday ekan, 2-sinf «Matematika» darsligi takomillashgan dastur asosida yaratildi. 2-sinflarda matematikani o'qitishga haftasiga 5 soatdan vaqt ajratilgan bo'lib, darslikda 151 soat berilgan. Yillik reja 170 soat, undan 19 soati nazorat ishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, biz pedagoglar o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli ravishda o'zlashtirishlari uchun dastur, darslik oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda ijodiy yondashish zarurligini unutmasligimiz darkor. Zero, bu esa, o'quvchilarning faollashtirish, malakasini oshirish, ularning o'z fikrlarini aniq, ravon, to'g'ri va tushunarli bayon etish, kuzatuvchanlik, birodarlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarini boyitib borishga yordam bera olsun.

2-sinf «Matematika» kitobining tuzilishi

Matematika darsligi 8 bo'limdan iborat, bular «1-sinfda o'tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish», «18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib qo'shish», «18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirish», «100 ichida sonlarni xona orqali o'tib qo'shish va ayirish», «Ko'paytirish va bo'lish», «0, 1, 10 sonlari ishtirokida ko'paytirish va bo'lish», «Jadval ichida ko'paytirish va bo'lish», «Materialni sistemaga solish va umumlashtirish»

Darslikning har bir bo'limi ma'lum maqsad va vazifalar asosida tuzilgan.

Birinchi bo'lim: «1-sinfda o'tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish» deb nomlangan. Bu davr mobaynida 60+40, 90–50, 67+3, 38–30, 57+32, 96–44 ko'rinishdagi misollarni yechishni o'rganishlari ko'zda tutilgan. Undan tashqari, qo'shish va ayirishni tekshirish, yig'indini, ayirmani taqqoslashga doir, sonni bir necha birlik orttirish, kamaytirishga doir sodda masalalarni yechish belgilangan. Noma'lum qo'shiluvchini, noma'lum ayiriluvchini, noma'lum

kamayuvchini topishga doir masalalar, ko'pburchak elementlari, to'g'ri burchak, to'g'ri burchakdan katta yoki kichik burchaklar, daftarga to'g'ri burchak chizish, siniq chiziqning uzunligi, ko'pburchak perimetri, santimetr, detsimetr, metr yordamida kesma uzunligini o'lchash, kesmalarni taqqoslash, qog'ozda to'g'ri burchak hosil qilish haqida bilimga ega bo'ladilar.

Ikkinchi bo'lim: «18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib qo'shish» deb nomlandi. Bu bo'limda yig'indisi 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18 ga teng bo'lgan ikkita bir xonali sonni qo'shish, bir xonali sonlarni qo'shish jadvali, sonni bir necha birlik orttirish (kamaytirish) ga va yig'indini topishga doir, sonni yig'indidan va yig'indidan sonni ayirishga doir masalalar tuzish mavzusini o'z ichiga olgan. Undan tashqari, sodda va tarkibli masalalarni taqqoslash, masalalarni ikki usul bilan yechish, kvadrat (to'g'ri to'rtburchak), to'g'ri to'rtburchak qarama-qarshi tomonlarining xossalari, geometrik shakllarning ko'rinishini o'zgartirish, daftarga kvadrat, to'g'ri to'rtburchakni chizish mavzularini bilib olishlari ham nazarda tutilgan.

Uchinchi bo'lim: «18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirish» deb nomlangan. Bu bo'limda bo'laklab hamda qo'shish va ayirishning o'zaro aloqalari asosida ayirishning umumiy usullari bilan tanishtiriladi.

11–□, 12–□, 13–□, 14–□, 15–□, 16–□, 17–□, 18–□

ko'rinishdagi ayirish ustida bilim berish.

Qo'shish va ayirish yordamida sonlarni taqqoslash, 18 ichida bir xonali sonlarni ayirish jadvali, yig'indini va ayirmani topishga doir tarkibli masalalar yechish, tarkibli masalalarni ifodalar yordamida yechish, masalalar yechimlarini taqqoslash, arifmetik masalalarning shartini o'zgartirish haqida bilimga ega bo'ladilar. Undan tashqari, vaqt birliklaridan soat, minut haqida tushuncha berish, ular orasidagi munosabatlarni bilib olishlari ham ko'zda tutilgan. Sodda va tarkibli masalalarni taqqoslash vazifalarini bilib olishlari uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish vazifasi ham rejalashtirilgan. Qismlardan yaxlit shakl tuzish, butun shaklni qismlarga ajratish, detsimetr, santimetr yordamida kesmalarning, aniq chiziqlarning uzunliklarini o'lchash, berilgan sondagi cho'plarni olish yoki o'rnini o'zgartirish yo'li bilan shakllarni o'zgartirish ustida berilgan boshqotirmalarni hal etish

vazifasi ham berilgan. Shuningdek, masalalarni ikki usul bilan yechilish xususiyatiga ham ega bo‘ladilar.

To‘rtinchi bo‘lim: «100 ichida sonlarni xona orqali o‘tib qo‘shish va ayirish» deb nomlangan. Bu bo‘limda o‘quvchilar 100 ichida og‘zaki qo‘shish va ayirishning usullari bilan tanishtiriladi. Geometrik shakllar va kattaliklar haqida bilim beriladi. Shuningdek, sonli ifodalar haqida ham ma’lumotga ega bo‘ladilar. $10-(7+2)$ va $10-7-2$ ko‘rinishdagi sonli ifodalarni o‘qish, yechish va taqqoslash haqida bilimga ega bo‘ladilar. 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib og‘zaki va yozma qo‘shish hamda ayirish usullari bilan tanishadilar. $38+5$, $42-5$, $37+48$, $37+53$, $87+13$, $42-15$ ko‘rinishdagi qo‘shish va ayirish misollarini yechish, sonlarni ustun shaklida qo‘shish va ayirishning yozilishi va yechimlari bilan tanishadilar. $45+23$, $57-26$, $29+32$, $64+26$, $75+15$, $27+3$, $30-3$, $50-24$, $52-24$ ko‘rinishdagi misollarni tushuntirib yechishda birliklarga birliklarni, o‘nliklarga o‘nliklarni qo‘shish va ayirish usullari haqida bilimga ega bo‘ladilar. Shuningdek, qavsli va qavssiz ikki, uch amalli ifodalarda amallarni bajarish tartibi haqida bilib olishlari ham nazarda tutilgan. Yig‘indining o‘rin almashtirish xossalarni harflar bilan yozish, $a+49$, $91-b$ ko‘rinishdagi ifodalarni yechish, qo‘shish va ayirish amallarining tarkibiy qismlari va natijalari orasidagi o‘zaro bog‘lanish, noma’lum tarkibiy qismini topish malakasiga ega bo‘ladilar. Tenglama nima? Uni yechish usullari bilan tanishadilar. $27+x=27$, $35-x=30$, $x-3=7$ tenglamani yechish usullarini egallaydilar. $69-x=23$, $x-24=41$, $x+56=70$ ko‘rinishdagi tenglamalarni yechish jarayonida komponentlar orasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Undan tashqari, bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisini topish va sonni bir necha teng qo‘shiluvchi yig‘indisi shaklida ifodalashni o‘rganadilar, yig‘indi va qoldiqni topishga oid sonni bir necha birlik orttirish, kamaytirishga doir, ayirmani taqqoslashga doir, noma’lum qo‘shiluvchini, noma’lum ayiriluvchini, noma’lum kamayuvchini topishga doir sodda masalalarni yechish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Yana sonni yig‘indiga qo‘shish va yig‘indini songa qo‘shishga doir, sonni orttirish, kamaytirishga va yig‘indini topish, yig‘indi va qoldiqni, ayirmani va yig‘indini topishga oid tarkibli masalalar yechishni o‘rganadilar. Bir soat ichida vaqtni topishga oid sodda masalalar yechish, geometrik shakllarni belgilash uchun harflarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulot davomida qog‘ozni buklash yo‘li bilan to‘g‘ri burchak hosil qilish, to‘rtburchaklarning

va har xil ko'pburchaklarning perimetrini topish, cho'plarning o'rnini o'zgartirish yo'li bilan bir shaklni ikkinchi shaklga almashtirish, yetishmayotgan shaklni izlab topish kabi bilimlarga ega bo'ladilar.

Beshinchi bo'lim: «Ko'paytirish va bo'lish» deb nomlanadi. Bu bo'limda o'quvchilar geometrik shakllar va kattaliklar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Ko'paytirishning ma'nosi, ko'paytirish bir xil qo'shiluvchilar yig'indisini topish, amalning atalishi va belgilanishi, ko'paytirishda berilgan va izlanayotgan sonlarning atalishi, ko'paytirish amali bilan yechiladigan masalalarni muhokama qila oladigan ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Bo'lish amalining ma'nosi. Amalning atalishi va uning belgilanishi bo'lishda berilgan va izlanayotgan sonlarning atalishi, teng qismlarga bo'lish va mazmuniga ko'ra bo'lish, ularni umumlashtirish, bo'lish amali bilan yechiladigan masalalar, ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi, o'zaro teskari masalalar, masalalarni yozishning jadval usuli, noma'lum ko'paytuvchini, noma'lum bo'linuvchini topish haqida bilimga ega bo'ladilar. Shu bilan birga millimetr, uning belgilanishi, millimetr, santimetr, detsimetr, metr orasidagi munosabatlar to'g'risida ham bilib oladilar. Amaliy mashg'ulot orqali kesma uzunligini detsimetr, santimetrlarda, metrlarda o'lchashni, bir xil shaklni topishni, cho'plar bilan ishlashni, namunaga qarab kvadrat qismlardan shakllar tuzishni ham o'rganib oladilar.

Oltinchi bo'lim: Bu bo'lim «0, 1, 10 sonlari ishtirokida ko'paytirish va bo'lish» deb nomlandi. 1, 0 ni songa ko'paytirish, sonni 1, 0 ko'paytirish, sonni 1 ga bo'lish, nolga bo'lish mumkin emasligini, $6:6$, $a:a$ ko'rinishdagi bo'lish haqida bilimga ega bo'ladilar. Har bir amal komponentlari va natijalari orasida o'zaro bog'lanishlar, 10 soni ishtirokida ko'paytirish va bo'lishda hamda bo'lish va ko'paytirish jadvalini tuzishda ulardan foydalanish yo'llarini o'rganib oladilar. Ikki, uch amalli qavsli va qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi, doira, aylana, aylana markazi, radiusi, diametri, sonning qismini va qismiga ko'ra sonni topish, qismlarni taqqoslash, sirkul yordamida berilgan radiusli doira (aylana)ni chizish, geometrik shakllarni qismlarga bo'lishga doir, kichik shakldan katta shakl tuzishga doir masalalarni muhokama qilishni o'zganadilar. Amaliy mashg'ulot orqali sirkul yordamida berilgan radiusli doira (aylana)ni chizish, doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchakning bir qismi, ikkidan bir, uchdan bir, to'rtidan

bir qismini grafik tasvirlash, yaxlit shakllar va ularning qismlarini taqqoslashni bilib oladilar. Geometrik shakllarni qismlarga bo'lish, kichik shakldan katta shakl tuzishga doir masalalar yechish haqida bilimga ega bo'ladilar.

Yettinchi bo'lim: Bu bo'lim «Jadval ichida ko'paytirish va bo'lish» deb nomlangan. Unda ikki sonini bir xonali songa ko'paytirish, bir xonali sonni 2 soniga ko'paytirish, ikkiga bo'lish va bo'linmada ikki chiqadigan songa bo'lish, ko'paytirish va bo'lishga oid sodda masalalarni yechishni o'rganib oladilar. Shu bilan birga 3 (4, 5, 6, 7, 8, 9) sonini bir xonali songa ko'paytirish, bir xonali sonni 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 ga ko'paytirish, bir va ikki amalli masalalar, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlariga bo'lish va bo'lishda bo'linma 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 ga teng bo'ladigan songa bo'lish haqida bilimga ega bo'ladilar. Bir xonali sonlarni ko'paytirish jadvali va bo'lish jadvalini o'rganib oladilar. $x+2=10$, $5+x=8$, $x-3=8$, $10-x=2$, $x \cdot 2=12$, $20 : x=5$, $x : 3=4$, $6 \cdot x=18$ ko'rinishdagi tenglamalarni yechishni o'rganadilar. Berilgan sondan bir necha marta katta yoki kichik sonni topish, sonlarni bo'lish yordamida taqqoslash, sonlarni bir necha birlik va bir necha marta orttirish, kamaytirishga oid bitta narsaning massasini, narsalar sonini hamda narsaning massasini topishga doir sodda masalalarni yechishni o'rganib oladilar.

Birga keltiriladigan tarkibli masalalar, ikki amalli tarkibli masalalar, geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, doirani bir-biridan ajrata olish, shakllarni taqqoslash, bo'yash, bo'laklari bo'yicha shaklni yasash va bo'laklarga ajratishni o'rganib oladilar. Katak daftarga chizilgan shakllarning katagini sanab chiqish, yuz birliklari belgilanishini bilib oladilar.

Sakkizinchi bo'lim: Bu bo'lim «Materialni sistemaga solish va umumlashtirish» deb nomlangan. Bunda o'quvchilar yil davomida o'rgangan bilimlarini mustahkamlash nazarda tutilgan. O'qituvchilar uchun tavsiya etilayotgan ushbu qo'llanmada har bir bobdagi o'quv ma'lumotlari yuzasidan zarur maslahat va tavsiyalar berilgan.

Tajribali o'qituvchilar davrimizning eng yetuk bilimdon, zukko, topqir, hozirjavoblik fazilatiga ega bo'lgan kadrlarni yetkazib berishda turli ko'rgazmali qurollardan, rang-barang didaktik o'yinlardan, qiziqarli dars o'tish turlaridan o'rinli foydalana olishi kerak. Shundagina, o'quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini oshirgan bo'ladi.

MATEMATIKA DARSLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TALABLARI ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH

Ta'lim berish ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Shu bois, hozirgi davr talablaridan biri matematika darslarini pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etishdir. Pedagogik texnologiya bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, bilim berish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, davr talabiga javob bera oladigan darsni tashkil eta bilish har bir o'qituvchining ijodiy izlanishiga, mahoratiga, o'z ustida ishlashiga, o'qitishning interfaol metodlaridan o'rinli foydalana olishiga bog'liqdir. Bu borada noan'anaviy dars tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dars rejasini tuzishda ham aniq maqsad bilan unumli harakat qilmoq kerak. Dars tarkibi va bosqichlari bo'yicha uslubiy maslahat va tavsiyalar keltiriladi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi rahbarligida o'quvchini mustaqil o'qishiga, bilim olishga, fikrlashga va ayni paytda kuzatuvchanlikka, tashabbuskorlikka, ijodkorlikka o'rgatishni kafolatlaydigan jarayon hisoblanadi. Bu esa o'qituvchining o'z ishiga munosabati: bilimi, mas'uliyati, ijodiy izlanishi, qolaversa, mahoratiga bo'g'liq. Chunki, yangicha ta'lim standartlarini o'zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy texnologiya asosida ish yuritishni taqozo etadi. Pedagogik texnologiya

– insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Hozirda pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari **empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv** pedagogik texnologiyalaridir.

Jumladan, **empirik** – sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni takomillashtirib borishga qaratiladi. **Kognitiv** – atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilim ehtiyojlarini rivojlantiradi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, **evristik** (fikrlash, izlab topish) muammoli vaziyatni yechish orqali **kreativ** – ijodkorlik asosida axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish vazifalarini bajarish ham ko'zda tutilgan. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida bilim berish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, multimediyali elektron darsliklar yaratish, mediya ta'lim metodlaridan unumli foydalanish davr talabi ekanligini unutmashimiz kerak. Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari – asoslari, manbalari, shakllantirishdagi tarixiy bosqichlar, mezonlari, ko'rinishlari, darajalari, turlari, yo'nalishlari, asosiy tarkibiy qismlari, asosiy vositalari nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib, o'tgan mualliflar pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy tuzilishi va tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqliklarini bilish nihoyatda zarur ekanligini ta'kidlaydi.

Xullas, ped. texnologiya – insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish bilan bir qatorda komil insonlarni shakllantirishdan iborat.

Har bir o'qituvchi o'quvchilar matematika fanini puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil yo'naltira oladigan materiallardan unumli foydalangan holda, materialni kundalik turmush va hayot bilan bog'lagan holda, darsni qiziqarli qilib o'tishda turli usullarni qo'llab yuqorida ko'rsatilgan dars andazasidan foydalanib dars rejasini tuzishda foydalanadilar degan umiddamiz. Qo'llanmamizning hajmi 170 soat, dars rejasini to'liq bayon qilish uchun imkon bo'lmadi. Shu bois, bir xil turdagi ba'zi darslar qoldirib ketilgan.

DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR

1-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 1-sinfda o‘tilgan materialni takrorlash, 60+40, 90–50 ko‘rinishidagi misollarni yechish, yig‘indi va qoldiqni topishga doir sodda misollar (3–4-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: 60+40, 90–50 ko‘rinishidagi misollarni tushuntirib yechishga o‘rgatish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: Ertak, didaktik o‘yin, muammoli izlanish, interaktiv metodlar. Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash. Jihoz: Matematika darsligining 3–4-betidagi rasmlar, kartochkalar (imkoni bo‘lsa kattalashtiriladi).
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta’limiy: O‘quvchilarni 100 soni ichida misol, masalalar yechish haqida egallagan bilimlarini boyitib borish. Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish, uning sirlarini sinchkovlik bilan o‘rganish yo‘llarini o‘rgatish; b) matematika fani orqali hayotni to‘g‘ri tasavvur eta olish malakasini o‘stirib borish; d) o‘quvchilar ongiga yangi mavzu haqida bilim berish orqali har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik bilan bajarishga o‘rgatish. Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, darsning mohiyatini yoritishda faolligini rivojlantirib borish.

Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida 60+40, 90–50 ko'rinishidagi misol, masalalar yechish haqida bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	«Tez javob» suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori aniqlanadi.	Interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Kirish. Davlat madhiyasi. 2. «Maktab ilm o'chog'i». 3. 2-sinf «Matematika» darsligi bilan tanishtirish. 4. 1, 2, 3- misol, masalalarni tushuntirib yechish. 5. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 6. 4-misolni yechish. 7. 5-misol. Geometrik shakllar haqida topshiriq.	namoyish ertak suhbat muammoli izlanish she'r aytish izlanish tushuntirish	2 minut 4 minut 3 minut 7 minut 3 minut 4 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	«O'yla, izla, top!» o'yinini o'tkazish.	didaktik o'yin	5 minut
V bosqich. Baholash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi va dars yakunlanadi.		3 minut 3 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6,7-misol.	tushuntirish	2 minut

I. Darsning borishi:

1. Dars O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi bilan boshlanadi.

2. Maktab ilm o'chog'i mavzusini tushuntirib berish maqsadida «Sehrli saroy» ertagidan foydalanish. Sehrli saroy degani bu jonajon maktab, ilm olish maskani ekanligi haqida suhbat o'tkaziladi. Sehrli saroyning ichkarirog'iga kirib borsak, bolalarning aqlini charxlovchi matematika faniga duch kelamiz.

3. Darslik bilan tanishtirish.

Bir o'quvchi matematika kitobini ko'tarib xattaxta oldiga chiqadi, darslik yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

1. O'qing bu qaysi darslik? («Matematika» darsligi).

2. Bu darslikni kimlar yozgan ekan? (O'qituvchi darslikni ochib, mualliflar yozilgan joyini ko'rsatib, o'quvchilarga o'qitadi. Ularning mehnati haqida qisqa aytib beradi).

3. Kitobni ochib, 3-betidagi rasmni kuzatib, ular haqida suhbat o'tkaziladi.

4. 1-misolni yechishga o'rgatish.

1) 10, 12, 14, 16, 18, 20 sonlaridan bitta oldin keladigan sonlarni topishga o'rgatish;

2) 11, 13, 15, 17, 19 sonlaridan bitta keyin keladigan qo'shni sonlarni toptirish.

2-masalani yechish.

Bizning mahallada — 60 nafar kishi

Qo'shn mahallada — ?, 30 nafar ortiq.


Yechish: $60+30=90$ nafar kishi

Javob: Qo'shn mahallada 90 nafar kishi bor.

3-masala: Rasm asosida berilgan masalani yechish:

Qiz bolalar do'ppisi — 6 ta

O'g'il bolalar do'ppisi — ?, 4 ta ortiq.



Yechish: $6+4=10$ ta do'ppi

Javob: O'g'il bolalar do'ppisi 10 ta.

5. Dam olish daqiqasini o'tkazish:

“MATEMATIKA KERAK BIZGA”

Matematika kerak bizga,
Har bir o'g'il, qizga.
Aqlingni va fikringni,
Soladi yaxshi izga.
Bu fan bizning do'stimiz,
Mo'jizalar makoni.
Inoq bo'lib o'ssa kim,
Ortar ilmi, imkoni.

6. 4-misolni yechish:

$$\begin{array}{cccc} 20+20=40 & 80-40=40 & 50+10=60 & 60+40=100 \\ 40-10=30 & 30+20=50 & 70-20=50 & 90-50=40 \end{array}$$


7. 5-misol. Har bir shakllarning nomini aytirish.



Namuna: 1-shakl – doira, 2-shakl – kvadrat, 3-shakl uchburchak, 4-shakl – to'rtburchak, 5-shakl – to'g'ri to'rtburchak.

Hamma shakllar bir so'z bilan geometrik shakllar deb ataladi.

IV. Mustahkamlash. O'yla, izla, top!



Namuna: 60 bilan 40 ning yig'indisi 100 ga teng va hokazo.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6-misol. Har qaysi berilgan sonlardan oldin kelgan va keyin kelgan sonlarni topib yozish.



1) 29 sonining oldi qo'shnisi 28, orqa qo'shnisi 30 va hokazo;
7 misol. Uni qanday bajarish kerakligini tushuntirib berish.

2-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 67+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish. Misol va masalalar yechish (4–5-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta‘rifi: 60+40, 90–50 ko‘rinishidagi misollarni yechish mustahkamlanadi, 67+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish o‘rgatiladi.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: Matematik diktant, muammoli izlanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Mavzu asosida kartochka, didaktik materiallar, rasmlar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta‘limiy: O‘quvchilarni o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini boyitib borish, 67+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish, uning sirlarini diqqat bilan o‘rganish yo‘llarini o‘rgatish; b) matematika fani orqali hayotni to‘g‘ri tasavvur eta olish malakasini o‘stirib borish;

d) o‘quvchilar ongiga yangi mavzu haqida bilim berish orqali har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik bilan bajarishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, darsning mohiyatini yoritishda faolligini rivojlantirib borish.

Kutilayotgan natija

O‘quvchilar dars yakunida 67+3 ko‘rinishidagi misollarni tushuntirib yechish bilimiga ega bo‘ladilar. Sonlarni xona birliklarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalashni o‘rganib oladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish lozim bo‘lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirib baholash.	savol-javob	3 minut
	2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.	matematik diktant	5 minut
	3. Yangi mavzuni bayon etish.	suhbat	5 minut
	4. 2-masalani tushuntirib yechish.	izlanish	6 minut
	5. 3-misol. Misollarni namuna bo‘yicha bajarish.	izlanish	5 minut
	6. 4-misol. Geometrik shakllar haqida berilgan topshiriqni bajarish.	amaliy ish	5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	«O‘ylab top!» oyini	didaktik o‘yin	4 minut
V bosqich. Baholash	O‘quvchilar reytingi e‘lon qilinadi, dars yakunlanadi.		3 minut 3 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish. 6, 7-misol.

$$37-7=30$$

$$40+9=49$$

$$58-50=8$$

$$94-90=4$$

2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida matematik diktant o‘tkazish.

1) 50 bilan 30 ning yig‘indisini toping. Javob: 80;

2) 80 bilan 40 ning ayirmasini toping. Javob: 40;

3) 49 sonining orqa qo‘shnisini toping. Javob: 50;

4) 61 sonining oldi qo‘shnisini toping. Javob: 60;

5) 90 bilan 50 ning ayirmasini toping. Javob: 40.

6) 50 bilan 60 sonlarining oralig‘idagi juft sonlarni toping. Javob: 52, 54, 56, 58.

3. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. Yechish.

$$67+3=\square\square$$

$$\begin{array}{r} \wedge \\ 60 \end{array}$$

$$60 \quad 7+3$$

$$60+(7+3)=60+10=70$$

Bu misolning yechilishi quyidagicha: 67 sonini xona qo‘shiluvchilar yig‘indisi ko‘rinishida ifodalab, so‘ng birliklarga birliklarni qo‘shib, natijani topishga o‘rgatish.

4. 2-masalani tushuntirib yechish.

1-sinfdan – 27 ta o‘quvchi.

2-sinfdan – ?, 3 ta ortiq o‘quvchi.

Yechish: $27+3=30$ ta o‘quvchi.

Javob: Ikkinchi sinfdan 30 nafar o‘quvchi hayvonot bog‘iga borgan.

5. 3-misol. Namuna bo‘yicha bajarish: $65=60+5$

$$57=50+7$$

$$32=30+2$$




$$78=70+8$$

$$45=40+5$$

$$96=90+6$$

$$29=20+9$$

6. 4-misol. Har bir shaklda nechtdan uchburchak borligini topish.



Namuna: 1-shaklda 2 ta uchburchak bor.

IV. Mustahkamlash. Faqat qo‘shish amalidan foydalanib 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 raqamlari yordamida 100 sonini hosil qiling.

Javob: $1+23+4+5+67=100$.

V. O‘quvchilar bilimini baholash, dars davomida faol qatnashganlarni rag‘batlantirish.

VI. Uyg‘a vazifa: 5-masala. Maktab sport to‘garagiga doir masala tuzib, uni yechish:

Bor edi va Yana sotib olishdi

10 ta

7 ta

? ta

6-misolni qanday yechish mumkinligini tushuntirib berish.

3-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 38–30 ko‘rinishidagi misollarni yechish. O‘rganilgan turdagi misol va masalalarni yechish (5–6-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlar mustahkamlanadi, 38–30 ko‘rinishidagi misollarni yechish o‘rgatiladi.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: Muammoli izlanish, interaktiv metodi.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida kartochka, tarqatma materiallar.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: a) o'quvchilarning misol, masalalarni tushuntirib yechish haqidagi egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) 38–30 ko'rinishidagi misollarni yechish haqida bilim berish, ayirishning qulay usullari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: a) o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib borish, uning sirlarini diqqat bilan o'rganish yo'llarini o'rgatish;

b) matematika fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olish malakasini o'stirib borish;

d) o'quvchilar ongiga yangi mavzu haqida bilim berish orqali har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik bilan bajarishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish fazilatlarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 38–30 ko'rinishidagi misollarni tushuntirib yechish bilimiga ega bo'ladilar. Sonlarni xona birliklarining yig'indisi ko'rinishida ifodalashni o'rganib oladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	«Tez javob»	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	Interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirib baholash. 2. O'rganilgan bilimlarini aniqlash. 3. Yangi mavzuni bayon etish, misolni tushuntirib yechish usuli bilan tanishtirish. 4. 2-misolni tushuntirib yechish. 5. 3-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish. 6. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 7. 4-misol. Geometrik shakllar.	savol-javob o'yin muammoli izlanish izlanish muammoli izlanish qo'shiq izlanish	3 minut 5 minut 4 minut 5 minut 5 minut 3 minut 4 minut

IV bosqich. Mustah- kamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash.	izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hi- sobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol.	tushuntirish	3 minut

III. Darsning borishi:

Dars shiori: «Kuch – birlikda.» I. Karimov

1. Uy vazifasini tekshirish. 6-misol.

$$47+3=50 \quad 68-60=8 \quad 36+4=40 \quad 87+3=90$$

$$54+4=58 \quad 26-20=6 \quad 77-7=70 \quad 58+2=60$$

2. O'rganilgan bilimlarini aniqlash maqsadida «Darchalarni to'ldir» o'yinini o'tkazish.

$$\square\square+20=100;$$

$$\square\square+5=100;$$

$$\square\square-6=60;$$

$$\square\square-40=50;$$

$$\square\square-8=50;$$

$$\square\square+3=70.$$

3. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. $38-30=\square$ ko'rinishdagi misolning yechilishini tushuntirish.

38 sonini xona qo'shiluvchilar yig'indisi ko'rinishida ifodalab, so'ng o'nliklardan o'nliklarni ayirib, natija topilishini tushuntirish.

$$38-30 = \square$$

/\

$$30 \quad 8$$

$$(30-30)+8=0+8=8$$

4. 2-misol. Yechish.

$$46-20=26$$

$$59-50=9$$

$$48+2=50$$

$$37+3=40$$

$$27-20=7$$

$$63-60=3$$

$$64+6=70$$

$$26+4=30$$

5. 3-masalani yechish.

Randalashi kerak – 38 ta taxta.

Randaladi – 30 ta taxta.

Yechish:

Yana randalashi kerak – ? ta taxta

$38-30=8$ ta taxta.

Javob: Duradgor yana 8 ta taxtani randalashi kerak.

6. Dam olish daqiqasini o'tkazish. Matematika darsligining o'quvchilarga bergan maslahatini yodga olamiz:

Mening ishim hisob-kitob,

Hamda berish nur-u, oftob.

Bo'lmay qolsam agar bir kun,

Dunyo bo'lar zim-ziyo tun.

O'rgan meni erta-yu, kech,

«Yomon» baho bo'lmasin hech.

Kimki bilsa meni a'lo,

U bilimli hamda dono.

7. 4-misol. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan qancha qisqa? Ikkinchi kesma birinchi kesmadan qancha uzun ekanligini chizg'ich yordamida aniqlashni o'rgatish.



IV. Mavzuni mustahkamlash maqsadida kartochkalar yordamida og'zaki savol-javob o'tkazish.

$$50+40=?$$

$$80-50=?$$

$$26+4=?$$

$$28-20=?$$

V. O'quvchilar bilimini baholab, dars davomida faol qatnashganlar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa: 5,6 -misol masala.

4-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: $57+32$, $57-32$ ko'rinishdagi misollarni yechish. Qiymati bir xil bo'lgan misollarni topish (6-7-bet).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'tilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlarni test orqali boyitib borish, $57+32$, $57-32$ ko'rinishidagi misollarni yechishga o'rgatiladi.
O'quv bilish faoliyati:
Metod: Interaktiv, muammoli izlanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida testlar yozilgan kartochka.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta'limiy: a) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli o'yinlar, yordamida boyitib borish;
b) $57+32$, $57-32$ ko'rinishidagi misollarni yechish usullari bilan tanishtirish.
Tarbiyaviy: a) o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib borish;
b) matematika fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olish malakasini o'stirib borish.
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 57+32, 57-32 ko'rinishidagi misollarni tushuntirib yechish haqida bilimga ega bo'ladilar. Sonlarni xona birliklarining yig'indisi ko'rinishida ifodalashni o'rganib oladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirib baholash. 2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 4. Yangi mavzuni bayon etish. Misolni tushuntirib yechish usuli bilan tanishtirish. 5. 2-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish. 6. 3-misol. Geometrik shakllarga doir topshiriqlar. 7. 4-misol. Jadvaldan javobi bir xil bo'lgan misollarni topish. 8. 5-masalani og'zaki yechish.	savol-javob test qo'shiq interaktiv metod muammoli izlanish izlanish muammoli izlanish amaliy ish	3 minut 5 minut 2 minut 4 minut 5 minut 4 minut 6 minut 3 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Yangi mavzu yuzasidan «Qaysi sonlar tushib qolgan?» o'yinini o'tkazish.	izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. Dars yakunlanadi.		2 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

Dars boshlashdan avval matematika darsida o'rganilgan shiorini aytirish: «**To'g'ri va xatosiz hisoblashni o'rganamiz va kompyuter saboqlaridan ogoh bo'lamiz**».

1. Uy vazifasini tekshirish. 5, 6-misol, masala.

2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi test-dan foydalanish.

1) Qaysi sonlar tushib qolgan?

20, 30, 40, 50, $\square\square$, 70, 80, 90, 100.

a) 20 b) 60 d) 70

2) 60 bilan 40 sonlarining yig‘indisini toping.

a) 100 b) 90 d) 80

3) 90 bilan 50 sonlarining ayirmasini toping.

a) 60 b) 40 d) 30

4) Javobida 70 soni chiqadigan misolni belgilang.

a) $57+3$ b) $57-32$ d) $67+3$

3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. O‘quvchilarning bilgan qo‘shiq-laridan aytirish.

4. Yangi mavzuni bayon etish. 1-misol. $57+32=\square\square$, $57-32=\square\square$ ko‘rinishidagi misollarning yechilishi bilan tanishtirish.

$$57+32=\square\square$$

$$57-32=\square\square$$

$$50+30=80$$

$$50-30=20$$

$$7+2=9$$

$$7-2=5$$

$$80+9=89$$

$$20+5=25$$

5. 2-masala. Yechish.

Qiz bola – 37 nafar
O‘g‘il bola – 22 nafar) ? nafar

Yechish: $37+22=59$ nafar.

Javob: Qo‘shiq-lar tanlovida 59 nafar o‘quvchi qatnashgan.

6. 3-misol. Rasmda tasvirlangan har bir shaklning nomini aytirish, nechta tomoni borligini topishga o‘rgatish.



1 – kvadrat; 2 – uchburchak; 3 – to‘g‘ri to‘rtburchak; 4 – oltiburchak; 5 – beshburchak.

7. 4-misol. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni bir xil belgilar bilan belgilashga o‘rgatish.

$47-22$	$20+20$	$44+15$	$60+40$
$83+17$	$38-30$	$68-43$	$58-50$
$90-50$	$67+3$	$37+22$	$38+32$

$$47-22=25 \square \quad 20+20=40 \square \quad 44+15=59 \circ \quad 60+40=100 \triangle$$

$$83+17=100 \triangle \quad 38-30=8 \diamond \quad 68-43=25 \square \quad 58-50=8 \diamond$$

$$90-50=40 \square \quad 67+3=70 \diamond \quad 37+22=59 \circ \quad 38+32=70 \diamond$$

8. 5-masala. Yechish.

Bor edi – 47 l benzin.

Sarflandi – 32 l benzin. Yechish: $47-32=15$ l benzin.

Qoldi – ? l benzin. Javob: Bakda 15 litr benzin qolgan.

IV. Mustahkamlash. Mavzuni mustahkamlash maqsadida «Qaysi sonlar tushib qolgan?» o‘yinidan foydalanish. Har qaysi tushib qoldirilgan songa nisbatan undan oldin keluvchi va keyin keluvchi sonlarni topish.



Namuna: 49 sonining oldi qo‘shnisi 48, orqa qo‘shnisi 50 ga teng.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarning bilimini baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6,7-misol. Uni qanday bajarish kerakligi tushuntirib beriladi.

5-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 96–44 ko‘rinishidagi misollarni yechish. Misollarning yechilishini taqqoslab, qulay usulini toptirish (7–8-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlarni didaktik o‘yin orqali boyitib borish, 96–44 ko‘rinishidagi misollarni yechish usullari haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: inteaktiv metodidan foydalanish, muammoli izlanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, gullar maketi.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta’limiy: a) o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini didaktik o‘yinlar yordamida boyitib borish; b) ayirishning qulay usullarini tanlashga o‘rgatish.

Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarni matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish; b) matematika fani orqali hayotni to‘g‘ri tasavvur eta olish malakasini o‘stirib borish;

d) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O‘quvchilar dars yakunida 96–44 ko‘rinishidagi misollarni tushuntirib yechish haqida bilimga ega bo‘ladilar. Sonlarni xona birliklarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalashni o‘rganib oladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish lozim bo‘lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirib baholash.	savol-javob	3 minut
	2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.	o‘yin	4 minut
	3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish.	qo‘shiq	2 minut
	4. Yangi mavzuni bayon etish. Misolni tushuntirib yechish usuli bilan tanishtirish va ularni taqqoslashga o‘rgatish, qulay usulini tanlay bilish.	muammoli izlanish	6 minut
	5. 2-masala. Rasm asosida berilgan masalani bajarish.	izlanish	3 minut
	6. 3-misolni yechish.	izlanish	4 minut
	7. 4-masalani yechish.	muammoli izlanish	5 minut
	8. 5-misolni yechish.	izlanish	4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirmadan foydalanib, dars mustahkamlanadi.	izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi.		2 minut
	2. Dars yakunlanadi.		2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	2 minut


III. Darsning borishi:

Darsni matematik shiorni aytirish bilan boshlash: «**Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun**».

1. Uy vazifasini tekshirish. 5-misol.

2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «**Topgan topaloq**» didaktik o‘yinidan foydalanish.

O‘qituvchi o‘yin qoidasi bilan tanishtiriladi. Magnit taxtachaga bir necha xil gul va uning barglari tasvirlangan plakat yopishtirilgan bo‘ladi. Masalan:



Gullardagi misollarning javobini barglardan izlab topib, olib kelib qo‘yishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘yinda o‘quvchilar misollarning javobini topish bilan birga, qaysi barg qaysi gulga tegishli ekanligini ham bilib oladilar. Gullardan tashqari mevalar, sabzavotlar bilan ham xuddi shunday o‘yin o‘tkazish mumkin.

3. Gullar haqida bilgan she‘r va qo‘shiqlaridan aytirib, dam olish daqiqasini o‘tkazish.

Chittiy gul

Chittiy gul-o, chittiy gul,

Etagingga gul bosay.

Qo‘ling qo‘lbog‘da bo‘lsin,

Beling belbog‘da bo‘lsin.

Hay-yu chittiy gul,

Hay-yu chittiy gul.

Dukur-dukur ot keldi,

Chiqib qarang kim keldi.

Aravada un keldi,

Childirmada gul keldi.

Hay-yu chittiy gul,

Hay-yu chittiy gul.

4. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. $96 - 44 = \square\square$ misolning yechilishini ikki usuli bilan tanishtirish.

$$96 - 44 = \square\square \quad \text{yoki}$$

$$96 - 44 = \square\square$$

$$90 - 40 = 50$$

$$96 - 40 = 56$$


$$6 - 4 = 2$$

$$56 - 4 = 52$$


$$50 + 2 = 52$$

Misolni yechishda oʻnliklardan oʻnliklar, birliklardan birliklarni ayirib yechiladi. Qaysi usul qulay ekanligini bilish uchun oʻquvchilar fikrini aniqlash.

5. 2-masalani ogʻzaki va yozma ravishda bajarib yechish.



12 kg



?, 4 kg yengil

Anorli yashik – 12 kg.

Yechish: $12 - 4 = 8$ kg uzum.

Uzumli yashik – ?, 4 kg yengil.

Javob: Uzumli yashik 8 kilogramm.

6. 3-misolni yechish.

$$87 - 34 = 53$$

$$90 - 50 = 40$$

$$98 - 64 = 34$$

$$58 - 32 = 26$$

$$38 - 12 = 26$$

$$70 - 30 = 40$$

$$29 - 13 = 16$$

$$46 - 24 = 22$$

7. 4-masalani ogʻzaki yechish.

Bor edi – 18 m atlas.



Qirqib olindi – 8 m atlas.

Yechish: $18 - 8 = 10$ m atlas.

Qoldi – ? m atlas.

Javob: Toʻpda 10 metr atlas qolgan.

8. 5-misol. Tushuntirib hisoblang:



Namuna: $40 + 30 = 70$

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma. Faqat qoʻshish amalidan foydalanib 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 raqamlari yordamida 89 sonini hosil qiling.

$$\text{Javob: } 18 + 12 + 5 + 24 + 23 + 7 = 89;$$

$$26 + 4 + 17 + 13 + 21 + 8 = 89.$$

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilarning bilimini baholab, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol.

6-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Qoʻshishni tekshirish. Oʻrganilgan turdagi misol va masalalar yechish (8–9-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha taʼrifi: Oʻtilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlarini didaktik oʻyin orqali boyitib borish, qoʻshishni tekshirish haqida bilim berish.

O'quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, interfaol metodlaridan foydalanish, didaktik o'yin, muammoli izlanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar, gullar maketi, jadval.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: a) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini didaktik o'yinlar yordamida boyitib borish;

b) qo'shishni tekshirish haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: a) o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib borish;

b) matematika fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olish malakasini o'stirib borish;

d) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozir-javoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida qo'shishni tekshirish usullari haqida bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshirildi.	tez javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. 2-misolni yechish va uni tekshirish. 4. 3-masala. Masalalarni yechilishini taqqoslash	o'yin muammoli izlanish izlanish izlanish	4 minut 5 minut 6 minut 6 minut

	5. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 6. 4-misol. Jadval asosida berilgan misollarni yechish. 7. 5-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.	qo'shiq izlanish savol-javob	2 minut 5 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	O'qituvchilar savol-javobdan foydalanib, yangi mavzu mustahkamladi.	izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Chaqqon bilimdonlar» didaktik o'yinidan foydalanish.

O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Xattaxtaning ikki tomoniga ikki ustun misol yozilgan bo'ladi. Ikki o'quvchi xattaxtaga chiqarilib, o'ng tomondagi misollarning javobini bir o'quvchi, chap tomonda yozib qo'yilgan misollarning javobini ikkinchi o'quvchi topib, yozishi kerak.

O'ng tomon

1-o'quvchi

$$60 + \square = 100$$

$$90 - \square = 40$$

$$57 + \square = 89$$

$$96 - \square = 52$$

Chap tomon

2-o'quvchi

$$70 + \square = 100$$

$$80 - \square = 50$$

$$37 + \square = 52$$

$$38 - \square = 8$$

Kim birinchi bo'lib misollarning javobini yechib bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib deb hisoblanadi. Misollarning javobini topishga qiynalgan o'quvchilarga sinfdagi o'rtoqlari yordam berishi mumkin. Agar sinfda o'tirgan o'quvchilardan misolni birinchi bo'lib bajarsa, o'sha o'quvchini baholab rag'batlantiriladi. Bunday o'yinlar o'quvchilarni chaqqonlikka, hozirjavoblikka, topqir bo'lishga chorlaydi.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. O'quvchilar diqqatini yangi mavzuni yoritishga qaratish.



$$6 + 4 = 10$$

$$10 - 6 = 4$$

$$10 - 4 = 6$$

Qo‘shishni tekshirish uchun yig‘indidan qo‘shiluvchilarning birini ayirish kerak. Agar ayirmada ikkinchi qo‘shiluvchi hosil bo‘lsa, yechim to‘g‘ri bo‘ladi.

3. 2-misol. Misolni ayirish amali bilan tekshirish mumkinligini tushuntirib berish.

$$34+12=46 \text{ tekshirish} \quad 46-34=12$$

$$41+27=68 \text{ tekshirish} \quad 68-41=27$$

$$62+3=65 \text{ tekshirish} \quad 65-62=3$$

$$56+22=78 \text{ tekshirish} \quad 78-56=22$$

4. 3-masala. Masalalarning yechilishini taqqoslashga o‘rgatish.

1) Oq atirgul – 30 ta
Qizil atirgul – 40 ta) ? ta.

Yechish: $30 + 40 = 70$ ta atirgul.

Javob: Issiqxonada hammasi bo‘lib 70 ta atirgul bor.

2) Bor edi – 70 ta atirgul.

Olib ketdi – 30 ta atirgul.

Qoldi – ? ta atirgul.

Yechish: $70 - 30 = 40$ ta atirgul.

Javob: Issiqxonada 40 ta atirgul qolgan.


5. Dam olisi minutsini o‘tkazish. O‘rgangan qo‘shiqlaridan aytirish.


6. 4-misol. Jadval asosida berilgan misollarni yechish.

Qo‘shiluvchi	60	32	24	50	26	14	57
Qo‘shiluvchi	40	8	13	5	32	6	32
Yig‘indi							

Namuna: 60 bilan 40 ning yig‘indisi 100 ga teng va hokazo.

7. 5-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.

1) 

2) 

Yechish: 1) $15 + 10 = 25$ kg ikkita chelakdagi sabzi.

2) $70 - 40 = 30$ kg ikkinchi bochkadagi asal.

IV. Mustahkamlash. Og‘zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.

- 1) Qo‘shish amalini qaysi amal bilan tekshirish mumkin?
- 2) Qanday geometrik shakllarni bilasiz?

V. Darsni yakunlash. O‘quvchilar bilimini baholab, dars davomida faol qatnashganlarni rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol.

7-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Ayirishni tekshirish. Misol va masalalar yechish (10–11-bet).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlari mustahkamlanadi, ayirishni tekshirish o‘rgatiladi.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: aqliy hujum, muammoli izlanish, musobaqa, interfaol metodlaridan foydalanish, matematik diktant, .			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, mevalar maketi, jadval.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta’limiy: a) o‘quvchilarni qo‘shishni tekshirish yuzasidan egallagan bilimlarini turli-tuman topshiriqlar yordamida boyitib borish; b) ayirishni tekshirish haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish; b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, chaqqon bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida ayirishni tekshirish usullari haqida bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut

II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar aniqlanadi.	interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. 2-misolni yechib, uni tekshirish. 4. 3-masala. Masalalarni taqqoslash. 5. 4-misol. Jadval asosida berilgan misollarni yechish.	test suhbat izlanish izlanish muammoli izlanish	5 minut 4 minut 6 minut 6 minut 7 minut
IV bosqich. Mustahka- mlash	Perfokartochkadan foydalanib, mav- zu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hi- sobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		3 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test o'tkazish.

1) Bitta savatchada 40 kg, ikkinchi savatchada 30 kg olma bor. Ikkala savatchada necha kilogramm olma bor?

a) 70 kg b) 60 kg d) 50 kg

2) 56 bilan 4 ning yig'indisini belgilang.

a) 70 b) 60 d) 40

3) 70 bilan 50 ning ayirmasini belgilang.

a) 30 b) 40 d) 20

4) 48 bilan 40 ning ayirmasini belgilang.

a) 8 b) 9 d) 7

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. O'quvchilarga yangi mavzuni olmalar bilan tushuntirib berish.



$$16 - 4 = 12$$



$$12 + 4 = 16$$

**Ayirishni tekshirish uchun ayirmaga ayriluvchini qo'shish kerak.
Agar yig'indida kamayuvchi hosil bo'lsa, yechim to'g'ri bo'ladi.**

$$67 - 6 = 61 \quad \text{tekshirish: } 61 + 6 = 67$$

3. 2-misol. Misollarni yechib, ularni tekshirishga o'rgatish.
 $58-25=33$ tekshirish $33+25=58$; $35-4=31$ tekshirish $31+4=35$;
 $88-7=81$ tekshirish $81+7=88$; $75-3=72$ tekshirish $72+3=75$.

Demak, qo'shishni ayirish bilan tekshirgan bo'lsak, ayirishni qo'shish bilan tekshirish mumkin ekan.

4. 3-masala. Masalalarning yechilishini taqqoslashga o'rgatish.

1) Bor edi – 90 m gazlama.

Qirqib olindi – 50 m gazlama.

Qoldi – ? m gazlama.

Yechish: $90-50=40$ m gazlama.

Javob: To'pda 40 metr gazlama qolgan.

2) Qirqib olindi – 50 m gazlama.

Qoldi – 40 m gazlama.

Bo'lgan – ? m gazlama.

Yechish: $50+40=90$ m gazlama.

Javob: Dastlab to'pda 90 metr gazlama bo'lgan.

5. 4-misol. Jadval asosida berilgan misollarni yechish.

Kamayuvchi	90	80	38	57	96	70	49
Ayiriluvchi	50	30	30	32	44	10	24
Ayirma							

Kamayuvchi 90, ayiriluvchi 50 bo'lganda ayirma 40 ga teng;

Kamayuvchi 80, ayiriluvchi 30 bo'lganda ayirma 50 ga teng;

Kamayuvchi 38, ayiriluvchi 30 bo'lganda ayirma 8 ga teng
va hakoza.

IV. Mustahkamlash. Perfokartochkadan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi. Bo'sh doirachalar o'rniga kerakli sonlarni qo'yib, vazifani bajarishga o'rgatish.

$$\textcircled{60} + \textcircled{\quad} = \textcircled{90}$$

$$\textcircled{\quad} - \textcircled{50} = \textcircled{40}$$

$$\textcircled{96} + \textcircled{\quad} = \textcircled{52}$$

$$\textcircled{47} + \textcircled{\quad} = \textcircled{69}$$

$$\textcircled{\quad} - \textcircled{22} = \textcircled{58}$$

$$\textcircled{\quad} + \textcircled{44} = \textcircled{69}$$

V. O'quvchilar bilimni baholab, dars davomida faol qatnashganlarni rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa: 5,6-misol, masala.

8-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: To'g'ri burchak. To'g'ri va to'g'rimas burchaklar. Yig'indini topishga doir masalalar yechish (11–12-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'tilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlari mustahkamlanadi, ayirishni tekshirish o'rgatiladi, to'g'ri burchak va to'g'rimas burchaklar haqida bilim beriladi.

O'quv bilish faoliyati:

Metod: aqliy hujum, interfaol, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida geometrik shakllar, jadval.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: a) o'quvchilarni ayirishni tekshirish yuzasidan egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) to'g'ri va to'g'rimas burchaklar haqida bilim beriladi, yig'indini topishga doir masalalar yechish.

Tarbiyaviy: a) mavzuni hayot bilan bog'lay olish xususiyatini tarbiyalab borish;

b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozir-javoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida to'g'ri va to'g'rimas burchaklar haqida bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar aniqlanadi.	interaktiv metod	2 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. To‘g‘ri va to‘g‘ri bo‘lmagan burchaklar haqida bilim berish. 3. 2-masalani yechish. 4. 3-misolni yechish. 5. 4-masala. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzish. 6. 5-misol. Go‘niya haqida ma’lumot.	o‘yin muammoli izlanish izlanish izlanish tushuntirish amaliy ish	4 minut 8 minut 5 minut 6 minut 5 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	She’riy ibora orqali mavzu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e’lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Men bir son o‘yladim» o‘yinini o‘tkazish.

Men bir son o‘yladim, ana shu o‘ylagan sonimga 40 sonini qo‘shgan edim, 100 hosil bo‘ldi, men o‘ylagan sonni toping, do‘stlarim. Men 90 sonidan bir sonni ayirgan edim 50 hosil bo‘ldi, men o‘ylagan sonni toping, do‘stlarim.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1. Bular to‘g‘ri burchaklar.




Bular to‘g‘ri burchaklar emas.



Go‘niyaning bitta burchagi to‘g‘ri burchak, qolgan ikkita burchagi to‘g‘ri burchak emas.

Go‘niya yordamida ko‘pburchaklardagi to‘g‘ri burchaklarni aniqlang.



3. 2-masala. Yechish.

Choynak – 20 ta
piyola – 18 ta)? ta idish

Yechish: $20+18=38$ ta choynak va piyola.

Javob: Oshxonaga hammasi bo'lib 38 ta choynak va piyola keltirilgan.

4. 3-misollarni yechish.

$$90-70=20$$

$$74+26=100$$

$$49+1=50$$

$$39-30=9$$

$$46-40=6$$

$$45+20=65$$

$$38+2=40$$

$$51+19=70$$

5. 4-masalani yechish.

Bor edi – 38 kg bodring

Tuzlandi – 30 kg bodring


Qoldi – ? kg bodring

Yechish: $38-30=8$ kg bodring.

Javob: Tuzlangandan keyin 8 kilogramm bodring qolgan.



6. 5-misol. Go'niya yordamida to'g'ri burchaklarni, to'g'ri burchakdan katta burchaklarni, to'g'ri burchakdan kichik burchaklarni aniqlash.



a) To'g'ri burchaklardan kichik burchaklarning tartib raqamini yozish;

b) To'g'ri burchakdan katta burchaklarning tartib raqamini yozish.

IV. Mustahkamlash. Hayotda to'g'ri to'rtburchaklar qayerda uchrashi mumkin?

Burchagim tomonlari bo'lsa to'g'ri, tekis, teng

Qo'rqmay meni ko'rsatib, shunda to'g'ri burchak deng.

V. Darsni yakunlash. O'quvchilar bilimini baholash va rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6–7-misollar.

9-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Ko'pburchak perimetri. (12–13-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta'rifi: To'g'ri to'rtburchak haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash. Ko'pburchak perimetri. shakllarning perimetrini topishga o'rgatish.			
O'quv bilish faoliyati:			
Metod: aqliy hujum, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish, o'yin.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar, geometrik shakllar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'quvchilarni to'g'ri to'rtburchak haqida egallagan bilimlarini boyitib borish; b) ko'pburchakning perimetri haqida bilim berish; d) o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, qiziqishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, aqlini charxlash.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash. b) ko'pburchaklarning turmushdagi o'rnini haqidagi bilganlarini takomillashtirish.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida ko'pburchakning perimetrini topish haqida bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyohlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. Ko‘p- burchak perimetrini topish haqida bil- im berish (qoidasi bilan tanishtirish). 3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 4. 3-misolni yechish. 5. 4-masalalarni yechish. 6. 5-misol. Taqqoslashga doir. 7. 6-masala. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzib uni yechish.	o‘yin evristik metod topishmoq izlanish izlanish izlanish amaliy mashg‘ulot	4 minut 7 minut 3 minut 5 minut 5 minut 5 minut 4 minut
IV bosqich. Mustah- kamlash	Shakllarning perimetrini topishga doir mashg‘ulot o‘tkazish orqali mavzu mustahkamlanadi.	amaliy mashg‘ulot	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hi- sobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	7,8-misol.	tushuntirish	1 minut


III. Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Ha va yo‘q» o‘yinini o‘tkazish.

- Qo‘shishni ayirish amali bilan tekshirish mumkin-mi?
- Ha.
- Ayirishni qo‘shish amali bilan tekshirish mumkin-mi?
- Ha.
- Hamma tomonlari bir-biriga teng bo‘lgan shaklni uchburchak desak bo‘ladimi?
- Yo‘q.
- Go‘niya yordamida to‘g‘ri to‘rtburchakning burchagini topish mumkinmi?
- Ha.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

Bu to‘rtburchaklarning hamma burchaklari to‘g‘ri burchak.



Ko'pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisi uning perimetridir.

Quyidagi to'rtburchakning perimetrini topish.

$$8+2+8+2=20 \text{ sm}$$



3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. Matematik topishmoqlardan aytirish.

*Ko'm-ko'k terak ostiga qurdik belanchak,
Belanchakda uchmoqqa, hayvonlar lak-lak.
To'planishib navbatda, turishar bir-bir,
Sakkiz malla tulki-yu, o'n beshta bo'richa,
Yetti ayiq bolasi, bir juft quyoncha.
Ayting-chi bolalar, hammasi nechta?*

Javob: $8+15+7+2=32$ ta

4. 3-misolni yechish.

$46+20=66$

$74-30=44$

$67+10=77$

$59-50=9$

$50+35=85$

$60+20=80$

$57-32=25$

$30+22=52$

5. 4-masalani yechish.

1-to'pda – 48 m
2-to'pda – ?, 8 m kam)? m shoyi

Yechish: 1) $48-8=40$ m ikkinchi to'pdagi shoyi.

2) $48+40=88$ m ikkala to'pdagi shoyi.

6. 5-misol. Taqqoslashga o'rgatish.

$90-50=40$

$60+40>50$

$57+3<70$

$38+20<70$

$48+2>30$


$53+7=60$

7. 6-masala. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib, uni yechishga o'rgatish.

1-savatda – 10 kg.
2-savatda – 16 kg.)? kg.

Yechish: $10+16=26$ kg uzum.

Javob: Ikkala savatda 26 kilogramm uzum bor.



IV. Mustahkamlash. Daftarlari gini sinq chiziq chizdirish. Ularning bo‘g‘inlari uzunligini o‘lchab, yig‘indisini topishga o‘rgatish. Quyidagi to‘rtlikni esga olamiz:

*Xoh yerda, xoh osmonda,
Xizmatga shay biz chiziq.
Qo‘llang faqat keragin,
To‘g‘ri, egri yo sinq.*

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 7–8-misol.

11-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: O‘tilganlarni mustahkamlash (14–15-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: To‘g‘ri va to‘g‘rimas burchaklar haqida egalagan bilimlarini boyitib borish. Tarkibli masalalar yechish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: aqliy hujum, kommunikatsion metoddan foydalanish.
Shakl: Jmoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, geometrik shakllar.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta‘limiy: a) o‘quvchilarning to‘g‘ri va to‘g‘rimas burchaklar yuzasidan egalagan bilimlarini boyitib borish; b) to‘g‘ri to‘rtburchakka doir bilimlarini takomillashtirish, tarkibli masalalar yechish.
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish; b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozir-javoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, ziyrak bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.
Kutilayotgan natija
O‘quvchilar dars yakunida to‘g‘ri to‘rtburchak, tarkibli masalalar yechish haqida bilimga ega bo‘ladilar.


Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikatsion metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	ertak	4 minut
	2. 1-masala. Jadval asosida masala tuzib uni yechish.	muammoli izlanish	5 minut
	3. 2-misol.	izlanish	5 minut
	4. 3-masalani yechish.	izlanish	4 minut
	5. 4-misol. Namuna bo'yicha bajarish.	savol-javob	4 minut
	6. 5-misol.	izlanish	4 minut
	7. 6-masalani yechish.	izlanish	3 minut
	8. 8-masalani og'zaki yechish.	izlanish	4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi.		1 minut
	2. Dars yakunlanadi.		1 minut
VI bosqich. Uygavazifa	10,11-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Zumrad va Qimmat» ertagidan foydalaniladi:

Buning uchun magnit taxtachaga Zumrad, o'gay ona, daraxtlarning maketi yopishtirilgan bo'ladi. Zumrad o'gay onasidan qochib kelayapti, yo'lda uchragan narsadan (m-n: daraxtdan) berkitishni so'raydi. U Zumradga quyidagi savollarni beradi: magnit taxtachaga yopishtirilgan shakllarni ko'rsatib, qaysi biri to'g'ri burchaklar, qaysi biri to'g'ri burchak emasligini ajratib aytib ber? Shu savolga to'g'ri javob bersang berkitaman, deydi. Zumrad aqlli, odobli qiz bo'lgani uchun bu savollarga darrov javob beribdi. Sizga Zumradning qaysi xislatlari yoqdi?

2. 1-masala. Jadval asosida masala tuzib, uni yechiga o'rgatish.

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
 UN 30 kg	ertalab – 12 kg tushda – 14 kg	? kg

Yechish: 1) $12+14=26$ kg ishlatilgan un.

2) $30-26=4$ kg qolgan un

Javob: qopda 4 kg un qolgan.

3. 2-misolni yechish.

$$78-20=58$$

$$62+23=85$$

$$47-7=40$$

$$100-62=38$$

$$56+23=79$$

$$69-35=34$$

$$59-9=50$$

$$100-39=61$$

4. 3-masalani yechish.

Bor edi – 48 l yonilg'i

Qoldi – 8 l yonilg'i

Ishlatilgan – ?

Yechish: $48-8=40$ litr yonilg'i.

Javob: 40 litr yonilg'i ishlatilgan.

5. 4-misolni namuna bo'yicha bajarish. $53=50+3$

$$76=70+6$$

$$44=40+4$$


$$39=30+9$$

$$96=90+6$$

$$28=20+8$$

$$67=60+7$$

6. 5-misol. Siniq chiziqning har bir bo'g'inining uzunligini aniqlab, ularning uzunliklarining yig'indisini topishga o'rgatish.



7. 6-masala.

Keltirildi – 29 l sut


Sotildi – 20 l sut

Qoldi – ? l sut.

Yechish: $29-20=9$ litr sut qolgan.

Javob: Do'konda 9 litr sut qolgan.

8. 8-masalani og‘zaki yechish.



Qo‘g‘irchoqlar mashinalardan 1 ta kam, mashinalar qo‘g‘irchoqlardan 1 ta ko‘p. Hamma o‘yinchoqlar 19 ta.

IV. Mustahkamlash. O‘qituvchi o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi, har bir o‘quvchiga quyidagi tartibda tayyorlangan kartochka tarqatiladi. Kim birinchi bo‘lib topsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib deb rag‘batlantiriladi.

$$\begin{array}{ccccccc}
 (7) & + & (\quad) & + & (4) & + & (\quad) & = & (18) \\
 + & & + & & + & & + & & \\
 (\quad) & + & (5) & + & (\quad) & + & (8) & = & (24) \\
 + & & + & & + & & + & & \\
 (6) & + & (\quad) & + & (3) & + & (\quad) & = & (22) \\
 + & & + & & + & & + & & \\
 (\quad) & + & (4) & + & (\quad) & + & (2) & = & (20) \\
 \parallel & & \parallel & & \parallel & & \parallel & & \\
 (26) & + & (23) & + & (19) & + & (16) & &
 \end{array}$$

Bo‘sh darchalarga son topib qo‘yilganda eniga 18, 24, 22, 20 hosil bo‘lishi kerak, bo‘yiga hisoblab chiqilganda esa 26, 23, 19, 16 hosil bo‘lishi kerak.

V. Darsni yakunlash. O‘quvchilar bilimini baholash va rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 10–11-misollar.

12-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 18 ichida bir xonali sonlarni o‘nlik orqali o‘tib qo‘shish. Sodda va tarkibli misol va masalalar yechish (16–17-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 18 ichida bir xonali sonlarni o‘nlik orqali o‘tib qo‘shishni o‘rgatish.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, muammoli izlanish metodidan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: a) o'atilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli topshiriqlar yordamida boyitib borish;

b) 18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib qo'shish haqida bilim berish, bo'laklab qo'shish usuli.

Tarbiyaviy: a) o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib borish;

b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozir-javoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

d) o'quvchilarda odob-axloq madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib qo'shish haqida bilimga ega bo'ladi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomati aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'atilgan darsni mustahkamlash, o'rgangan bilimlarini umumlashtirish. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 10 sonini hosil qilish usuli bilan tanishtirish. 3. 2-masalani yechish. 4. 3-misollarni yechish. 5. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 6. 4-masalani yechish. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib, uni yechish. 7. 6-masalani yechish.	test evristik metod izlanish izlanish qo'shiq muammoli izlanish izlanish	5 minut 5 minut 5 minut 5 minut 4 minut 5 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	5 minut


V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa.	7, 8-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida testdan foydalanish.

- 57 bilan 3 ning yig'indisini belgilang.
a) 59 b) 60 d) 61
- 47 bilan 7 ning ayirmasini belgilang.
a) 40 b) 54 d) 30
- Javobi 59 ga teng bo'lgan misolni belgilang.
a) 47-22 b) 37+22 d) 47-12

2. Yangi mavzuni bayon etish. 10 sonini hosil qilish uchun darchalar ichiga qaysi sonlarni qo'yish kerak.



$\square + 2$

$9 + 2 = \square\square$

Agar 9 ga 2 ni qo'shish kerak bo'lsa, sonni bo'laklab qo'shish qo'shiladi. Bu quyidagicha bajariladi:

- Avval 10 sonini hosil qilish uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha qo'shiladi: $9+1=10$
- 2 — bu 1 + 1 ekanligi eslatiladi. 9 ga 1 qo'shildi, 10 hosil bo'ldi, yana 1 ni qo'shish kerak. $10+1=11$ bo'ladi.

Demak:

$9 + 2 = 11$

yoki $9 + 2 = \square\square$

$9 + 1 + 1 = 11$

3. 2-masalani yechish.

Bor edi – 9 ta yong‘oq)? ta
Berdi – 2 ta yong‘oq

Yechish: $9+2=11$ ta yong‘oq.

Javob: Dilshodda 11 ta yong‘oq bo‘ldi.

4. 3-misolni yechish.

$34+20=54$

$40-20=20$

$54+30=84$

$28+12=40$

$60-40=20$

$60-20=40$

$42+25=67$

$30-10=20$

$46+14=60$

5. Dam olish daqiqasida o‘rgangan qo‘shiqlaridan aytirish.

6. 4-masala. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzib, uni yechish.

1) Ertak kitoblar – 9 ta)? ta
She‘riy kitoblar – 2 ta

Yechish: $9+2=11$ ta kitob

Javob: Hamma kitoblar 11 ta.

2) Ertak kitoblar – 9 ta)? ta
She‘riy kitoblar – 2 ta ortiq

Yechish: $9+2=11$ ta she‘riy kitob
 $9+11=20$ ta hamma kitob

Javob: Hamma kitoblar 20 ta.

7. 6-masalani og‘zaki yechish.

Beshik – 9 ta

Belanchak – ?, 2 ta ko‘p

Yechish: $9+2=11$ ta. Javob: Hunarmand 11 ta belanchak yasagan.

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma.

O‘qituvchi o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi. Buning uchun hamma o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi perfokartochka tarqatiladi. Uni qanday bajarish kerakligi tushuntiriladi. Uning bir tomonidagi cho‘ntakchaga (konvertga) yozilgan misolning javobi yon tomonidagi doirachada yozilgan bo‘ladi. Masalan: 60 bilan 30 ning yig‘indisi o‘zining qatoridagi to‘rtinchi doirachada berilgan bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchi perfokartochkaning birinchi qatoridagi to‘rtinchi katakni bo‘yaydi.

1. $60+30$ (40) (50) (60) (90)
2. $90-40$ (50) (60) (40) (30)
3. $67+3$ (50) (70) (60) (20)
4. $76-34$ (32) (44) (42) (52)

1.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
2.	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
3.	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
4.	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

V. Darsni yakunlash. O‘quvchilar bilimini baholash va rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 7, 8-misol, masala.

13-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 9+2, 9+3, 8+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish. O‘rganilgan turdagi misol va masalalarni yechish (18-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 9+2, 9+3, 8+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish usullari haqida bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, muammoli izlanish metodlardan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini matematik diktant, matematik maqollar yordamida boyitib borish;			
b) 9+2, 9+3, 8+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish usuli bilan tanishtirish.			
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish;			
b) har bir matematik muammolarni ahillik, hamjihatlik, hozirjavoblik, xushmuamolalik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida 9+2, 9+3, 8+3 ko‘rinishidagi misollarni yechish haqidagi bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o‘quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar belgilanadi.	ijodiy	2 minut
III bosqich. Darsning	1. Uy vazifani tekshirish. 2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.	munozara diktant	2 minut 5 minut

borishi	3. Dam olish daqiqasini oʻtkazish.	maqollar	4 minut
	4. Yangi mavzuni bayon etish. $9+2$, $9+3$, $8+3$ koʻrinishidagi misollarni yechish usuli bilan tanishtirish.	muammoli izlanish	7 minut
	5. 2-masalalarni yechish va ularni taqqoslash.	izlanish	5 minut
	6. 3-misolni yechish.	tushuntirish	5 minut
	7. 4-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.	evristik metod	4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Muammoli topshiriq.	izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. Oʻquvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi eʼlon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish. 6-misol.

2. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida matematik diktant oʻtkazish.

1) 74 bilan 26 ning yigʻindisini toping. Javob: 100;

2) 36 bilan 30 ning ayirmasini toping. Javob: 6;

3) 96 bilan 44 ning ayirmasini toping. Javob: 52;

4) 9 bilan 2 ning yigʻindisini toping. Javob: 11.

3. Dam olish daqiqasida Sonli maqollardan aytirish.

1. Bilagi zoʻr birni yiqar,

Bilimi zoʻr mingni yiqar.

3. Sanamay sakkiz dema,

Oʻylamay oʻttiz.


2. Ilmsiz bir yashar,

Ilmli ming yashar.

4. Hiylagar uchun bahona

mingta.

4. Yangi mavzuni bayon etish.



$9 + 3 = \square \square$
 $\swarrow \searrow$
 $1 \quad 2$
 $9 + 1 + 2 = 12$

	<div style="border: 2px solid magenta; padding: 5px; display: inline-block;"> □ + 3 </div>
--	---

Yodingizda tuting:

$9+2=11$	$9+3=12$	$8+3=11$
----------	----------	----------

5. 2-masalalarni yechish.


1-likopchada – 9 ta
 2-likopchada – 3 ta) ? ta

Yechish: $9+3=12$ ta shirin kulcha.
 Javob: 2-ta likopchada 12 ta kulcha bor.


6. 3-misolni yechish.

$8+2=10$	$8+3=11$	$24+6=30$	$38-30=8$
$9+2=11$	$9+3=12$	$17-7=10$	$47+22=69$

7. 4-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechishga o'rgatish.



Yechish: $8+3=11$ ta gul.
 Javob: Ikkala vazada 11 ta gul bor.



Yechish: $9+3=12$ kg.
 Javob: Ikkala xaltadagi mevalar 12 kilogramm.

IV. Mustahkamlash. Kalavanning uchini topsangiz, ertak nomlaridan birini bilib olasiz.

$8+3$	O	$36-24$	M	$28-20$	Sh
$8+2$	G'	$9+3$	L	$9+2$	O
8	11	12	10	11	12

V. Darsni yakunlash. O'quvchilar bilimini baholash va rag'batlantirish.

VI. Uyg' vazifa: 5, 6-misol, masala.

16-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Yig'indini topishga doir masalalar. Bo'sh kataklarni to'ldirishga doir misollar yechish. (21-22-bet).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta'rif: O'rganilgan barcha bilimlarni takrorlash maqsadida, «Sayohat sarguzashtlari» ertagidan foydalanish.			
O'quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, interfaol metodlardan foydalanish, ertak.			
Shakl: Noan'anaviy dars.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini ertak yordamida boyitib borish va ularning bilimlarini umumlashtirish; b) yig'indini topishga doir masalalar yechish haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida yig'indini topishga doir masalalar yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglab, o'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	tez javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	3 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. Dars kayfiyatni ko‘taradigan musiqa bilan boshlanadi.	namoyish	3 minut
	2. O‘qituvchining suhbat. Ertakning boshlanishi bilan tanishtiriladi.	munozara	5 minut
	3. Opa-singillarning sayohati davomida yo‘lda uchragan topshiriqlarni bajarish:	ertak	4 minut
	a) 1-masalani yechish;	izlanish	5 minut
	b) 2-misol. Darchalarni to‘ldirish;	izlanish	4 minut
	d) 3-misolni yechish;	izlanish	4 minut
	e) 4-misol. Bo‘sh kataklarni to‘ldirishga o‘g‘atish.	muammoli	4 minut
f) 5-misol. Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun katakchalar o‘rniga mos sonlarni qo‘yib, misollarni yechish.	izlanish	4 minut	
IV bosqich. Mustahkamlash	Jadval asosida berilgan misollarni qiymatini topib, og‘zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.	amaliy mashg‘ulot	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.	musobaqa	1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. Kayfiyatni ko‘taradigan musiqa bilan darsni boshlash.

2. O‘qituvchining suhbat: Opa-singillarning sayohati haqida hikoya qilish

O‘quvchilarning bilimdonligini yanada oshirish maqsadida «Sayohat-sarguzashtlari» ertagidan foydalaniladi. O‘qituvchi o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi. Buning uchun qalin qog‘ozdan yasalgan anor butasining maketi, kartondan yasalgan anor, sabzavotlardan sabzi, piyoz, poliz ekinlaridan qovun, tarvuz maketlari magnit taxtachasiga yopishtiriladi. Albatta dalaning rasmi ham tayyorlab qo‘yiladi. Ertak shunday boshlanadi: bir bor ekan, bir yo‘q ekan, uchta opa-singil bor ekan. Ularning ismlari: Gulnoza, Dilnoza, Shahnoza ekan. Ular dalaga sayrga chiqishibdi. Uchala qiz yo‘l yurishibdi, yo‘l yurishsa ham mo‘l yurishibdi. Yo‘lda ketayotganlarida anor butasining maketi orqasidan bir o‘quvchi ovoz chiqaradi:

Anorlar: «Bizlarni uzib olinglar, bizlar pishib yorilib-yorilib ketayapmiz» deyishibdi.

Opa-singillar: Hozir, hozir, biz sizlarni uzib olamiz deyishibdi. Opasi Gulnoza bittadan anorni uzib singillariga uzatibdi. Singillari anorlarni olib yashiklarga joylashtirayotgan ekan, yegilari kelib ketibdi.

a) Opasi: Singillarim bu anordan yeyish uchun darslikning 21-betidagi 1-masalani yechish kerak, debdi.

Yurgan edi – 8 ta kaptar)
 Qo‘shildi – 5 ta kaptar) ? ta kaptar

Yechish: $8+5=13$ ta kaptar.

Javob: Hamma kaptarlar 13 ta bo‘ldi.

Masalani yechilishini juda to‘g‘ri topdingiz, endi o‘tirib, anordan yesak bo‘ladi, so‘ng quyidagi she‘rni yodga olamiz:

Anorman, qizil yuzim,

Sig‘may, qonab ketaman.

Yumaloqman, men o‘zim.


Asta ochib xonamni,

Senga aytmay netaman,

Olib yegin donamni.

Opa-singillar anordan bahramand bo‘lishib, yana yo‘lda davom etishibdi. Opa-singillar dalaga kirib borishibdi, u yerda qovun, tarvuzga duch kelishibdi. Qovun, tarvuz maketi orqasidan bir o‘quvchi ovoz beradi: «Bizni uzib olinglar, pishib ketdik».

b) – Hozir, hozir, biz sizlarni uzib olamiz, deydi opa-singillar. Qovun, tarvuzni mashinaga ortib, shaharga jo‘natayotgan dehqonlarga yordam berib yuborishibdi. Ammo, qovun, tarvuzdan juda-juda yegilari kelib ketibdi. Buning uchun darslikdagi 2-misolni yechish kerakligi tushuntiriladi.



Namuna: 11 sonini hosil qilish uchun 9 bilan 2 deb olish mumkin. Darchaga 2 sonini qo‘yish kerakligi tushuntiriladi.

d) Qo‘shimcha 3-misolni yechish kerak.

9+2	8+2	7+3	9+4
8+4	9+5	8+3	6+5
8+5	9+3	7+4	7+5

$9+2=11$ $8+4=12$ $8+5=13$

$9+3=12$ $8+2=10$ $9+5=14$

$8+3=11$ $7+4=11$ $7+3=10$

$9+4=13$ $6+5=11$ $7+5=12$

Opa-singillar sinfdagi o‘quvchilarni yordamga chaqirishdi, birgalikda muhokama qilib, qovun, tarvuzdan barchalari bahramand bo‘lishibdi.

Qovun:

*Navlarimiz rang-barang,
Shakarpalak, bosvoldi,
Bilganlar qanchamizni,
Uy shiftiga osvoldi.*

Tarvuz:

*Beqasam to‘n tarvuzim,
Bozorlarga yuboring.
To‘yib yesin yaxshilar,
Qolmasin hech g‘ubori.*

Opa-singillar qovun-tarvuzdan maza qilib yeb, inson salomatligi uchun foydasi beqiyosligini bahslashib, yo‘lda davom etishibdi. Yo‘lda dehqonlar sabzavotlarni yig‘ishtirib, qopga solishayotgan ekan:

«Bizlarga yordam berib yuboringlar» degan ovoz chiqibdi.

e) Bo‘sh kataklarga kerakli sonlarni qo‘yib misollarni yechish kerakligi tushuntiriladi.

$$9 + \square = 11$$

$$8 + \square = 12$$

$$8 + \square = 13$$

$$8 + \square = 11$$

$$9 + \square = 12$$

$$9 + \square = 13$$

Barakalla, misol va masalaning javobini juda to‘g‘ri topdingiz, piyoz, sabzi haqidagi quyidagi she‘rlarni yod olamiz.

Piyoz

*Bozorda qish, yo yozdir,
Eng kerakligi piyozdir.
Oshga solmay ko‘ring-chi,
Tam bermaydi guruchga,
Hatto qo‘shsang jizzali,
Nonni qildim mazali.*

Erta bahor eksangiz

Ko‘kligimda bitganim foyda,

Men kerakman har joyda.

Sabzi

*Tanishtirib o‘zini,
Sabzi boshlar so‘zini.
Qizil, sariq rangda biz,
Yengilmaymiz jangda biz,
Soldatlardek safimiz
Odatda ko‘p nafimiz.*

f) Opa-singillar yo‘lda quyidagi 5-misollarga duch kelishibdi. Ziyrak opa-singillar bu misollarni ham bir zumda muhokama qilishibdi. Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun katakchalar o‘rniga mos sonlarni qo‘yib, vazifani bajarishibdi. Sonlarning yig‘indisini topish:

$$8 + 5 = 13$$

$$8 + 4 = 12$$

$$7 + 5 = 12$$

$$6 + 5 = 11$$

$$9 + 2 = 11$$

IV. Mustahkamlash. Opa-singillar anor mevaga, qovun, tarvuz poliz ekinlariga; sabzi, piyoz sabzavotlarga kirishini, ularning inson hayoti uchun foydali ekanligini, dehqonlarning mehnati beqiyos ekanligi haqida bilimga ega bo‘lib, uyga qaytishibdi.

V. Darsni yakunlash. Sayohat davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6,7-misol, masala.

20-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Qo‘shish jadvali. Qiymatlari bir xil bo‘lgan misollarni topish. Yig‘indi va qoldiqni topishga doir masalalar (26–27-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Qo‘shish jadvali, qiymatlari bir xil bo‘lgan misollarni topish, yig‘indi va qoldiqni topishga doir masalalar yechish haqida bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, quvnoq vagonchalar maketi, jadval.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta’limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini didaktik o‘yinlar, qiziqarli jadval topshiriqlari yordamida boyitib borish; b) qo‘shish jadvali haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, ishonparlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash. b) o‘quvchilarning ijodiy izlanish xususiyatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida qo‘shish jadvali haqida bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	3 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. Qo‘shish jadvali bilan tanishtirish. 3. 2-masala. 4. 3-misol. Qiymatlari bir xil bo‘lgan misollarni toptirish. 5. 4-masalani yechish. 6. 5-misol. Ko‘zachedagi misollar-ning javobini o‘sib borish tartibida joylashtirish.	mustaqil ish evristik metod izlanish evristik metod izlanish evristik metod	5 minut 5 minut 5 minut 5 minut 5 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish orqali mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e’lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.	musobaqa	2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida mustaqil ish o‘tkazish. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$$9 + \square = 13$$

$$8 + \square = 15$$

$$9 + \square = 14$$

$$9 + \square = 18$$

$$7 + \square = 14$$

$$8 + \square = 16$$

2. Yangi mavzuni bayon etish.

+	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
9	10	11	12	13	14	15	16	17	18

3. 2-masalani yechish.

Olcha – 8 tup

Olma – ?, 7 tup ortiq) ? ta

Yechish:

1) $8+7=15$ tup olma ko‘chati o‘tqazilgan.

2) $15+8=23$ tup hamma ko‘chatlar.

Javob: Anvar bobosi bilan 23 tup ko‘chat o‘tqazishgan.

4. 3-misol. Qiymatlari bir xil bo‘lgan misollarni topish.

$7+5$	$9+2$	$8+6$	$9+4$
$6+6$	$8+5$	$9+3$	$7+6$
$9+5$	$7+7$	$6+5$	$8+4$

$7+5=12 \square$

$9+2=11 \triangle$

$8+6=14 \diamond$

$9+4=13 \diamond$

$6+6=12 \square$

$8+5=13 \diamond$

$9+3=12 \square$

$7+6=13 \diamond$

$9+5=14 \diamond$

$7+7=14 \diamond$

$6+5=11 \triangle$

$8+4=12 \square$

5. 4-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.



9 m arqon

?, 3 m ortiq arqon



9 m arqon

?, 3 m ortiq arqon

? m

Yechish: $9+3=12$ m arqon.

Javob: Ikkinchi o‘ramda
12 metr arqon bor.

1) $9+3=12$ m ikkinchi o‘ramdagi arqon

2) $9+12=21$ m ikkala o‘ramdagi arqon

6. 5-misol. «Ko‘zacha»dagi misollarni yechib, javobini o‘zib borish tartibida joylashtirish.



$9+2=11$; $7+5=12$; $9+4=13$; $8+5=13$; $9+5=14$; $8+7=15$; $8+8=16$;
 $9+8=17$; $9+9=18$.

IV. Mustahkamlash. Egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida jadvaldan javobi 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18 ga teng misollarni topib aytib berish, shu sonlar ishtirokida og‘zaki masalalar tuzdirish.

V. Darsni yakunlash. O‘quvchilar bilimini baholash va rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol, masala.

22-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: To‘g‘ri to‘rtburchak tomonlarining xossalari. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzib, uni yechish (29–30-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. To‘g‘ri to‘rtburchak tomonlarining xossalari haqida bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli topshiriqlar yordamida boyitib borish; b) to‘g‘ri to‘rtburchak xossalari haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning ijodiy izlanish qobiliyatlarini takomillashtirish; b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash; d) o‘quvchilarning diqqatini, tafakkurini topqirlik, har bir narsani qadrlash xususiyatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatlarini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida to‘g‘ri to‘rtburchak tomonlarining xossalari haqida bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Kundalik yangiliklar haqida navbatchi o‘quvchining axboroti. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. “Misollarni kim tez yechadi» o‘yini. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 4. 2-misolni yechish. 5. 3-misolni yechish. Burchaklarning turlari. 6. 4-masalani yechish. 7. 5-misollarni yechish	o‘yin izlanish qo‘shiq izlanish amaliy ish izlanish izlanish	5 minut 5 minut 3 minut 4 minut 5 minut 6 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Kvadrat qismlaridan shakllar tuzish.	muammoli izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Misollarni kim tez yechadi?» o‘yin tashkil qilish. Buning uchun barcha o‘quvchilarga misollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

$$36 \square 4 = 40$$

$$29 \square 9 = 20$$

$$14 \square 6 = 20$$

$$48 \square 8 = 40$$

$$53 \square 7 = 60$$

$$65 \square 5 = 60$$

2. Yangi mavzuni bayon etish.

To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi tomonlari bir-biriga teng bo‘ladi. To‘g‘ri to‘rtburchakning to‘rtta uchi, to‘rtta burchagi, to‘rtta tomoni bor.

3. Dam olish daqiqasida o‘rgangan qo‘shiqlarini aytirish.

4. 2-misolni yechish.

$$9+7=16$$

$$7+5=12$$

$$36+4-10=30$$

$$29+1+7=37$$

$$8+6=14$$


$$6+6=12$$

$$57+3-20=40$$

$$48+2+9=59$$

5. 3-misol. Og‘zaki tushuntirish.

Ko‘pburchaklardagi to‘g‘ri, undan katta va kichik burchaklarni aniqlashga o‘rgatish.



Burchagim tomonlari bo'lsa, to'g'ri, tekis, teng.
Qo'rqmay meni ko'rsatib, Shunda to'g'ri burchak deng.

6. 4-masalani yechish.

Ot – 9 ta
Kuchuk – 8 ta) ? ta

Yechish: $9+8=17$ ta uy hayvonlari.

Javob: Tomoshada hammasi bo'lib 17 ta uy hayvonlari qatnashgan.

7. 5-misol. Misollarni qulay usul bilan hisoblashga o'rgatish:

1) $1+2+3+4+5+6+7+8+9$

Namuna: $1+9=10$

2) $2+4+6+8+10+12+14+16+18$

Namuna: $2+18=20$

IV. Mustahkamlash. Kvadrat qismlaridan shakllar tuzish. Qanday shakllar hosil qilish mumkin ekan?



V. Darsni yakunlash. O'quvchilar bilimini baholash va rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol, masla

23-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: O'rganilgan turdagi misol, masalalarni yechish (30-31 betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'rganilgan turdagi misol, masalalarni yechish.
O'quv bilish faoliyati:
Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.
Shakl: Noan'anaviy dars.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta'limiy: a) o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, qiziqishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, aqlini charxlash.
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq izlanish, topqirlik fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O‘quvchilar dars yakunida o‘rganilgan turdagi misol, masalalarni yechish haqida bilimga ega bo‘ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	tez javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O‘qituvchining kirish so‘zi.	munozara she‘r evristik metod izlanish	3 minut
	2. Guruhlarga bo‘linish.		4 minut
	3. 1-misol. Jadval asosida berilgan misollarni bajarish.		5 minut
	4. 2-masalani yechish.		5 minut
	5. 3-misolni yechish. Amal ishoralarini yozuvlar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘yish.	muammoli izlanish	5 minut
	6. 4-masalani yechish.	izlanish	4 minut
	7. 5-misolni yechish.	izlanish	4 minut
	8. 6-misol.	amaliy ish	4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Og‘zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi.		2 minut
	2. Dars yakunlanadi.		1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	7, 8-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi.

2. Guruhlarga bo‘linish. Sinf o‘quvchilarni 3 guruhga bo‘lib, ularga nom beriladi: **1-guruh** – «Zukkolar»; **2-guruh** – «Topqirlar»; **3-guruh** – «Bilimdonlar».

3. 1-misol. Jadval asosida berilgan misollarni yechish.

9 + 9	6 + 5	8 + 4	6 + 6
8 + 3	7 + 6	9 + 7	8 + 5
7 + 7	8 + 7	7 + 5	9 + 4

1-topshiriq. «Zukkolar» guruhi jadvalning qizil rangdagi misollarini, «Topqirlar» guruhi sariq rangdagi misollarini, «Bilimdonlar» guruhi yashil rangdagi misollarning javobini hisoblab topishlari kerak.

Qaysi guruh birinchi bo‘lib vazifani to‘liq ado etsa, o‘sha guruh g‘olib deb topiladi va rag‘batlantiriladi.

Har bir guruhning sardori o‘z fikrlarini bayon etadilar.

1-guruh sardori:

“Biz bo‘lamiz birinchi,
Qani, yetib ko‘ring-chi.
Dars qilganmiz hamma vaqt,
Bizga bo‘lar baland taxt”.

2-guruh sardori:

“Biz ham ortda qolmaymiz,
So‘nggi o‘rin bo‘lmaymiz.
Chiqing, maydon kutmasin,
Qimmatli vaqt o‘tmasin.»

3-guruh sardori:

“Bizni chetga surmangiz,
Bellashishdan qo‘rqmangiz.
Kamtar kamol derlar,
Haddingizdan oshmangiz.”

1-guruh o‘quvchilari vazifani quyidagicha bajardilar:

$$9+9=18; 8+7=15; 9+7=16; 6+6=12.$$

2-guruh o‘quvchilari vazifani quyidagicha bajardilar:

$$8+3=11; 6+5=11; 7+5=12; 8+5=13.$$

3-guruh o‘quvchilari vazifani quyidagicha bajardilar:

$$7+7=14; 7+6=13; 8+4=12; 9+4=13.$$

4. 2-topshiriq. Har uchala guruhga 2-masalani yechish vazifasi topshiriladi.

Yechish: $9+7=16$ m beqasam.

Javob: Bir to‘p gazlamadan 16 metr beqasam qirqib olingan.

5. 3-topshiriq. 3-misol. Amal ishoralarini yozuvlar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘yish.

1-guruh

$$8 + 4 = 12$$

$$7 + 4 = 11$$

2-guruh

$$9 - 6 = 3$$

$$9 - 2 = 7$$

3-guruh

$$9 + 2 = 11$$

$$6 + 5 = 11$$

6. 4-topshiriq. 4-masalani yechish.

Bitt sigirdan – 6 l sut

Ikkinchi sigirdan – ?, 3 l ortiq sut) ? l sut

Yechish: 1) $6 + 3 = 9$ l ikkinchi sigirdan sog'ib olingan sut

2) $6 + 9 = 15$ l sut

Javob: Ikkala sigirdan 15 l sut sog'ib olingan.

7. 5-topshiriq. 5-misolni ham xuddi shunday musobaqa tarzida bajaradilar.


$$50 \text{ sm} - 20 \text{ sm} = 30 \text{ sm}$$

$$70 \text{ m} + 10 \text{ m} = 80 \text{ m}$$

$$40 \text{ dm} + 10 \text{ dm} = 50 \text{ dm}$$

$$60 \text{ sm} - 30 \text{ sm} = 30 \text{ sm}$$

8. 6-topshiriq. 6-misol. Har bir shaklda nechtdan sanoq cho'p ishlatilganligini sanab topishga o'rgatish.



IV. Mustahkamlash. Og'zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.

Namuna: a) Sanoq cho'plaridan yana qanday shakllar yasash mumkin?

b) Cho'plarning turmushdagi o'rnini haqida nimalar bilasiz?

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan guruhlarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 7, 8-misol, masala.

26-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirishning umumiy usuli (33–34-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirishning umumiy usuli haqida bilim berish.

O'quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
<p>Ta'limiy: a) o'atilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini didaktik o'yinlar yordamida boyitib borish;</p> <p>b) 18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirishning umumiy usuli haqida bilim berish.</p> <p>Tarbiyaviy: a) o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada o'rttirib borish;</p> <p>b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozir-javoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.</p> <p>Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq izlanish fazilatini rivojlantirish.</p>			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida 18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'atilgan mavzuni mustahkamlash. matematik diktant. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 11–□ ko'rinishidagi misollarni yechish, sonlarni bo'laklab ayirish usuli. 3. 2-misolni yechish. 4. 3-masalani yechish. 5. 4-misolni yechish. 6. 5-masalani yechish. Qisqa yozuv bo'yicha masalalar tuzib, ularni yechish.	aqliy hujum metodi munozara izlanish tushuntirish amaliy ish muammoli izlanish	5 minut 7 minut 4 minut 5 minut 5 minut 6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	5 minut

V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.	musobaqa	1 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida matematik diktant o'tkazish.

- 1) 9 bilan 7 ning yig'indisini toping. Javob: 16;
- 2) 9 bilan 9 ning yig'indisini toping. Javob: 18;
- 3) 8 bilan 5 ning yig'indisini toping. Javob: 13;
- 4) tomonlari 4 sm bo'lgan kvadratning perimetrini toping. Javob: 16 santimetr;
- 5) qovoqning og'irligi 7 kg, tarvuzning og'irligi undan 4 kg og'ir. Tarvuzning og'irligini toping. Javob: 11 kilogramm.

2. Yangi mavzuni bayon qilish.



$$11 - \square$$

Agar 11 dan 6 sonini ayirish kerak bo'lsa, sonlarni bo'laklab ayiriladi.

Birinci usul. 1) Dastlab 10 hosil bo'lishi uchun 11 dan 1 sonini ayirish kerak: $11 - 1 = 10$

2) 6 — bu 1 + 5 ekanligi eslatadi. 11 dan 1 ayirildi, yana 5 ni ayirish kerak: $10 - 5 = 5$

Buni shunday yozish mumkin:

$$11 - 6 = 5$$

yoki

$$11 - 6 = 5$$

$$\begin{array}{r} 11 \\ \swarrow \searrow \\ 1 \quad 5 \end{array} \quad 11 - 1 - 5 = 5$$

$$\begin{array}{r} 11 \\ \swarrow \searrow \\ \quad \quad \end{array}$$

Ikkinchi usul. 11 — bu 6 va 5 dan iborat bo'lgani uchun, misolni bunday yechish mumkin:

$$11 - 6 = 5$$

$$11 - 5 = 6$$

Qisqacha bunday yoziladi:

$$11 - 6 = 5$$

$$11 - 5 = 6$$

$$\begin{array}{r} 11 \\ \swarrow \searrow \\ 6 \quad 5 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 11 \\ \swarrow \searrow \\ 5 \quad 6 \end{array}$$

3. 2-misol. Shunda son qo'yinki, tenglik to'g'ri bo'lsin

$$9 + 2 = 11$$

$$11 - 6 = 5$$

$$8 + 7 = 15$$

$$7 + 4 = 11$$

$$11 - 5 = 6$$

$$9 + 5 = 14$$

4. 3-masalani yechish.

Konfetlar – 6 ta
Pecheniy – ? ta) 16 quti

Yechish: $16 - 6 = 10$ quti pecheniy.

Javob: 10 quti pecheniy keltirilgan

5. 4-misolni yechish.

$29 + 1 = 30$

$57 + 3 = 60$

$64 + 6 = 70$

$36 + 4 = 40$

$48 + 2 = 50$

$16 + 4 = 20$

$75 + 5 = 80$

$13 + 7 = 20$

6. 5-masala. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib, uni yechish.

1) 1-likopchada – 11 ta olma

2-likopchada – ?, 6 ta kam olma

Yechish: $11 - 6 = 5$ ta olma.



Javob: Ikkinchi likopchada 5 ta olma bor.

2) 1-likopchada – 11 ta olma


2-likopchada – ?, 6 ta kam olma) ? ta olma

Yechish: 1) $11 - 6 = 5$ ta olma. Ikkinchi likopchadagi olma.

2) $11 + 5 = 16$ ta olma. Ikkala likopchadagi olma.

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma.

Shakldan ikkita cho'pning o'rnini shunday o'zgartiringki, u orqa tomonga qarasin:



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol.

32-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 13–7, 13–8, 13–9 ko'rinishdagi misollarni yechish. Tarkibli masalalar yechish (39–40-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 13–7, 13–8, 13–9 ko'rinishdagi misollarni yechish haqida bilim berish.

O'quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar, o'yin.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini og'zaki savol-javob yordamida boyitib borish;

b) 13–7, 13–8, 13–9 ko'rinishdagi misollarni qiziqarli o'yinlar yordamida tushuntirish;

Tarbiyaviy: a) bilimli inson hech qachon hayotda qoqilmasligi haqida bo'g'irsoq timsolida yoritish;

b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 13–7, 13–8, 13–9 ko'rinishdagi misollarni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish, davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni tashkil etish. 3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 4. 2-misol. Amal ishoralarini yozuvlar to'g'ri bo'ladigan qilib qo'yish. 5. 3-masalani yechish. 6. 4-misolni tushuntirib yechish. 7. 5-misol. «Misollarning javobini koping?» – didaktik o'yin.	ertak munozara qo'shiq muammoli izlanish izlanish izlanish muammoli izlanish	4 minut 5 minut 4 minut 5 minut 4 minut 4 minut 6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi	munozara	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Bo‘g‘irsoq» ertagidan foydalaniladi.

Bo‘g‘irsoq dumalab-dumalab ketayotgan ekan, oldidan dastlab quyon, so‘ng bo‘ri chiqib qolibdi. Bo‘ri bo‘g‘irsoqqa: «Men seni yeyman» debdi. «Mayli, lekin bitta shartim bor, shuni bajara olsang, meni yeyishing mumkin». Bo‘g‘irsoq quyidagi kartochkada yozilgan misollarni ko‘rsatibdi.

$9+8=?$

$12-8=?$

$12-9=?$

$13-6=?$

Bo‘ri esa bu vazifani bajara olmabdi. Bu misollarning javobini bo‘g‘irsoq bir zumda aytib beribdi. Bilimning kuchi tufayli bo‘g‘irsoq falokatdan qutilib qoldi. Bolalar, bo‘g‘irsoq kabi aqlli, zukko bo‘lishingiz uchun yaxshi o‘qishingiz kerak. Bo‘g‘irsoq esa yo‘lda davom etib ketaveribdi.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

$13-8=\square$

$13-3-5=5$

$13=8+5$
 $13-8=5 \quad 13-5=8$

$13-\square$

13

$5 \quad 8$

Yodingizda tuting:

$13-7=6$

$13-8=5$

$13-9=4$

3. Dam olish daqiqasida «Bo‘g‘irsoq» qo‘shig‘ini aytirish.

Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq,
Surpadagi un-urpoq.
Supirishib oldilar,
Qaymoqqa xo‘p qordilar,
Pishirdilar tovada,
Sovitdilar havoda,
Qochib ketdim bobomdan,
Qochib ketdim buvimdan
Eshit quyon bo‘ldi bas,
Sendan qochish hech gap emas...

4. 2-misol. Amal ishoralarini yo'zuvlar to'g'ri bo'ladigan qilib qo'yish

$$13-6=7$$

$$8+7=15$$

$$11-6=5$$

$$12-3=9$$

$$7+6=13$$

$$12-8=4$$

5. 3-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish.

Oq chinnigul – ?

Qizil chinnigul – 7 ta) 13 ta

Yechish: $13-7=6$ ta oq chinnigullar.

Javob: Oq chinnigullar 6 ta.

6. 4-misolni yechish.


$$44 \text{ sm} - 30 \text{ sm} = 14 \text{ sm}$$

$$46 \text{ sm} - 24 \text{ sm} = 22 \text{ sm}$$

$$75 \text{ sm} + 25 \text{ sm} = 100 \text{ sm}$$

$$55 \text{ dm} + 20 \text{ dm} = 75 \text{ dm}$$

7. 5-misol. Bu misollarning javobini kim tez topadi? Didaktik o'yin.



Namuna: $12-3=9$.

IV. Mustahkamlash. Savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.

Namuna:

a) To'g'ri to'rtburchak deb nimaga aytiladi?

b) Kvadrat deb nimaga aytiladi?

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol, masala.

36-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Matematik diktant. 15–7, 15–8 ko‘rinishdagi misollarni yechish. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzib yechish (44, 45-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 15–7, 15–8 ko‘rinishdagi misollarni yechish haqida bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, geometrik shakllar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini didaktik o‘yinlar yordamida boyitib borish; b) 15–7, 15–8 ko‘rinishdagi misollarni yechish usuli haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik bilan bajarish, sehrli so‘zlardan foydalanish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatlarini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida 15–7, 15–8 ko‘rinishdagi misollarni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O‘quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	tez javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Matematik diktant. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 4. 2-masalani yechish.	savol-javob munozara qo‘shiq izlanish	4 minut 7 minut 2 minut 4 minut

	5. 3-misolni yechish. Bu misolni kim tez yechadi? 6. 4-masala. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib, uni yechish. 7. 5-misol. Shakllardan uchburchaklarni topishga doir topshiriqni bajarish.	muammoli izlanish izlanish amaliy ish	8 minut 4 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	“O‘ylab top!» o‘yin.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. Matematik diktant.

- 1) 12 bilan 8 ning ayirmasini toping. Javob: 4.
- 2) 12 bilan 9 ning ayirmasini toping. Javob: 3.
- 3) 14 bilan 6 ning ayirmasini toping. Javob: 8.
- 4) 14 bilan 8 ning ayirmasini toping. Javob: 6.
- 5) 14 bilan 9 ning ayirmasini toping. Javob: 5.
- 6) 13 bilan 7 ning ayirmasini toping. Javob: 6.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

$15 - 7 = \square$
 $15 - 5 - 2 = 8$
 $15 = 8 + 7$
 $15 - 8 = 7$ $15 - 7 = 8$

Yodingizda tuting:

$$15 - 7 = 8$$

$$15 - 8 = 7$$

3. Dam olish daqiqasida o‘rgangan qo‘shiqlarini aytirish.

4. 2-masalani yechish.

Sazan baliqlar – 8 ta
Laqqa baliqlar – ? ta

) 15 ta baliq

Yechish: $15 - 8 = 7$ ta baliq.


Javob: Sardor 7 ta laqqa baliq tutgan.

5. 3-misol. Bu misollarni kim tez yechadi?

«Bu misollarni kim tez yechadi?» o‘yinini aka-ukalar yordamida o‘tkazish.

O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi. Magnitli taxtachaga uy bilan maktabning rasmi tasvirlangan plakat, misollar yozilgan kartochkalar yopishtirib qo‘yiladi.

Aka-uka Nodir bilan Qodirning rasmi ham yopishtirilgan bo‘ladi.



Nodir uydan maktabga yuqori yo‘l bilan ketdi va yo‘lda misollar yozilgan kartochkalarga duch kelibdi. Ketma-ket bu misollarning javobini topib, maktabga kirib borishi kerak: 8 bilan 7 ning yig‘indisi 15; 15 bilan 8 ning ayirmasi 7; 7 bilan 4 ning yig‘indisi 11; 11 bilan 5 ning ayirmasi 16; 6 bilan 9 ning yig‘indisi 15 ga teng.

Qodir esa uydan maktabga pastki (boshqa) yo‘l bilan ketdi. Qodir ham Nodirga o‘xshab yo‘lda misollar yozilgan kartochkalarga duch kelibdi. U ham misollarning javobini topib maktabga kirib borishi kerak: 15 bilan 6 ning ayirmasi 9; 9 bilan 3 ning yig‘indisi 12; 12 bilan 5 ning ayirmasi 7; 7 bilan 7 ning yig‘indisi 14; 14 bilan 6 ning ayirmasi 8 ga teng ekan.


6. Aka-uka yo‘lda davom etishib, 4-masalaga duch kelishibdi. Unda qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzib, uni yechish kerakligi ko‘rsatilgan. Ular bu masalani quyidagicha bajarishibdi.

Oq kaptar – 15 ta
 Kulrang kaptar – ?, 8 ta kam)? ta

Yechish: 1) $15-8=7$ ta kulrang kaptar. 2) $15+7=22$ ta kaptar.

Javob: Hamma kaptarlar 22 ta.


7. Maktabga kirib borish uchun yana oxirgi bosqichdan o‘tish kerak. U ham bo‘lsa 5-misol. Unda har bir shaklda nechtdan uchburchak borligini topish vazifasi berilgan.



Namuna: 1-shaklida 7 ta uchburchak bor.

Bu topshiriqlarni aka-ukalardan qaysi biri birinchi bo‘lib bajarsa, o‘sha o‘quvchi maktabga birinchi bo‘lib yetib kelgan bo‘ladi. Shu o‘quvchi g‘olib deb topiladi va rag‘batlantiriladi.

IV. Mustahkamlash. Misollarning javobini o‘tib borib tartibida joylashtirib, qanday sehrlı so‘z hosil bo‘lganini topish.



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarnı baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6-misol.

42-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Soat, minut. 100–6 ko‘rinishdagi misollarnı yechish (50–51-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Soat, minut, 100–6 ko‘rinishdagi misollarnı yechish haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: evristik, kommunikatsion metodlaridan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, jadval.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustaqil topshiriq yordamida boyitib borish; b) soat, minut, 100–6 ko‘rinishdagi misollarnı qiziqarli o‘yinlar yordamida o‘rgatish.
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish; b) har bir matematik muammolarnı ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarnı muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.
Kutilayotgan natija
O‘quvchilar dars yakunida soat, minut, 100–6 ko‘rinishdagi misollarnı yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash	mustaqil ish	5 minut
	2. Yangi mavzuni tashkil etish. Soat, minut haqida ma'lumot berish.	munozara	6 minut
	3. 2-misolni og'zaki va yozma ravishda bajarish.	muammoli izlanish	5 minut
	4. 3-masalani yechish.	izlanish	5 minut
	5. 4-misolni yechish. Sanoq cho'plardan shakllar yasab, ularni taqqoslash.	amaliy ish	6 minut
	6. 5-misolni qulay usul bilan yechish	muammoli izlanish	5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Savol-javob orqali yangi mavzu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi.		2 minut
	2. Dars yakunlanadi.		2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6,7-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

Darsning shiori: «To'g'ri va xatosiz hisoblashni o'rganamiz, kompyuter saboqlaridan ogoh bo'lamiz».

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida mustaqil ish o'tkazish.

I guruh

$7+8=\square\square$

$8+7=\square\square$

$15-7=\square$

$15-8=\square$

II guruh

$9+7=\square\square$

$7+9=\square\square$

$16-9=\square$

$16-7=\square$

III guruh

$9+8=\square\square$

$8+9=\square\square$

$17-9=\square$

$17-8=\square$

2. Yangi mavzuni bayon etish.



Soatning kichik mili soatni necha bo'lganini ko'rsatadi. U bir raqamdan ikkinchi raqamgacha 1 soatda o'tadi. Soatning katta mili minutni ko'rsatadi. U bir chiziqchadan ikkinchi chiziqchaga 1 minutda o'tadi.

1 soat = 60 minut.

Savol javob o'tkazish:

- 1) Soat qaysi vaqtni ko'rsatayapti?
 - 2) Soatning katta mili qaysi raqamni korsatayapti?
 - 3) Soatning kichik mili qaysi raqamni korsatayapti?
3. 2-misolni namuna bo'yicha bajarishga o'rgatish.

$$100 - 6 = 90 + (10 - 6) = 90 + 4 = 94$$

$$\begin{array}{c} \swarrow \searrow \\ 90 \quad 10 \end{array}$$

$100 - 7$

$100 - 4$

$100 - 9$

$100 - 8$


4. 3-masalani yechish.

Bor edi – 100 changyutgich

Sotildi – 9 changyutgich Yechish: $100 - 9 = 91$ changyutgich

Qoldi – ? changyutgich Javob: Do'knda 91 ta changyutgich qolgan.

5. 4-misol. Sanoq cho'plaridan shunday shakllar yasab, uni taq-qoslashga o'rgatish.



6. 5-misol. Ikkita qo'shni qo'shiluvchini ularning yig'indisi bilan almashtirib, qulay usul bilan hisoblashga o'rgatish:

$5 + 14 + 6$

$8 + 9 + 1$

$10 + 80 + 9$

$3 + 12 + 8$

$7 + 8 + 2$

$50 + 30 + 5$

Namuna: $5 + (14 + 6) = 5 + 20 = 25$

7. 6-IV. **Mustahkamlash.** Og'zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.

1. Kun tartibingizni aytib bering.

2. Siz bir minut davomida qaysi songacha sanay olasiz? va hokazo.

V. **Darsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. **Uyga vazifa:** 6, 7-misol, masala.

45-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: O‘tilganlarni mustahkamlash. O‘rganilgan turdagi misol va masalalar yechish. 53-54 betlar			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: 18 ichida bir xonali sonlarni o‘nlik orqali o‘tib qo‘shish va ayirish bo‘yicha olgan bilimlarini o‘zlashtirish natijasini aniqlash.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, aqliy hujum metodlaridan foydalanish, muammoli izlanish, musobaqa.			
Shakl: «Kim g‘olib?» mavzu asosida noan’anaviy dars .			
Jihoz: Mavzu asosida didaktik materiallar, har bir guruh uchun misollar yozilgan konvert, «sehrli kvadratchalar»ni to‘ldirishga doir kartochka, savollar majmuasi.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta’limiy: a) 18 ichida bir xonali sonlarni o‘nlik orqali o‘tib qo‘shish va ayirish bo‘yicha egallagan bilimlarini qiziqarli topshiriqlar yordamida boyitib borish.			
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarni matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish;			
b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, topqir bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida 18 ichida bir xonali sonlarni o‘nlik orqali o‘tib qo‘shish va ayirish bo‘yicha egallagan bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O‘quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	tez javob	3 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	4 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. O'qituvchining kirish so'zi. 2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 3. Sehrli kvadratchalarni to'ldirishga doir «Kim chaqqon?» o'yini. 4. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 5. Test. 6. «Ha va yo'q» o'yini.	munozara izlanish o'yin qo'shiq izlanish o'yin	3 minut 7 minut 4 minut 3 minut 5 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Shakllarni taqqoslashga doir topshiriqni bajarish.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		3 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	10, 11-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

II. Darsning shiori:

“Kuch – bilim va tafakkurda”. *I. Karimov*

Qoidalar bilan tanishtirish:

- 1) Sardorlarni saylash;
- 2) O'zaro hurmat;
- 3) O'ng qo'l qoidasi;
- 4) Bir-birini eshitish;
- 5) Tashabbuskorlik;
- 6) Vaqtga rioya qilish;
- 7) Sehrli so'zlardan foydalanish.

Baholash mezonlari:

Qizil kartochka – 5 ball, sariq – 4 ball, yashil – 3 ball, oq – 2 ball.

III. Darsning borishi:

1. O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Biz bugun «Kim g'olib?» musobaqa darsini o'tkazamiz. Sinf o'quvchilarini 3 guruhga bo'lamiz va ularga nom beramiz.

1-guruh: «Bilimdonlar»

2-guruh: «Chaqqonlar»

3-guruh: «Zukkolar»

2. **1-topshiriq.** Ajratish metodi.

Har bir guruhga alohida konvert tarqatiladi. Har bir konvertda sonlar yig'indisi va sonlar ayirmasiga doir 8 tadan misollar berilgan. O'quvchilar ushbu misollarni olti minut davomida ikki qatorga ajratib yozishlari kerak. Buning uchun guruhlarga quyidagicha jadval tarqatiladi va shart bajarilgach guruh sardori xat taxtasiga jadvalni ilib javoblarini izohlaydi.

1-guruh. «Bilimdonlar»

Quyidagi sonlar yig'indisini bir ustunga, ayirmasini ikkinchi ustunga yozib, uning qiymatini topish.

9+3, 11-4, 12-6, 8+5, 14-8, 7+7, 16-9, 6+6.

sonlar yig'indisi	sonlar ayirmasi
9+3=12	11-4=7
8+5=13	12-6=6
7+7=14	14-8=6
6+6=12	16-9=7

2-guruh. «Chaqqonlar»

Quyidagi sonlar yig'indisini bir ustunga, ayirmasini ikkinchi ustunga yozib, uning qiymatini topish.

8+4, 7+6, 13-8, 9+9, 15-7, 14-5, 9+6, 12-9.

sonlar yig'indisi	sonlar ayirmasi
8+4=12	13-8=5
7+6=13	15-7=8
9+9=18	14-5=9
9+6=15	12-9=3

3-guruh. «Zukkolar»

Quyidagi sonlar yig'indisini bir ustunga, ayirmasini ikkinchi ustunga yozib, uning qiymatini topish.

9+7, 15-8, 6+5, 12-5, 8+7, 16-8, 9+8, 13-9.

sonlar yig'indisi	sonlar ayirmasi
9+7=16	15-8=7
6+5=11	12-5=7
8+7=15	16-8=8
9+8=17	13-9=4

3. 2-topsiriq. Tenglik to'g'ri bo'lishi uchun katakchaga mos sonni to'rt minut davomida qo'yib yozish.

1-guruh.

$$9+\square=11 \quad 12-\square=8 \quad 8+\square=11 \quad 13-\square=9$$

2-guruh.

$$9 + \square = 12 \quad 15 - \square = 7 \quad 8 + \square = 13 \quad 14 - \square = 9$$

3-guruh.

$$9 + \square = 16 \quad 14 - \square = 7 \quad 8 + \square = 14 \quad 12 - \square = 6$$

4. Dam olish daqiqasini o'tkazish

Matematika kerak bizga, Har bir o'g'il, qizga. Bu fan bizning do'stimiz, Mo'jizalar makoni.	Aqlingni va fikringni, Soladi yaxshi izga. Inoq bo'lib o'ssa kim, Ortar ilmi, imkoni.
--	--

5. 3-topsiriq. Test.

1-guruh.

1) Bir xonadonda 8 ta sariq, 4 ta oq rangdagi jo'ja parvarish qilinmoqda. Bu xonadonda hammasi bo'lib nechta jo'ja parvarish qilinmoqda?

a) 12 ta b) 13 ta d) 11 ta

2) 9 bilan 8 ning yig'indisini belgilang.

a) 16 b) 17 d) 18

3) Javobida 18 soni chiqadigan misolni belgilang.

a) $9+9$ b) $9+8$ d) $9+7$

2-guruh.

1) Hovlida 9 ta kaptar donlab yurgan edi. Yana 7 ta kaptar kelib qo'shildi. Hamma kaptarlar nechta bo'ldi?

a) 16 ta b) 17 ta d) 15 ta

2) 8 bilan 7 ning yig'indisini belgilang.

a) 14 b) 15 d) 16

3) Javobida 14 soni chiqadigan misolni belgilang.

a) $8+6$ b) $8+5$ d) $9+3$

3-guruh.

1) Bir likopchada 8 ta, ikkinchi likopchada 5 ta limon bor. Ikkala likopchada hammasi bo'lib nechta limon bor?

a) 13 ta b) 14 ta d) 12 ta

2) 8 bilan 8 ning yig'indisini belgilang.

a) 15 b) 16 d) 14

3) Javobida 15 soni chiqadigan misolni belgilang.

a) $8+7$ b) $8+6$ d) $9+5$

6. 4-topsiriq. «Ha va yo‘q» o‘yini.

Har bir guruh sardoriga 4 tadan savol beriladi. Bu o‘yinda hozirjavoblik talab etiladi. To‘xtab yoki noto‘g‘ri javob bergan o‘quvchining bali pasaytiriladi.

1-guruh.

– Qo‘shishni ayirish amali bilan tekshirish mumkinmi?

– Ha.

– Doiraning burchagi bormi?

– Yo‘q.

– Kvadrat geometrik shaklga kiradimi?

– Ha.

– Metr, detsimetr og‘irlik o‘lchoviga kiradimi?

– Yo‘q.

2-guruh.

– Ayirishni qo‘shish amali bilan tekshirish mumkinmi?

– Ha.

– Aylanani burchagi bormi?

– Yo‘q.

– To‘rtburchak geometrik shaklga kiradimi?

– Ha.

– Kilogramm og‘irlik o‘lchoviga kiradimi?

– Ha.

3-guruh.

– Metr, santimetr uzunlik o‘lchoviga kiradimi?

– Ha.

– Hamma tomonlari bir-biriga teng bo‘lgan shaklni uchburchak desak bo‘ladimi?

– Yo‘q.

– Go‘niya yordamida to‘g‘ri to‘rtburchakning burchagini topish mumkinmi?

– Ha.

– Kilogramm uzunlik o‘lchoviga kiradimi?

– Yo‘q.

Guruhlar javobi tinglanib, o‘quvchilarga reyting bali e‘lon qilinadi va g‘olib guruh aniqlanib rag‘batlantiriladi.

IV. Mustahkamlash. Shakldan bitta choʻpni shunday olingki, natijada uchta kvadrat qolsin.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilarni baholab, ragʻbatlantirish.

VI. Uygʻa vazifa: 10, 11-misol, masala.

46-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Ogʻzaki qoʻshish va ayirish usullari $10-(7+2)$ va $10-7-2$ koʻrinishidagi sonli ifodalarni oʻqish va taqqoslash (55–56-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha taʼrifi: Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash. Ogʻzaki qoʻshish va ayirish usullari $10-(7+2)$ va $10-7-2$ koʻrinishidagi sonli ifodalarni oʻqish va taqqoslash haqida bilim berish.
Oʻquv bilish faoliyati:
Metod: evristik, interaktiv, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir oʻquvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida koʻrgazmali materiallar, jadval.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: Oʻquvchilar reytingi dars oxirida eʼlon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Taʼlimiy: a) oʻtilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli topshiriqlar yordamida boyitib borish; b) 100 ichida sonlarni xona orqali oʻtib qoʻshish va ayirish haqida bilim berish.
Tarbiyaviy: a) oʻquvchilarni matematika fanini borliqdagi narsalar bilan bogʻlay olish xususiyatlarini tarbiyalash; b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: Oʻquvchilarni bilimdon, zukko boʻlishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun koʻproq oʻz ustida izlanish fazilatlarini rivojlantirish.
Kutilayotgan natija
Oʻquvchilar dars yakunida ogʻzaki qoʻshish va ayirish usullari $10-(7+2)$ va $10-7-2$ koʻrinishidagi sonli ifodalarni oʻqish va taqqoslash yuzasidan yangi bilimga ega boʻladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. Og'zaki qo'shish va ayirish usullari bilan tanishtirish. 3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 4. 2-misolni tushuntirib yechish. 5. 3-masalani yechish usuli. 6. 4-masala. Jadval asosida masala tuzib, uni yechish. 7. 5-misol. Ikkita qo'shni qo'shiluvchini yig'indi bilan almashtirib, qulay usul bilan yechish. 8. 6-misolni yechish.	test muammoli izlanish qo'shiq izlanish izlanish izlanish muammoli izlanish tushuntirish	5 minut 6 minut 2 minut 5 minut 4 minut 5 minut 4 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	"O'ylab top!>" o'yini.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	7, 8-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test o'tkazish.

1) Omborda 100 qop un bor edi. Ertalab 9 qop un sotildi. Omborda necha qop un qoldi?

A) 91 B) 92 D) 90

2) 9 bilan 9 ning yig'indisini belgilang.

A) 17 B) 18 D) 19

3) 12 bilan 5 ning ayirmasini belgilang.

A) 8 B) 7 D) 6

4) Javobi 8 ga teng bo'lgan misolni belgilang.

A) $15-6$ B) $14-6$ D) $15-7$

5) Javobi 16 ga teng bo'lgan misolni belgilang.

A) $8+8$ B) $8+7$ D) $9+6$

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1. O'qing va hisoblang:

1) 10 sonidan 7 va 2 sonlarining yig'indisini ayiring:

$$10 - (7 + 2)$$

Qavslar oldin yig'indini topish, so'ngra ayirishni bajarish kerakligini bildiradi.

Qavslari ifodalarda oldin qavslar ichiga yozilgan sonlar ustida amallar bajariladi.

2) $10-7-2$ ko'rinishidagi misollarni yechishda amallar ketma-ket bajariladi: $10-7-2=1$.

3. **Dam olish daqiqasida** o'rgangan qo'shiqlaridan aytirish.

4. 2-misolni tushuntirib yechish:

$$10 - (5 + 3) = 10 - 8 = 2$$

$$10 - (6 + 3) = 10 - 9 = 1$$

$$9 - (4 + 2) = 9 - 6 = 3$$

$$10 - 5 - 3 = 5 - 3 = 2$$

$$10 - 6 - 3 = 4 - 3 = 1$$

$$9 - 4 - 2 = 5 - 2 = 3$$

5. 3-masalani yechish usullari bilan tanishtirish.

Yechish: I usul:


1) $7+2=9$ ta yong'oq.

2) $10-9=1$ ta yong'oq qoldi.

II usul: $10 - 7 - 2 = 3 - 2 = 1$ ta yong'oq.

Javob: Anvarda 1 ta yong'oq qoldi.

6. 4-masala. Jadval asosida masala tuzib, uni yechishga o'rgatish.

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
 30 kg kartoshka	ertalab – 8 kg tushlikda – 9 kg	? kg

Yechish: 1) $8+9=17$ kg ishlatilgan kartoshka.

2) $30-17=13$ kg qolgan kartoshka.

Javob: 13 kilogramm kartoshka ortib qolgan.

7. 5-misol. Ikkita qo'shni qo'shiluvchini yig'indi bilan almashtirib, qulay usul bilan hisoblash.

$$(6+4)-10=10-10=0$$

$$(17-7)+4=10+4=14$$

$$(50+40)+7=90+7=97$$


8. 6-misolni tushuntirib yechish.

$$20-(6+3)=20-9=11$$

$$40-(7+2)=40-9=31$$

$$50-(5+4)=50-9=41$$

IV. Mustahkamlash. «O‘ylab top!» o‘yini o‘tkazish.



Namuna: 8 bilan 5 ning yig‘indisi 13 ga teng.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 7, 8 -misol, masala.

47-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: $38+5$ ko‘rinishidagi misollarni yechish. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzib yechish (57–58-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. $38+5$ ko‘rinishidagi misollarni yechish haqida bilim berish.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta’limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli topshiriqlar yordamida boyitib borish;

b) $38+5$ ko‘rinishidagi misollarni yechish usuli haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni xushmuomalalik, do‘stona, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash;

b) o‘quvchilarning diqqatini, tafakkurini, topqirlik, har bir narsani qadrlash xususiyatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, topqir bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O‘quvchilar dars yakunida 38+5 ko‘rinishidagi misollarni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O‘quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori aniqlanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. Rasm-dan foydalanib 5 sonini qo‘shish usuli bilan tanishtirish. 3. 2-misolni tushuntirib yechish. 4. 3-masalani yechish. 5. 4-misolni namuna bo‘yicha bajarish. 6. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 7. 6-misolni yechish.	o‘yin muammoli izlanish izlanish tushuntirish evristik metod qo‘shiq izlanish	6 minut 4 minut 5 minut 5 minut 5 minut 3 minut 6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Og‘zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	7, 8-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Parashyutdan sakrash» o‘yinini o‘tkazish. O‘qituvchi o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi. Magnit taxtachaning yuqori qismiga parashyutlar, pastki qismiga esa parashyutning konvertiga solingan misollarning javobi yozilgan doirachalar yopishtirilgan bo‘ladi.



$$26+4=?$$

30



$$18-9=?$$

9



$$87+3=?$$

90



$$17-9=?$$

8

Parashyutda yozilgan misollarning javobini kim birinchi bo‘lib topsa, o‘sha o‘quvchi yerga birinchi bo‘lib qo‘ngan bo‘ladi.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1. Rasmdan foydalanib, 5 sonini qanday qo‘shilganligini tushuntirish.

$$38+5= \square \square$$

$$\begin{array}{l} / \quad \backslash \\ 2 \quad 3 \end{array}$$

$$38+5=38+2+3=(38+2)+3=40+3=43$$

3. 2-misolni tushuntirib yechish.

$$57+8=57+3+5=(57+3)+5=60+5=65$$

$$\begin{array}{l} / \quad \backslash \\ 3 \quad 5 \end{array}$$

$$29+4=29+1+3=(29+1)+3=30+3=33$$

$$\begin{array}{l} / \quad \backslash \\ 1 \quad 3 \end{array}$$

$$64+7 \begin{array}{l} / \quad \backslash \\ 6 \quad 1 \end{array}$$

$$48+9 \begin{array}{l} / \quad \backslash \\ 2 \quad 7 \end{array}$$

4. 3-masalani og‘zaki va yozma ravishda bajarish.

Bor edi – 38 tup olma

Olib kelindi – 2 tup anor va 3 tup olcha)? tup ko‘chat

Yechish: $38+2+3=(38+2)+3=40+3=43$ tup mevali ko‘chat.

Javob: Maktab hovlisida hammasi bo‘lib 43 tup mevali ko‘chat bo‘ldi.

5. 4-misolni namuna bo‘yicha bajarish. $26=20+6$

$$54=50+4$$

$$65=60+5$$

$$89=80+9$$

$$78=70+8$$

$$29=20+9$$

$$37=30+7$$

$$43=40+3$$

$$97=90+7$$

$$32=30+2$$

6. Dam olish daqiqasida o‘rgangan qo‘shiqlaridan aytirish.

7. 6-misolni yechish.

$$40 \text{ sm} + 20 \text{ sm} = 60 \text{ sm}$$

$$50 \text{ dm} - 10 \text{ dm} = 40 \text{ dm}$$

$$20 \text{ dm} + 20 \text{ dm} = 40 \text{ dm}$$

$$70 \text{ sm} - 30 \text{ sm} = 40 \text{ sm}$$

IV. Mustahkamlash. Og‘zaki savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi. Namuna: Xona qo‘shiluvchilar yig‘indisi deganda nimani bilib oldingiz?

1) 45, 39, 56, 87 sonlarini xonalarga ajratib aytib berishga o‘rgatish.

Namuna: $45 = 40 + 5$

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyg‘a vazifa: 7, 8-misol, masala.

49-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 42–5 ko‘rinishidagi ayirish. O‘rganilgan turdagi misol va masalalarni yechish (59–60-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 42–5 ko‘rinishidagi ayirish haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli o‘yinlar yordamida boyitib borish;
b) 42–5 ko‘rinishidagi ayirish usuli haqida bilim berish, sonlarni bo‘laklab qo‘shish usuli haqidagi bilimlarini takomillashtirish;
Tarbiyaviy: a) matematika fanini hayotdagi narsalar bilan bog‘lay olish xislatlarini tarbiyalash;
b) har bir matematik muammolarni ahillik, do‘stona, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida 42-5 ko'rinishidagi ayirish usuli yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. «Ha va yo'q» o'yini. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 42–5 ko'rinishidagi misollarni yechilish usuli bilan tanishtirish. 3. 2-misollarni tushuntirib yechish. 4. 3-misolni yechish. 5. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 6. 4-masala yechilishini tushuntirish. 7. 6-misolda shakllarning perimetrini topishga doir topshiriq. 8. 7-misol. «Misollarning javobini kim tez topadi?» o'yini.	o'yin evristik metod izlanish izlanish qo'shiq izlanish amaliy ish evristik metod	4 minut 5 minut 4 minut 2 minut 3 minut 6 minut 4 minut 7 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	8-misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.


1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Ha va Yo'q» o'yinini tashkil etish.

- Qo'shish amalini ayirish bilan tekshirish mumkinmi?
- Ha.
- Ayirish amalini qo'shish amali bilan tekshirish mumkinmi?

- Ha.
- Daqiqa uzunlik o'lchoviga kiradimi?
- Yo'q.
- Kvadrat geometrik shaklga kiradimi?
- Ha.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1. $42-5=$ ko'rinishidagi misolning yechilishini tushuntirish.



$42-5=$
 $\begin{array}{l} / \quad \backslash \\ 2 \quad 3 \end{array}$

$42-5=42-2-3=(42-2)-3=40-3=37$

3. 2-misolni tushuntirib yechish.

$57-9=57-7-2=(57-7)-2=50-2=48$



$65-7=65-5-2=(65-5)-2=60-2=58$



4. 3-misolni namunada ko'rsatilgandek bajarish: $59=50+9$.

$63=60+3$

$72=70+2$

$86=80+6$

$47=40+7$

5. Dam olish daqiqasida o'rgangan qo'shig'ini aytirish.

6. 4-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish.



- 1-avtobusda – 35 nafar
 2-avtobusda – ?, 5 nafar kam)? nafar

Yechish: 1) $35-5=30$ nafar o'quvchi ikkinchi avtobusda borgan

2) $35+30=65$ nafar hamma o'quvchi






Javob: Yosh tomoshabinlarteatriga hammasi bo'lib 65 nafar o'quvchi borgan.

7. 6-misol. Shakllarning perimetrini topish.



Namuna: $4+2+4+2=12$ sm.

8. 7-misol Misollarning javobini kim tez topadi? O‘yin o‘tkazish. G‘olib bo‘lgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish.

		$32-7=25$	$63+7=70$
		$46+4=50$	
		$27-9=18$	$38+2=40$

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma. «O‘ylab top!».

Uchta 2 bilan 24 ni yozing.

Namuna: $22+2=24$. Shunga o‘xshash misol tuzing.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 8-misol.

53-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 42–15 ko‘rinishidagi misollarni yechish. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish (65-bet).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 42–15 ko‘rinishidagi misollarni yechish haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: evristik, kommunikatsion metodlaridan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta’limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qiziqarli o‘yinlar yordamida boyitib borish;
b) 42–15 ko‘rinishidagi misollarni yechish usuli haqida bilim berish.
Tarbiyaviy: a) matematika fanini boshqa fanlar bilan bog‘lay olish fazilatlarini tarbiyalash;

b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozir-javoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash;

d) o'quvchilarning diqqatini, tafakkurini, topqirlik, har bir narsani qadrlash xususiyatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 42–15 ko'rinishidagi ayirish usuli yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqish. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	o'yin	6 minut
	2. Yangi mavzuni bayon etish. 42–15 misolning yechish usuli bilan tanishtirish.	evristik metod	5 minut
	3. 2-misollarni tushuntirib yechish.	izlanish	5 minut
	4. 3-masalani yechish.	izlanish	5 minut
	5. 4-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.	izlanish	5 minut
	6. 5-misol. Kerakli joylarda qavslarni shunday qo'yingki, natijada tenglik to'g'ri bo'lsin.	muammoli izlanish	5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma. Bo'sh darchalarni to'ldiring.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi.		2 minut
	2. Dars yakunlanadi.		2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III Darsning borishi.

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Chaqqon bilimdonlar» o‘yinini tashkil etish. O‘qituvchi o‘yin qoidasi bilan tanishtiradi. Xat taxtaga uch ustun misol yozilgan bo‘ladi. Uch o‘quvchi xat taxtaga chiqib, bu misollarning javoblarini topishi kerak.

1-o‘quvchi	2-o‘quvchi	3-o‘quvchi
$29+6=35$	$46+7=53$	$58+7=65$
$38+5=43$	$29+4=33$	$42-5=37$

Kim birinchi bo‘lib misollarning javobini xat taxtaga yozib, yechib bo‘lsa o‘sha o‘quvchi g‘olib deb hisoblanadi. Misollarning javobini topishda qiynalgan o‘quvchilarga sinfdagi do‘stlari yordam berishlari mumkin. Sinfdagi qolgan o‘quvchilar bu vazifani mustaqil bajaradilar. Agar sinfdagi o‘tirgan o‘quvchilardan misolni birinchi bo‘lib bajarsa, o‘sha o‘quvchini baholab rag‘batlantiriladi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarni chaqqonlikka, hozirjavoblikka, topqirlikka chorlaydi.

2. Yangi mavzuni bayon etish:

1. $42-15$ ko‘rinishidagi misolni tushuntirib yechish.

$$42-15=(42-10)-5=32-5=27$$



3. 2-misolni og‘zaki va yozma ravishda bajarish.

$$52-14=(52-10)-4=42-4=38$$



$$32-17=(32-10)-7=22-7=15$$



$$63-26=(63-20)-6=43-6=37$$



4. 3-masalani og‘zaki va yozma ravishda bajarish.

Keltirildi – 52 l sut

Ishlatildi – 25 l sut

Qoldi – ? l sut

Yechish:

$$52-25=27 \text{ l sut}$$

Javob: 27 litr sut qoldi.

5. 4-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechishga o‘rgatish.



17 kg olma



?,11 kg kam

Yechish: $17-11=6$ kg olma.

Javob: Ikkinchi savatda 6 kilogramm olma bor.

6. 5-misol. Kerakli joylarda qavslarni shunday qo‘yingki, natijada to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin.


$$80 - (50 + 10) = 20$$

$$100 - (40 + 50) = 10$$

$$40 - (10 + 20) = 10$$

$$90 - (40 + 20) = 30$$

IV. **Mustahkamlash.** «Bo‘sh darchalarni to‘ldir!» o‘yin o‘tkazish.



V. **Darsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. **Uyga vazifa:** 6, 7-misol, masala.

56-DARS

Darsning texnologik xaritasi

<p>Mavzu: 45+23 ko‘rinishidagi misollarni ustun shaklida yozib yechish. Tarkibli masalalar yechish (67–68-betlar).</p>
<p>Soatlar soni: 1 soat.</p>
<p>Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 45+23 ko‘rinishidagi misollarni ustun shaklida yozib yechish haqida bilim berish.</p>
<p>O‘quv bilish faoliyati:</p>
<p>Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.</p>
<p>Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.</p>
<p>Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, .</p>
<p>Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.</p>
<p>Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.</p>
<p>Darsning maqsad va vazifalari</p>
<p>Maqsadlar:</p>
<p>Ta’limiy: a) og‘zaki qo‘shish va ayirish usullari haqida egallagan bilimlarini boyitib borish;</p>
<p>b) yozma qo‘shish va ayirish usullari haqida bilim berish. 45+23 ko‘rinishidagi misollarni ustun shaklida yozib yechish haqida bilim berish.</p>

Tarbiyaviy: a) o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada o'rtirib borish;

b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, xushmuomalalik hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 45+23 ko'rinishidagi misollarni ustun shaklida yozib, yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 45+23 ko'rinishidagi misollarni ustun shaklida yozib yechish. 3. 2-misolni tushuntirib yechish. 4. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 5. 3-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish. 6. 4-misol. Shakllar haqida topshiriq.	test evristik metod izlanish qo'shiq muammoli izlanish amaliy ish	5 minut 7 minut 6 minut 3 minut 5 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5,6-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi.

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Test. Xat taxtaga quyidagi test savollari yozilgan bo'ladi, ularni kim birinchi bo'lib topsa, o'sha o'quvchi g'olib deb topiladi.

1) 67 bilan 3 ning yig'indisini belgilang.

A) 100 B) 90 D) 96

2) 90 bilan 50 ning ayirmasini belgilang.

A) 60 B) 40 D) 70

3) Bir xonadonda 15 ta jo'ja parvarish qilinmoqda. Ularning 8 tasi sariq, qolganlari esa oq. Oq rangdagi jo'jalar nechta?

A) 9 ta B) 6 ta D) 7 ta

4) Nafisa bozordan 9 kg piyoz va 8 kg kartoshka sotib oldi. U hammasi bo'lib necha kilogramm sabzavot sotib oldi?

A) 17 kg B) 16 kg D) 18 kg

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. $45+23$ ko'rinishidagi misolni ustun shaklida yozib, uni yechishga o'rgatish.

O'nl.	Birl.
4	5
+	2
2	3
6	8

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O'nliklarni o'nliklar tagiga, birliklarni birliklar tagiga yoziladi.

2. Dastlab birliklarni birliklarga qo'shiladi.

5 birl. + 3 birl. = 8 birl.

8 birliklar tagiga yoziladi.

3. So'ng o'nliklarni o'nliklarga qo'shiladi.

4 o'nl. + 2 o'nl. = 6 o'nl.

6 o'nliklar tagiga yoziladi.

4. Javob: 45 bilan 23 ning

yig'indisi 68 ga teng.

			4	5
			+	2
			2	3
			—	
			6	8

3. 2-misolni tushuntirib yechish.

$$\begin{array}{r} +55 \\ +14 \\ \hline 69 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} +45 \\ +23 \\ \hline 68 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} +62 \\ +27 \\ \hline 89 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} +73 \\ +25 \\ \hline 98 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} +53 \\ +42 \\ \hline 95 \end{array}$$

4. Dam olish daqiqasida o'rgangan qo'shiqlardan aytirish.


5. 3-masala. Yosh tabiatshunoslar issiqxonaga xayolan sayohatga yo'l oldilar. O'quvchilar issiqxonaga kirib, limonlarning g'arq pishganini ko'rib, quvondilar. Tabiatshunoslar limonlarni uzib, yashiklarga joylashga yordam berib yuborishlari uchun 3-masalaning yechimini topishlari kerak edi.

Bir tupdan – 35 dona limon
 Ikkinchi tupdan – 13 dona limon) ? dona limon
 Yechish: $35+13=48$ dona limon

Javob: Yosh tabiatshunoslar ikkala tupdan 48 dona limon uzishgan.

Yosh tabiatshunoslar limondan bahramand bo‘lib, xursand qaytibdilar. Qaytayotganlarida yo‘lda quyidagi misollarga duch kelishibdi:

6. 4-misol. Shakllarni daftariga chizdirib, har qaysi shaklda nechtdan uchburchak borligini topishga o‘rgatish.



IV. Mustahkamlash. Boshqotirma. Cho‘plardan shunday shakl tuzing. Shakldan 3 ta cho‘pni shunday olingki, 3 ta kvadrat qolsin.



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyg‘a vazifa: 5, 6-misol, masala.

57-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 57–26 ko‘rinishidagi misollarni yechish. Misollarni ustun shaklida yozib yechish (68–69-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 57–26 ko‘rinishidagi misollarni yechish haqida bilim berish.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar, geometrik shakllar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta’limiy: a) misollarni ustun shaklida yozib yechish qullayligi haqida egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) 57–26 ko‘rinishidagi misollarni yechish usuli haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: a) o‘quvchilarni matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib borish;

b) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida 57–26 ko'rinishidagi misollarni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiorini ishlab chiqish. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalarni belgilash.	interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirish.	savol-javob	3 minut
	2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	perfokartochka	5 minut
	3. Yangi mavzuni bayon etish. 57–26 ko'rinishidagi misollarni yechish.	muammoli izlanish	6 minut
	4. 2-misollarni tushuntirib yechish.	izlanish	5 minut
	5. Dam olish daqiqasini o'tkazish.	qo'shiq	3 minut
	6. 3-masalani og'zaki va yozma ravishda yechish.	muammoli izlanish	6 minut
	7. 4-misol. Geometrik shakllarni bir-biridan farqlay olish.	amaliy ish	4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	«Sehrli kvadratchalarni to'ldiring» o'yini.	muammoli izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtirokini hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. Uy vazifasini tekshirish. 6-misol.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'qituvchi perfokartochka bilan ishlashni tushuntirib beradi. Har bir o'quvchining partasi ustida perfokartochkasi bo'lib, o'qituvchi undagi vazifani qanday bajarish kerakligini tushuntirib beradi. Bu perfokartochkani «Darchani to'ldir» deb ham atash mumkin. Bu perfokartochkaning afzalligi shundaki, ichidagi qog'ozni almashtirib turish mumkin. Perfokartochkaning varag'idagi misollar

$$37 + \square\square = 90$$

$$\square\square - 50 = 40$$

$$45 + 23 = \square\square$$

$$42 - \square\square = 27$$


o'tilgan mavzu asosida bo'ladi. Bu misollarning yechilishi quyidagicha: $37+53=90$ va hokazo. Darchaga qanday son qo'yganliklarini komponent nomlari bilan aytib berishlari kerak. Masalan: Birinchi qo'shiluvchi 37, ikkinchi qo'shiluvchi 53, yig'indi 90 ga teng.

3. Yangi mavzuni bayon etish

57–26 ko'rinishidagi misolni ustun shaklida yozib, yechish.

O'nl.	Birl.
5	7
2	6
3	1

Misolni ustun shaklida yozib yechish qulay.



1. O'nliklarni o'nliklar tagiga, birliklarni birliklar tagiga yoziladi.

2. Birliklardan birliklar ayiriladi.

$$7 \text{ birl.} - 6 \text{ birl.} = 1 \text{ birl.}$$

1 ni birliklar tagiga yoziladi.

3. O'nliklardan o'nliklar ayiriladi.

$$5 \text{ o'nl.} - 2 \text{ o'nl.} = 3 \text{ o'nl.}$$

3 o'nliklar tagiga yoziladi.

4. Javob: 57 bilan 26 ning ayirmasi 31 ga teng.

			5	7	
			2	6	
			3	1	

4. 2-misolni tushuntirib yechishga o'rgatish:

$$\begin{array}{r} 47 \\ -16 \\ \hline 31 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 75 \\ -32 \\ \hline 43 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 42 \\ +14 \\ \hline 56 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 87 \\ -13 \\ \hline 74 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 62 \\ +16 \\ \hline 78 \end{array}$$

5. Dam olish daqiqasida o'rgangan qo'shiqlarini aytirish.

6. 3-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish:

Ikkinchi sinf o'quvchilari – 47 kg makulatura

Birinchi sinf o'quvchilari – ?, 26 kg kam

Yechish: $47-26=21$ kg makulatura.

Javob: Birinchi sinf o'quvchilari 21 kilogramm makulatura to'plagan.

Masalaning savolini o'zgartirib, uni ikki amal bilan yechish mumkin.

2-sinf o'quvchilari – 47 kg

1-sinf o'quvchilari – ?, 26 kg kam

) ? kg makulatura

Yechish: 1) $47-26=21$ kg birinchi sinf o'quvchilarining to'plagan makulaturasi; 2) $47+26=68$ kg ikkala sinf o'quvchilarining to'plagan makulaturasi.

Javob: Ikkala sinf birgalikda hammasi bo‘lib 68 kilogramm makulatura to‘plagan.

7. 4-misol. Shakllarni bir-biridan farqlay olishga o‘rgatish, har birining nomini aytirish.



Namuna: 1-shakl to‘rtburchak va hokazo.

IV. Mustahkamlash. «Sehrli kvadratchalarni to‘ldir!» o‘yini. Katakchalar ichidagi sonlarni eniga va bo‘yiga hisoblab yozganingizda bir xil son hosil bo‘lishi kerak.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 5, 6-misol, masala.

	50	40
	30	10
30		50

63-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: 30–3 ko‘rinishidagi ayirishning yozma usuli. Misolni ustun shaklida yozib yechish. O‘rganilgan turdagi misol va masalalarni yechish (76–77-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta‘rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 30–3 ko‘rinishidagi ayirishning yozma usuli haqida bilim berish.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, muammoli izlanish, interaktiv metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta‘limiy: a) o‘quvchilarni $27+3$ ko‘rinishidagi misollarni yechish yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash;

b) 30–3 ko‘rinishidagi misollarni yechish usullari haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida 30–3 ko'rinishidagi ayirishning yozma usuli yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirish.	savol-javob muammoli izlanish	3 minut
	2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Matematik diktant.		5 minut
	3. Yangi mavzuni bayon etish. «Qurilishga sayohat» – didaktik o'yin.	evristik metod izlanish muammoli izlanish qo'shiq	5 minut
	a) 30–3 ko'rinishidagi misolni ustun shaklida yozib yechish;		5 minut
	b) 2-misolni tushuntirib yechish;		6 minut
	d) 3-masalani ikki amal bilan yechish;		3 minut
e) Dam olish daqiqasini o'tkazish.	izlanish	5 minut	
f) 4-misol. Misollarning yechilishini tushuntirish		3 minut	
IV bosqich. Mustahkamlash	Kasb tanlashga doir suhbat	muammoli izlanish	2 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.	musobaqa	1 minut
			2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5,6-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. Uy vazifasini tekshirish. 6-misol.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Matematik diktant:

a) Bir o'ramda 38 m, ikkinchi o'ramda 5 m ortiq arqon bor. Ikkinchi o'ramda necha metr arqon bor? Javob: 43 metr arqon;


b) 37 bilan 48 ning yig'indisini toping. Javob: 85;

d) 27 bilan 3 ning yig'indisini toping. Javob: 30.

e) Qo'y 20 kg, echki 17 kg. Qo'y echkidan necha kilogramm og'ir?
Javob: qo'y echkidan 3 kilogramm og'ir.

3. Yangi mavzuni bayon etish

Yangi mavzu haqida to'liq bilim berish maqsadida «Qurilishga sayohat» didaktik o'yin o'tkaziladi. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. U quyidagicha bajariladi: magnet taxtachaga uyning poydevoridan tortib to uy to'liq tayyor bo'lgunga qadar bo'lgan jarayonni aks ettiruvchi tasvir yopishtirib qo'yiladi. Uy yonidan o'tuvchi yo'lga yengil mashina qo'yiladi.



O'quvchilar uyning poydevorini qurishdan to'tomi yopilgunga qadar 5 ta bosqichning har biriga bittadan, jami 5 ta kartochkaga yozilgan topshiriq bilan tanishadilar.

a) Dastlab 1-o'quvchi 1-rasm ostidagi kartochkani olib o'qiydi va uni sinf o'quvchilari bilan birgalikda bajaradilar.

Bu vazifa darslikning 76-sahifasidagi 1-misolni yechish edi

$$30 - 3 = \square \square$$

/ \

$$20 \quad 10$$

$$20 + (10 - 3) = 20 + 7 = 27$$

	3	0
		3
	2	7

1. Birliklardan birliklarni ayiriladi.

0 dan 3 ni ayirib bo'lmaydi. 3 o'nlikdan 1 o'nlikni olamiz (unutib qo'ymaslik uchun 3 raqamining ustiga nuqta qo'yiladi).

2. O'nliklardan o'nlikni ayiriladi.

3. Javob: 30 bilan 3 ning ayirmasi 27 ga teng.

Ana bolajonlar, uyimizning poydevorini qurib oldik. 2-o'quvchi xat taxtaga chiqib, mashinani 2-bosqich tagiga surib qo'yadi, unda 2-misolni ustun shaklida yozib, yechish kerakligi yozilgan.

b)	$\begin{array}{r} 40 \\ - 6 \\ \hline 34 \end{array}$	$\begin{array}{r} 50 \\ - 4 \\ \hline 46 \end{array}$	$\begin{array}{r} 80 \\ - 8 \\ \hline 72 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 27 \\ 3 \\ \hline 30 \end{array}$
----	---	---	---	---

d) Demak, uyimizning devori bitdi, yana bir o'quvchi doskaga chiqib, mashinani 3-bosqich tagiga surib qo'yadi. Unda 3-masalani yechish kerakligi ko'rsatiladi.

1-samolyotda – 50 ta sayyoh
2-samolyotda — ?, 4 ta kam sayyoh } ? ta

Yechish: 1) $50 - 4 = 46$ ta ikkinchi samolyotdagi sayyohlar soni.

2) $50 + 46 = 96$ ta sayyoh. Ikkala samolyotdagi sayyohlar soni.

Masalaning sharti, yechimi, javobi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. Ana, bolajonlar uyimizning tomi ham yopildi.

e) Dam olish daqiqasida «Svetofor qo'shig'i»ni aytadilar.

Uchta chaqmoq ko'zim bor, Yashil ko'zim chaqnasa,

Svetofor, svetofof.

Demak, bilki, yo'l ochiq.

Qizil, yashil, sap-sariq,


Qizil ko'zim chaqnasa,

Svetofor, svetofof.

Yo'l bekilar taqqa-taq...

f) Yana bir o'quvchi doskaga chiqib, mashinani 4-bosqichga surib qo'yadi. Unda 4-misolni tushuntirib yechish kerakligi ko'rsatilgan.

Quruvchilarning mehnati bilan tanishish maqsadida ota-bola o'zlarining shaxsiy mashinalarida yo'lga tushdilar va yo'lda uchragan misollarning javobini quyidagicha izohladilar:



1) $67 + 3 = 70$; $70 - 40 = 30$; $30 + 48 = 78$; $78 + 22 = 100$

2) $38 + 5 = 43$; $43 - 14 = 29$; $29 + 32 = 61$; $61 + 39 = 100$

Ana bolajonlar, uyimizning bitishiga yana bir bosqich qoldi, uni ham bajarsak, uyimiz bitgan bo'ladi, deb aytiladi. Yana bir o'quvchi doskaga chiqib, magnit taxtachadagi 5-bosqichda berilgan topshiriqni bajaradi. Unda quyidagi savollar yordamida javob o'tkazish kerak:

- Biz qayerga sayohat qildik?
- Biz qurilishga sayohat qildik.
- Quruvchilarning mehnatini kim izohlab beradi?
- Quruvchilarning mehnati beqiyos, davlatimiz kundan-kunga gullab-yashnab bormoqda va hokazo.

Bolajonlar, uyni bitirgunga qadar 5 ta bosqichni bosib o'tdik, ularning hammasini yaxshi bajardik.

IV. Mustahkamlash. Sen kim bo‘lmoqchisan? mavzu asosida suhbat o‘tkazish.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyg‘a vazifa: 5,6-misol, masala.

70-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Sonli ifodalarni taqqoslashga doir misol va masalalar. Sonlar yig‘indisi va sonlar ayirmasiga doir ifodalar qiymatini topish (84–85-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Sonli ifodalarni taqqoslash yuzasidan bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta’limiy: a) o‘quvchilarni sonli ifodalar yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash;			
b) sonli ifodalarni taqqoslash haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) o‘quvchilar ongiga yangi mavzu haqida bilim berish orqali har bir matematik muammolarni xushmuomalalik, do‘stona munosabatda bo‘lib bajarish fazilatini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning bilimdonligini oshirish maqsadida turli usullardan foydalanib, yangi mavzu mohiyatini yoritib berishda o‘quvchilar faolligini rivojlantirib borish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida sonli ifodalarni taqqoslash yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O‘quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	3 minut

II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqish.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirish. 2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 3. Yangi mavzuni bayon etish. Sonli ifodalarni taqqoslash. 1-misol. 4. 2-misolni yechish 5. 3-masala. Taqqoslash. 6. 4-masala. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib, ularni yechish. 7. 5-misolni yechish.	munozara o'yin muammoli izlanish izlanish izlanish evristik metod izlanish	3 minut 5 minut 6 minut 4 minut 5 minut 6 minut 5 minut
IV bosqich. Mustah- kamlash	Boshqotirma. Kvadrat qismlaridan shakllar yasash.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hi- sobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. Uy vazifasini tekshirish. 7-misol.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. «Amal ishoralarini to'g'ri qo'y» o'yinidan foydalanish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Magnit taxtachasiga misollar yozilgan kartochkalar yopishtirilgan bo'ladi. O'quvchilar ketma-ket chiqib, misollarda amal ishoralarini yozuvlar to'g'ri bo'ladigan qilib qo'yishlari kerak.

$$27 \square 38 = 65$$

$$50 \square 24 = 26$$

$$57 \square 23 = 80$$

$$32 \square 15 = 17$$

$$26 \square 28 = 54$$

$$42 \square 24 = 18$$

3. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. Tengsizliklar qanday hosil bo'lganligini tushuntirib berish.



$$4+3$$

>



$$4+2$$

$$7 > 6$$



$$4-3$$

<



$$4-2$$

$$1 < 2$$

4. 2-misol. Bir ustunga sonlar yig'indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozib, shu sonli ifodalarning qiymatini topish.

$57+3=60$

$40+14=54$


$70+23=93$

$58-40=18$

$78-6=72$

$20-3=17$

5. 3-misol. Masala tuzib, ularni yechish va sonli ifodalarni taqqoslashga o'rgatish.



$$\begin{array}{r} 6+2 \quad \square \quad 9-1 \\ 8 \quad \square \quad 8 \end{array}$$



$$\begin{array}{r} 3+3 \quad \square \quad 7-2 \\ 6 \quad \square \quad 5 \end{array}$$

6. 4-masala. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzib, uni yechish.

- 1) Bor edi – 9 ta vertolyot
Uchib ketdi – ? ta vertolyot
Qoldi – 5 ta vertolyot

Yechish: $9-5=4$ ta vertolyot. Javob: 4 ta vertolyot uchib ketgan.

- 2) Bor edi — 15 l sut
Ishlatildi — 4 l va 3 litr sut
Qoldi — ? l sut

Yechish: 1) $4+3=7$ l ishlatilgan sut.

2) $15-7=8$ l qolgan sut.

Javob: 8 l sut qolgan.

7. 5-misolni yechish.

$75 \text{ dm} - 25 \text{ dm} = 50 \text{ dm}$

$45 \text{ sm} + 35 \text{ sm} = 80 \text{ sm}$

$55 \text{ sm} + 35 \text{ sm} = 90 \text{ sm}$

$52 \text{ dm} - 24 \text{ dm} = 28 \text{ dm}$

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma. Kvadrat qismlaridan shakllar yasash.



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol, masala.

73-DARS


Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: a+49, 91–b ko‘rinishidagi ifodalar. Ifodaning son qiymatlarini harflarning berilgan qiymatlarida hisoblash (89–90-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. a+49, 91–b ko‘rinishidagi ifodalar haqida bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati: Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish. Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin. Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, jadval. Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta’limiy: a) harfli ifodalar haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) a+49, 91–b ko‘rinishidagi misollarni tushuntirib yechishga o‘rgatish. Tarbiyaviy: a) o‘tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida o‘quvchilarning hozirjavoblik, zukkolik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash. Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish fazilatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida a+49, 91–b ko‘rinishidagi ifodalar yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O‘quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqish.	interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. a+49, 91–b ko‘rinishidagi ifodalar. 3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 4. 2-misolni namuna bo‘yicha bajarish. 5. 3-masala. 6. 5-masalani yechish. 7. 6-doiraviy misolni mustaqil bajarish	o‘yin muammoli izlanish qo‘shiq izlanish izlanish izlanish izlanish izlanish	6 minut 5 minut 2 minut 5 minut 6 minut 4 minut 5-minut

IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	8, 9-misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. «Qaysi qayiq oldinda» nomli o'yin tashkil etish. Magnit taxtachaga dengizni tasvirlovchi maket, karton qog'ozdan yasalgan qayiqchalar va kartochkalarga yozib qo'yilgan misollar yopishtirib qo'yiladi. Qayiqchalardagi kartochkalarda ko'rsatilgan misollarni hisoblab, natijasini o'sib borish tartibida joylashtirish kerakligi tushuntiriladi.



Tartib bilan qo'yib chiqamiz: $47-26=21$; $67-35=32$; $78-37=41$; $85-42=43$; $52+26=78$.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1. 1-misol. $a+49$, $91-b$ ko'rinishidagi misollarni tushuntirib yechish.

1)

8		
2	+	49
4		
6		

$$8+49=57$$

$$2+49=51$$

$$4+49=53$$

$$6+49=55$$

2)

91		6
91	-	4
91		3
91		9

$$91-6=85$$

$$91-4=87$$

$$91-3=88$$

$$91-9=82$$

3. Dam olish daqiqasida o'rgangan qo'shiqlaridan aytirish.

4. 2-misolni namuna bo'yicha bajarish.

a	38	46	27	28	39	37	49
$a+7$	45						

Namuna: $38+7=38+(2+5)=(38+2)+5=45$

b	47	35	28	24	43	52	13
$56-b$							

Namuna: $56-47=9$

5. 3-masalani yechish.

O'ng tomonda – 35 ta uy

Chap tomonda – ?, 7 ta kam uy

Yechish: $35-7=28$ ta uy

Javob: Ko'chaning chap tomonida 28 ta uy bor.

6. 5-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish.

Kashtachilik to'garagida – 48 nafar o'quvchi

Musiqa to'garagiga – 18 nafar o'quvchi o'tib ketdi

Qoldi – ? nafar o'quvchi

Yechish: $48-18=30$ nafar o'quvchi.

Javob: Kashtachilik to'garagida 30 nafar o'quvchi qoldi.

7. 6-misol. Doiraviy misollarni mustaqil bajarishga o'rgatish.

Masalan $45+23=68$; $68-26=42$; $42+17=59$; $59-36=23$; $23+22=45$

Doiraviy misolning xususiyati shundaki, birining javobi, ikkinchi misolning boshlanishiga to'g'ri kelishi kerakligi tushuntiriladi.

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma. Qanday so'z hosil bo'ldi?

57+3	M	18-9	T	8+7	M	29-20	I	9+8	A
------	---	------	---	-----	---	-------	---	-----	---

76-34	A	9+9	A	14-7	K	26+4	T	16-8	E
-------	---	-----	---	------	---	------	---	------	---

15	17	9	8	60	18	30	9	7	42

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 8, 9-misollar.

74-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: $27+x=27$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish. Masalalarni tenglama tuzib yechish (91-92-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: O'tilgan mavzuni mustahkamlash. $27+x=27$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish yuzasidan bilim berish.

O'quv bilish faoliyati:

Metod: interaktiv, muammoli izlanish, metodlardan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar, jadval.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.


Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
<p>Ta'limiy: a) $a+49$, $91-b$ ko'rinishdagi misollarni yechish haqida egallagan bilimlarini boyitib borish; b) tenglamani yechish haqida bilim berish.</p> <p>Tarbiyaviy: a) o'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida o'quvchilarning hozirjavoblik, zukkolik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash.</p> <p>Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish fazilatini rivojlantirish.</p>			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida $27+x=27$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori aniqlanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirish.	munozara	3 minut
	2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	o'yin	6 minut
	3. Yangi mavzuni bayon etish.	izlanish	5 minut
	4. 2-misolni yechish. Noma'lum qo'shiluvchini topishga doir misollar yechish.	muammoli izlanish	5 minut
	5. 3-misol. Tenglamalarni yechib, natijani tekshirish.	izlanish	5 minut
	6. 4-masalani yechish.	izlanish	4 minut
	7. 5-misol. Ifodaning qiymatini topish.	muammoli izlanish	6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi.		1 minut
	2. Dars yakunlanadi.		1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi.

1. Uy vazifasini tekshirish. 5-misol.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. «Darchalarni to'ldir» o'yinini o'tkazish.



45 bilan 23 ning yig'indisi 68; 68 bilan 26 ning ayirmasi 42; 42 bilan 29 ning yig'indisi 71; 71 bilan 25 ning ayirmasi 56; 56 bilan 44 ning yig'indisi 100 ga teng. O'quvchilarning o'zlariga ham xuddi shunday misollar tuzib, natijasini topish vazifasi beriladi.

3. Yangi mavzuni bayon etish:

1-misolda $27+x=27$ tenglamani yechish haqida bilim berish.

x (iks) harfi bilan topilishi kerak bo'lgan noma'lum son belgilanadi.

$27+x=27$ — bu tenglama.

Tenglama quyidagicha yechiladi: tenglik to'g'ri bo'lishi uchun x ning o'rniga qanday sonni qo'yish kerakligini bilib olish kerak. Bu son 0, chunki 27 ga 0 ni qo'shganda 27 hosil bo'ladi. Shunda tenglik to'g'ri bo'lganini bilish mumkin.

Tenglamani yechilishi bunday yoziladi:

$$27+x=27$$

$$x=27-27$$

$$x=0$$

Tekshirish:

$$27+0=27$$

$$27=27$$

4. 2-misolni yechish.

a) Yig'indidan ma'lum bo'lgan qo'shiluvchini ayirilganda noma'lum qo'shiluvchi hosil bo'ladi:

$$7+8=15$$

$$15-7=8$$

$$15-8=7$$

b) Noma'lum qo'shiluvchini topish usuli bilan tanishtirish.

$$\square + 3 = 10$$

$$9 + \square = 14$$



$$x + 7 = 12$$

$$x = 12 - 7$$

$$x = 5$$

$$5 + 7 = 12$$

5. 3-misol. Tenglamalarni yechib, natijani tekshirish.

$$35+x=70$$

$$x=70-35$$

$$x=35$$

Tek. $35+35=70$

$$70=70$$

$$14+x=24$$

$$x=24-14$$

$$x=10$$

Tek. $14+10=24$

$$24=24$$

$$25+x=50$$

$$x=50-25$$

$$x=25$$

Tek. $25+25=50$

$$50=50$$

6. 4-masalani og‘zaki va yozma ravishda bajarish.

Yurgan edi – 8 ta tovuq

Yechish: $8+x=13$

Kelib qo‘shildi – x ta tovuq

$$x=13-8$$

Bo‘ldi – 13 ta tovuq

$$x=5$$

Javob: 5 ta tovuq kelib qo‘shilgan.

7. 5-misol. Ifodaning qiymatini topishga o‘rgatish.

<i>Kamayuvchi</i>	22	32	37	47	80	28	56
<i>Ayiriluvchi</i>	5	15	12	20	40	20	44
<i>Ayirima</i>	17						

Namuna: $22-5=17$; $32-15=17$.

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma. 1) Ikkita alohida kvadrat yasash uchun nechta sanoq cho‘p kerak?

2) 3 ta alohida uchburchak tuzish uchun nechta cho‘p kerak?

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyg‘a vazifa: 6, 7-misol.

78-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: $69-x=23$ ko‘rinishidagi tenglamalarni yechish. Noma’lum ayiriluvchini topishga doir misol, masalalar yechish (96–97-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta’rifi: O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. $69-x=23$ ko‘rinishidagi tenglamalarni yechish yuzasidan bilim berish.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, jadval.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
<p>Ta'limiy: a) o'atilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) $69-x=23$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish usullari haqida bilim berish.</p> <p>Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni xushmuomalalik, do'stona, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.</p> <p>Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.</p>			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida $69-x=23$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	subhat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	savol-javob	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	<ol style="list-style-type: none"> O'atilgan mavzuni mustahkamlash. Matematik diktant. Yangi mavzuni bayon etish. 2-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish Dam olish daqiqasini o'tkazish. 3-misol. Jadval asosida ifoda tuzib, uni yechish. 4-misol. Tenglamalarni yechish. 	evristik metod izlanish izlanish maqollar izlanish muammoli izlanish	5 minut 6 minut 5 minut 4 minut 5 minut 6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Savol-javob orqali yangi mavzu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	<ol style="list-style-type: none"> O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. Dars yakunlanadi. 		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyg'a vazifa	5, 6-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi.

1. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** Matematik diktant o‘tkazish.

- a) 47 bilan 3 sonlarining yig‘indisini toping. Javob: 50;
- b) 38 bilan 30 sonlarining ayirmasini toping. Javob: 8;
- d) 28 bilan 5 ning yig‘indisini toping. Javob: 33;
- e) 32 bilan 15 ning ayirmasini toping. Javob: 17.

2. **Yangi mavzuni bayon etish:**

1. Misolda $69-x=23$ tenglamani tushuntirib yechish.

$$69-x=23$$

$$x=69-23$$

$$x=46$$

Tekshirish:

$$69-46=23$$

$$23=23$$

Ayriluvchi noma'lum bo'lsa, kamayuvchidan ayirmani ayirish kerak.

Namuna: $57 - x = 17$

$$x = 57 - 17$$

$$x = 40$$

Tekshirish:

$$57 - 40 = 17$$

$$17 = 17$$

3. 2-masalani og‘zaki va yozma ravishda bajarish.

Bor edi – 49 ta avtobus

Yechish: $49-x=27$

Yo‘lga chiqib ketdi – x ta avtobus

$$x=49-27$$

Qoldi – 27 ta avtobus

$$x=22$$

Javob: Avtosaroydan 22 ta avtobus yo‘lga chiqib ketgan.

4. **Dam olish daqiqasini o‘tkazish.** Sonli maqollardan toptirish.

Namuna: Sanamay sakkiz dema, o‘ylamay o‘ttiz...

5. 3-misol. Jadval asosida ifoda tuzib, uni yechish.

Kamayuvchi	45		59		70	69	54
Ayriluvchi		24		12	56	17	
Ayirma	40	41	43	17			27

Namuna: kamayuvchi 45 ayirma 40 bo‘lsa, ayriluvchi 5 hosil bo‘ladi va hokazo.

6. 4-misolda tenglamani yechib, natijasini tekshirishga o‘rgatish.

$$68-x=37$$

$$x=68-37$$

$$x=31$$

Tek. $68-31=37$

$$37=37$$

$$49-x=23$$

$$x=49-23$$

$$x=26$$

Tek. $49-26=23$

$$23=23$$

$$76-x=42$$

$$x=76-42$$

$$x=34$$

Tek. $76-34=42$

$$42=42$$

IV. Mustahkamlash. Mavzuni mustahkamlash maqsadida savol-javob o‘tkazish.

1. Kamayuvchi 47, ayiriluvchi noma'lum, ayirma 24 ga teng. Noma'lum ayiriluvchini toping.

2. Birinchi qo'shiluvchi 26, ikkinchi qo'shiluvchi noma'lum, yig'indi 48 ga teng. Noma'lum qo'shiluvchi toping.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 5, 6-misol, masala.

84-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: O'rganilgan turdagi misol, masallarni yechish. Qisqa yozuv bo'yicha masalalar yechish. (103-bet).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta'rifi: Tarkibli masalalar yechish, yig'indini taqqoslashga doir bilim berish.			
O'quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, qiziqarli o'yin.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) yig'indini taqqoslashga doir misollarni yechish haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, do'stona, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash;			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, chaqqon bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida tarkibli masalalar yechish, yig'indini taqqoslashga doir yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut

II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiorini ishlab chiqish. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqish.	savol-javob	2 minut 3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 4. 2-misolni yechish. Namunada ko'rsatilgandek yechish 5. 3-masalani yechish. 6. 4-misol.	mustaqil ish suhbat maqollar izlanish izlanish amaliy ish	4 minut 5 minut 3 minut 7 minut 6 minut 5 minut
IV bosqich. Mustah- kamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hi- sobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol, masala.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Mustaqil ish o'tkazish.

$$84=42+\square\square$$

$$90=45+\square\square$$

$$46=23+\square\square$$

$$44=22+\square\square$$

$$66=33+\square\square$$

$$88=44+\square\square$$

2. Yangi mavzuni bayon etish. «Xushyor bo'l» didaktik o'yinidan foydalanish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Bu o'yin quyidagicha o'tkaziladi: quyon bilan bo'rining maketini magnitli taxtachaga yopishtiriladi. Darslikning 103-betidagi 1-masalani yechish haqidagi vazifa berilganligi tushuntiriladi.



Quyon masalaning javobini birinchi bo'lib bajarib qochib qoldi, bo'ri esa har galgidek «senimi shoshmay tur» deb orqasidan qarab qoladi. Quyon bu masalani to'g'ri bajarish uchun o'quvchilardan yordam so'rab, quyidagicha bajaradi:

Yechish: $15+8=23$ (minut).

Javob: Nazira uydan maktabgacha 23 minutda yetib kelgan.

Bo‘ri esa nima qilish kerakligini bilolmay turgan edi, quyon bolalardan foydalanganligini sezib qoladi. So‘ng u ham bolalardan yordam so‘rab, topshiriqni bajaradi.

3. Dam olish daqiqasida vaqtga doir maqollardan toptirish.

4. Keyingi topshiriq shu sahifadagi 2-misolni yechish. Bu vazifani ham quyonvoy sinfdagi o‘quvchilardan yordam so‘rab, quyidagicha bajaribdi.

$$\text{Namuna: } 56-5 \square 42-5$$

$$51 > 37$$

$$56-5 > 42-5$$

Misollarni na‘munada ko‘rsatilgandek yechishga o‘rgatish.

$$36 + 54 \square 77 + 13$$

$$90 = 90$$

$$36 + 54 = 77 + 13$$

$$85 - 45 \square 26 + 14$$

$$40 = 40$$

$$85 - 45 = 26 + 14$$

$$80 - 22 \square 90 - 32$$

$$58 = 58$$

$$80 - 22 \square 90 - 32$$

$$47 - 25 \square 57 + 36$$

$$22 < 93$$

$$47 - 25 < 57 + 36$$

Bu safar ham bo‘rivoy orqada qolibdi.

5. Chaqqon quyonvoy 3-masalani yechishga ham ulguribdi. Uni quyidagicha bajaribdi.

2-sinf – 37 nafar o‘quvchi
 3-sinf – ?, 9 nafar ortiq o‘quvchi) ? nafar o‘quvchi

Yechish: 1) $37+9=46$ nafar o‘quvchi uchinchi sinfdan borgan.

2) $46+37=83$ nafar o‘quvchi ikkala sinfdan sayohatga borgan.

Bo‘rivoy orqada qolganligi uchun xafa bo‘lib qolibdi.

6. 4-misol. Qavslarni shunday qo‘yinki, natija berilgan songa teng bo‘lsin:

$$60-(9+11)=40$$

$$62-(9+11)=42$$

$$58-(18-12)=52$$

Ana bolajonlar ko‘rdingizmi, quyonvoy xushyor bo‘lganligi uchun vazifalarni chaqqonlik bilan bajardi. Siz ham quyonvoydan ibrat oling.

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma.

3 ta cho‘pni o‘rnini shunday almashtiringki, natijada 4 ta bir xil kichik kvadrat va 1 ta katta kvadrat hosil bo‘lsin.



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 5, 6-misol, masala.

86-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Ko‘paytirish amali bilan tanishtirish. Ko‘paytirish bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisi (105–107-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta‘rifi: Ko‘paytirish amali bilan tanishtirish, ko‘paytirish bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisi ekanligi haqida bilim berish.

O‘quv bilish faoliyati:

Metod: evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) ko‘paytirish amali bilan tanishtirish, ko‘paytirish bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisi ekanligi haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, chaqqon bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O‘quvchilar dars yakunida ko‘paytirish amali, ko‘paytirish bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisi ekanligi yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O‘quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiorini ishlab chiqish. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqish.	interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Taqqoslahga oid misollar yordamida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish (qoida). 3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 4. 2-misolni tushuntirib yechish. 5. 3, 4- misollarni og‘zaki yechish. 6. 5-masalani yechish.	muammoli izlanish munozara qo‘shiq izlanish izlanish tushuntirish	5 minut 7 minut 3 minut 5 minut 5 minut 5 minut

IV bosqich. Mustahkamlash	Savol-javob orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Topishmoqlar bilasizmi?	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.	musobaqa	2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi.

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi taqqoslashga doir misollarni yechish.


$$42-15 \square 57-25$$

$$37+48 \square 48+37$$

$$80+15 \square 70+19$$

$$75-50 \square 50-25$$

2. Yangi mavzuni bayon etish.



Hamma olmalar nechta?



$$2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$$

$$2 \cdot 5 = 10$$

Bir xil qo'shiluvchilarni qo'shish **ko'paytirish** deyiladi. Bir xil qo'shiluvchilar yig'indisi $2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$.

Bunday yoziladi: $2 \cdot 5 = 10$

Nuqta (•) **ko'paytirish belgisidir**:

Bu misol bunday o'qiladi:

Ikkitalab besh marta olinsa, o'n hosil bo'ladi yoki ikkini beshga ko'paytirganda o'n hosil bo'ladi.

3. Dam olish daqiqasida o'rgangan qo'shiqlarini aytirish.


4. 2-misol. 1) 5 tadan 5 marta olinsa, 25 hosil bo‘ladi yoki 5 ni 5 ga ko‘paytirilsa, 25 bo‘ladi.



$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 25$$

$$5 \cdot 5 = 25$$

2)



$$3 + 3 + 3 = \square$$

$$3 \cdot 3 = \square$$



$$4 + 4 + 4 + 4 = \square \square$$

$$4 \cdot 4 = \square \square$$

5. Darslikning 106, 107- betlardagi 3, 4- misollarni og‘zaki yechish.

6. 5-masalani yechish

Bir guldastada – 5 ta chinnigul

Ikkinchi guldastada – ?, 2 ta ortiq chinnigul

Yechish: $5+2=7$ ta chinnigul.

Javob: Ikkinchi guldastada 7 ta chinnigul bor.

IV. Mustahkamlash. Og‘zaki savol-javob o‘tkazish.

Namuna: Ko‘paytirish deb nimaga aytiladi?

Bir xil qo‘shiluvchilarni qo‘shishni ko‘paytirish deb aytiladi.

Ko‘paytirish qanday belgi bilan belgilanadi?

Ko‘paytirish nuqta bilan belgilanadi.

2 bilan 5 ning ko‘aytmasini toping

3 bilan 3 ning ko‘aytmasini toping

Topishmoqlar bilasizmi?

To‘rtta o‘g‘lonning bo‘lakdir o‘rni,

O‘xshamas kiygan egniga to‘ni.

(4 fasl)

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol.

89-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Ko‘paytirishning hadlari bilan tanishtirish. Birinchi ko‘paytuvchi, ikkinchi ko‘paytuvchi, ko‘paytmaning ma‘nosi (110–111-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: Ko‘paytirishning hadlari, birinchi ko‘paytuvchi, ikkinchi ko‘paytuvchi, ko‘paytmaning ma‘nosi haqida bilim berish.			
O‘quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, interaktiv, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta‘limiy: Ko‘paytirish hadlari bilan tanishtirish, birinchi ko‘paytuvchi, ikkinchi ko‘paytuvchi, ko‘paytmaning ma‘nosi haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, xushmuomalalik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, chaqqon bo‘lishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O‘quvchilar dars yakunida ko‘paytirishning hadlari, birinchi ko‘paytuvchi, ikkinchi ko‘paytuvchi, ko‘paytmaning ma‘nosi yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o‘quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	3 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalar ishlab chiqish.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. Dam olish daqiqasini o‘tkazish. 4. 2, 3 -misollarni yechish. 5. 4-masalaning sharti rasmini chizib, uni yechish. 6. 5-misolni yechish.	savol-javob munozara qo‘shiq izlanish izlanish hisoblash	4 minut 6 minut 3 minut 6 minut 5 minut 6 minut

IV bosqich. Mustahkamlash	“Kim chaqqon?» o‘yini.	muammoli izlanish	6 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e’lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi.

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida mustaqil ish o‘tkazish.

Ko‘paytirishga oid misollarni qo‘shishga doir misollarga almashtirib bajaring.

$$5 \cdot 3 = ?$$

$$4 \cdot 2 = ?$$

$$8 \cdot 3 = ?$$

$$5 \cdot 5 = ?$$

Namuna: $4 \cdot 3 = 4 + 4 + 4$.

2. Yangi mavzuni bayon etish. Rasm asosida misol tuzib, uni yechish.



$$5 \cdot 3 = 15$$

Ko‘paytirishdagi sonlarning va ifodalarning nomlarini yodda tuting.

Birinchi

ko‘paytuvchi

5

Ikkinchi

ko‘paytuvchi

3

Ko‘paytma

=

15

5 bilan 3 ning ko‘paytmasi 15 ga teng.

Ko‘paytiriladigan sonlar ko‘paytuvchilar deyiladi. Ko‘paytirishdan hosil bo‘ladigan son ko‘paytma deb ataladi.

3. Dam olish daqiqasida o‘rgangan qo‘shiqlaridan aytirish.

4. 2-3-misolni yechish.

$$8 \cdot 2 = 16$$

$$9 \cdot 3 = 27$$

$$6 \cdot 4 = 24$$

$$3 \cdot 3 = 9$$

Namuna: $6 \cdot 5 = 6 + 6 + 6 + 6 + 6$

$$4 \cdot 3 = 4 + 4 + 4 = 12$$

$$7 \cdot 2 = 7 + 7 = 14$$



$$5 \cdot 4 = 5 + 5 + 5 + 5 = 20$$

5. 4-masalani yechish.

Yechish: 1) $5 \cdot 2 = 10$ ta ikkita avtomobildagi kishilar soni.

2) $6 \cdot 4 = 24$ ta to‘rtta vazadagi anor.


6. 5-misolni yechish. Tez hisoblashga o‘rgatish.



Namuna: $4 \cdot 4 = 16$;

$5 \cdot 2 = 10$ va hokazo.

IV. Mustahkamlash. «Kim chaqqon?» o'yini. Misollarning javobini tez va chaqqon hisoblab topish.



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol.

91-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Bo'lish. Masalaga doir rasm chizib, uni yechish (113–114-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta'rifi: Bo'lish haqida bilim berish.
O'quv bilish faoliyati:
Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, qiziqarli o'yin.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida ko'rgazmali materiallar, jadval.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta'limiy: a) ko'paytirish yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) bo'lish haqida bilim berish.
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, topqir bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida bo'lish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiorini ishlab chiqish. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar aniqlanadi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	diktant	4 minut
	2. Yangi mavzuni bayon etish. Bo'lish va uning ma'nosi haqida bilim berish.	evristik metod	8 minut
	3. 2, 3-masalani yechish.	izlanish	7 minut
	4. 4-misolni yechish.	izlanish	5 minut
	5. 5-misol. Qiymatlari bir xil bo'lgan misollarni topish	muammoli izlanish	8 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	1 minut


III. Darsning borishi.

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida matematik diktant o'tkazish.

- 1) 8 bilan 2 ning ko'paytmasini toping. Javob: 16;
- 2) 9 bilan 3 ning ko'paytmasini toping. Javob: 27;
- 3) 5 bilan 4 ning ko'paytmasini toping. Javob: 20;
- 4) 6 bilan 3 ning ko'paytmasini toping. Javob: 18.

2. Yangi mavzuni bayon etish.

- 1) 8 ta to'tiqushni 4 ta qafasga teng qilib solindi. Har bir qafasga nechtadan to'tiqush solingan?



Masalani yechish uchun 8 ichida 4 tadan nechta borligini aniqlash kerak.
Yechilishi: $8 : 4 = 2$ tadan to‘tiqush.

Javob: Har bir qafasga 2 tadan to‘tiqush qo‘yilgan.

2) 8 ta to‘tiqushni har bir qafasga 2 tadan qilib solindi. Nechta qafas kerak bo‘lgan?

Yechish: $8 : 2 = 4$ ta qafas.

Javob: 8 ta to‘tiqush uchun 4 ta qafas kerak.

Narsalarni teng bo‘lib qo‘yish — **bo‘lish** deb ataladi. Ikki nuqta (:) — **bo‘lish belgisi**. $10 : 5 = 2$ ifoda bunday o‘qiladi:
10 bilan 5 ning bo‘linmasi 2 ga teng.

3. 2-masala.

Yechish: 1) $10 : 5 = 2$ ta taqimcha. Javob 2 ta taqsimcha kerak bo‘lgan.

2) $10 : 2 = 5$ ta konfet

Javob: Har bir taqsimchaga 5 tadan konfet solingan.

3-masala. Rasmlardan foydalanib, masalani yechish.

4 ta olmaxonning har biriga 2 tadan yong‘oq berildi. Olmaxonlarga nechta yong‘oq berildi?



Yechilishi: $4 \cdot 2 = 8$ ta.

Javob: Olmaxonlarga jami 8 ta yong‘oq berildi.

4. 4-misolni yechish.

$$6 : 2 = 3$$

$$8 : 2 = 4$$

$$10 : 2 = 5$$

$$6 : 3 = 2$$

$$8 : 4 = 2$$

$$10 : 5 = 2$$

5. 5-misol. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni topish.

90–50	57+32	87+13	52–24
67+3	36+4	50+39	38+32
75–50	55–30	64–36	76+24

$$90-50=40 \square \quad 57+32=89 \circ \quad 87+13=100 \diamond \quad 52-24=28 \square$$

$$67+3=70 \heartsuit \quad 36+4=40 \square \quad 50+39=89 \circ \quad 38+32=70 \heartsuit$$

$$75-50=25 \triangle \quad 55-30=25 \triangle \quad 64-36=28 \square \quad 76+24=100 \diamond$$

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma.

Kelishardi izlab buloq,

Javob: $3 \cdot 2 = 6$ (quloq)

Bir echki-yu, ikki uloq.

 $3 \cdot 4 = 12$ (oyoq)

Ularda bor nechta quloq,

 $3 \cdot 8 = 24$ (toyog)

Qancha oyoq hamda tuyog?

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.**VI. Uyga vazifa:** 6, 7-misol.**93-DARS****Darsning texnologik xaritasi**

Mavzu: Bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma. Misol va masalalar yechish (116–117-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta'rifi: Bo'lish haqida bilim berish.			
O'quv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, interaktiv metodlaridan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, o'yin.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) ko'paytirish yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni xushmuomalalik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	savol-javob	2 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma. 3. 2-misolni yechish. 4. 3-misol. Sanoq cho‘plari bilan ishlash. 5. 4-misolni yechish. 6. 5-misol. Qo‘shishni mumkin bo‘lgan joyda ko‘paytirish bilan almashtirish	o‘yin evristik metod izlanish amaliy ish izlanish muammoli izlanish	4 minut 7 minut 5 minut 4 minut 5 minut 6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O‘quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi.

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Mustaqil ish. Bo‘sh katakchalarni to‘ldirib, misollarni yechish.

$4 \cdot \square = 12$

$5 \cdot \square = 15$

$2 \cdot \square = 18$

$2 \cdot \square = 12$

$8 \cdot \square = 24$

$3 \cdot \square = 21$

$3 \cdot \square = 15$

$5 \cdot \square = 20$

$4 \cdot \square = 16$

2. Yangi mavzuni bayon etish. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.



$10 : 2 = \square \text{ ta qulupnay.}$

Bo‘lishdagi sonlar va ifodalarning nomini yodda tuting:

Bo‘linuvchi

12

:

Bo‘luvchi

3

=

4

Bo‘linma

3. 2-misolni yechish.

$12 : 2 = 6$

$8 : 4 = 2$

$15 : 5 = 3$

$15 : 3 = 5$

$6 : 3 = 2$


$18 : 2 = 9$

4. 3-misol. Sanoq cho‘plardan foydalanib, bo‘linmani topish.

1) $9 : 3 = 3$;

2) $14 : 2 = 7$

5. 4-misol. Misollarning javobini o‘sib borish tartibida joylashtirishga o‘rgatish.



Yechish: $21:3=7$; $18:2=9$; $3 \cdot 5=15$; $4 \cdot 4=16$; $5 \cdot 5=25$.

6. 5-misol. Qo‘shishni mumkin bo‘lgan joylarda ko‘paytirish bilan almashtirib bajarish.

$$12+12+15$$

$$3+3+3+3=3 \cdot 4=12$$

$$4+4+4=4 \cdot 3=12$$

$$7+7+7=7 \cdot 3=21$$

$$5+5+5+5=5 \cdot 4=20$$

$$6+6+6=6 \cdot 3=18$$

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma.

1) Uchta 3 bilan 2 ni hosil qiling. Javob: $(3+3):3=2$

2) To‘rtta 2 bilan 23 ni hosil qiling. Javob: $22+2:2=23$

O‘zingiz ham shunday misollar tuzing.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol, masala.

97-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasi. Ikki amal bilan yechiladigan masalalarni yechish (121–122-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: Ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasi haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin.
Jihoz: Mavzu asosida ko‘rgazmali materiallar, geometrik shakllar.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta‘limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasi haqida bilim berish.
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiorini ishlab chiqish. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar belgilanadi.	suhbat	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi. 1-misol. 3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 4. 2-masalani yechish. 5. 3-masalalarni yechib, yechimlarini taqqoslash. 6. 4-misolni yechish. 7. 5-masala. 8. 6-misolni yechish.	o'yin evristik metod qo'shiq izlanish muammoli izlanish izlanish izlanish tushuntirish	4 minut 4 minut 2 minut 4 minut 5 minut 5 minut 5 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Savol-javob orqali yangi mavzu mustahkamlanadi.	suhbat	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 1 minut
VI bosqich. Uyg'a vazifa	7, 8-misol.	tushuntirish	1 minut


III. Darsning borishi.

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. «Kim chaqqon!» o'yini.



Olmani yeyish uchun, olmada berilgan misollarni tez hisoblab topish kerakligi tushuntiriladi. Olma haqida qo'shiq aytirish.

2. Yangi mavzuni bayon etish. Tushuntirib yechish.



$$2 \cdot 4 = 8$$

$$4 \cdot 2 = 8$$


$$3 \cdot 4 = 12$$

$$4 \cdot 3 = 12$$

Ko'paytuvchilarning o'rnini almashgani bilan ko'paytma o'zgarmaydi.

3. Dam olish daqiqasida o'rgangan qo'shiqlardan aytirish.

4. 2-masala. Rasm asosida masala tuzib, uni yechish.



$$3 \cdot 2 = 6$$

$$2 \cdot 3 = 6$$



$$5 \cdot 2 = 10$$

$$2 \cdot 5 = 10$$



$$6 \cdot 2 = 12$$

$$2 \cdot 6 = 12$$

5. 3-masalalarni yechib, yechimlarini taqqoslash.

1) Yechish: $3 \cdot 2 = 6$ ta xurmo.

Javob: Taqsimchadagi hamma xurmolar 6 ta.

2) Yechish: $2 \cdot 3 = 6$ ta xurmo.

Javob: Hamma xurmolar 6 ta.

6. 4-misol. Amal ishoralarini shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin.

$$30 + 17 = 47$$

$$48 - 26 = 22$$

$$86 - 86 = 0$$

$$75 - 24 = 51$$

$$57 + 31 = 88$$

$$29 + 0 = 29$$

7. 5-masala. Yechish.

1-mashinada – 37 qop

2-mashinada – ?, 8 qop ortiq

3-mashinada – ?, 5 qop kam

Yechish: 1) $37 + 8 = 45$ qop ikkinchi mashinada olib ketilgan kartoshka.

2) $45 - 5 = 40$ qop uchinchi mashinada olib ketilgan kartoshka.

Javob: Uchinchi mashinada 40 qop kartoshka olib ketilgan.

8. 6-misol. Ko'paytmani yig'indi bilan almashtirib bajarish.

Namuna: $6 \cdot 4 = 6 + 6 + 6 + 6 = 24$

$$4 \cdot 5 = 4 + 4 + 4 + 4 = 20$$

$$6 \cdot 8 = 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 48$$

$$7 \cdot 2 = 7 + 7 = 14$$

$$9 \cdot 3 = 9 + 9 + 9 = 27$$

IV. Mustahkamlash. Ogʻzaki savol-javob oʻtkazish.

1) Koʻpaytirish amalining komponent nomlarini aytib bering.

2) Boʻlish amalining komponent nomlarini aytib bering.

3) Qoʻshish amalining komponent nomlarini aytib bering.

4) Ayirish amalining komponent nomlarini aytib bering.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilarni baholab, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifa: 7, 8-misol.

100-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Teskari masalalar tuzib yechish. Taqqoslashga doir misollar (125–126-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha taʼrifi: Teskari masala tuzib yechish haqida bilim berish.			
Oʻquv bilish faoliyati:			
Metod: evristik, kommunikatsion, musobaqa metodlaridan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir oʻquvchi bilan ishlash, oʻyin.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: Oʻquvchilar reytingi dars oxirida eʼlon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Taʼlimiy: a) oʻtilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) teskari masalalar tuzib yechish haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni birodarlik, xushmuomalaklik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: Oʻquvchilarni hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun koʻproq oʻz ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
Oʻquvchilar dars yakunida teskari masalalar tuzib yechish yuzasidan yangi bilimga ega boʻladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Oʻquvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak boʻlgan qoidalar ishlab chiqariladi.	suhbat	3 minut

III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vaifasini tekshirish. 2. O'atilgan mavzuni mustahkamlash. 3. Yangi mavzuni bayon etish. 4. 2-masalani yechish (og'zaki). 5. 3-misol. misollarni taqqoslash. 6. 5-misol. Misollarning javobini kim tez topadi? 7. 6-masalani yechish.	savol-javob o'yin izlanish tushuntirish izlanish muammoli izlanish izlanish	3 minut 5 minut 5 minut 3 minut 4 minut 7 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Boshqotirma.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	7, 8-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi.

1. Uy vaifasini tekshirish. 8-misol.

2. O'atilgan mavzuni mustahkamlash. «Bilmasvoyga yordam bering» o'yinidan foydalanib mustaqil ish o'tkazish. Xat taxtda quyidagi misollar berilgan. Ularni yechish uchun ko'paytmani yig'indiga almashtirib yozish kerakligi tushuntiriladi. Bilarjon bu misollarni quyidagicha bajardi:

$$6 \cdot 3 = 6 + 6 + 6 = 18 \qquad 7 \cdot 4 = 7 + 7 + 7 + 7 = 28$$

$$5 \cdot 4 = 5 + 5 + 5 + 5 = 20 \qquad 8 \cdot 3 = 8 + 8 + 8 = 24$$

Bilmasvoy esa bu misollarni quyidagicha bajardi:

$$6 \cdot 3 = 6 + 6 + 6 = 18 \qquad 7 \cdot 4 = 7 + 7 + 7 = 28$$

$$5 \cdot 4 = 5 + 5 + 5 + 5 = 20 \qquad 8 \cdot 3 = 8 + 8 + 8 = 24$$

Bilarjon bilan Bilmasvoy o'rtasida tortishuv paydo bo'ldi. Bilmasvoyning xatosini topishda sinfdagi o'quvchilar yordam berdilar.

3. Yangi mavzuni bayon etish (davomi). 1-masala.

Osh qoshiq – 45 ta)
Choy qoshiq – 23 ta) ? ta qoshiq.

Yechish: $45 + 23 = 68$ ta qoshiq

Javob bu xonadon 68 ta qoshiq sotib olgan.

O'zaro teskari masalalar tuzib, uni yechish:

1) Osh qoshiq – ? ta) 68 ta
Choy qoshiq – 23 ta) qoshiq.

Yechish:

$$68 - 23 = 45 \text{ ta osh qoshiq}$$

Javob: Bu xonadon 45 ta osh qoshiq sotib olgan.

2) Osh qoshiq – 45 ta) 68 ta
Choy qoshiq – ? ta) qoshiq.

Yechish:

$$68 - 45 = 23 \text{ ta choy qoshiq}$$

Javob: 23 ta choy qoshiq sotib olingan.

4. 2-masalani og‘zaki yechish.

$$2 \cdot 5 = 10 \text{ m gazlama}$$

Javob: Beshta shunday ko‘ylakka 10 metr gazlama ketadi.

5. 3-misol Misollarni taqqoslashga o‘rgatish.

$$4 \cdot 3 < 8 \cdot 2$$

$$18 : 3 > 12 : 4$$


$$4 \cdot 4 > 16 : 4$$

$$2 \cdot 9 = 9 \cdot 2$$

$$21 : 7 > 14 : 7$$

$$3 \cdot 5 > 18 : 6$$

6. 5-misol. «Misollarning javobini kim tez topadi?» o‘yin o‘tkazish



Namuna: $2 \cdot 4 = 8$

7. 6-masalani yechish.

Yechish: $6 \cdot 5 = 30$ kg pecheniy

Javob: Maktab oshxonasiga 30 kilogramm pecheniy keltirilgan.

IV. Mustahkamlash. Boshqotirma.

4 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, 4 ta uchburchak hosil bo‘lsin.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 7, 8-misol, masala.

101-DARS

Darsning texnologik xaritasi


Mavzu: Masalalarni yozishning jadval usuli. (126–127-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: Masalalarni yozishning jadval usuli haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati: Metod: evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish. Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash, qiziqarli o‘yin. Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar, jadval. Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) masalalarni yozishning jadval usuli haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, do'stona, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish fazilatini rivojlantirishi.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida masalalarni yozishning jadval usuli yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. O'quvchilar davomatini aniqlash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqariladi.	suhbat	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	o'yin munozara tushuntirish muammoli izlanish izlanish muammoli izlanish	5 minut
	2. Yangi mavzuni bayon etish.		7 minut
	Masalalarni yozishning jadval usuli. 1-masala.		5 minut
	3. 2-misollarni tushuntirib yechish.		5 minut
	4. 3-masalani yechish va ularning yechimlarini taqqoslash.		5 minut
	5. 4-misol. Tenglamalarni yechish.		6 minut
6. 5-misol. Jadval bo'yicha ifoda tuzib, uni yechish.			
IV bosqich. Mustahkamlash	Quvnoq boshqotirma.	muammoli izlanish	5 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut
			1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O'atilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Uychani to'ldir» o'yinidan foydalanish.

O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Magnit taxtachaga uyning rasmi tasvirlangan maket va misollar yozilgan kartochkalar yopishtirilgan bo'ladi. Kartochkalarda berilgan misollarning javobini uychalardan topib, aniqlash lozim. Uychaga qaysi romlar kerak ekan?



2. Yangi mavzuni bayon etish.

Masalani yozishning jadval usuli bilan tanishtirish.



Bitta ko'ylakka sarflangan gazlama	Ko'ylaklar soni	Hamma ko'ylakka sarflangan gazlama
2 m	6 ta	?
?	6 ta	12 m
2 m	?	12 m

Yechish: $2 \cdot 6 = 12$ m hamma ko'ylakka sarflangan gazlama.

Ikkita o'zaro teskari masala tuzib, uni yechishga o'rgatish.

1) $12 : 6 = 2$ m bitta ko'ylakka sarflangan gazlama.

2) $12 : 2 = 6$ ta ko'ylaklar soni.

3. 2-misollarni tushuntirib yechish.

$$\begin{array}{r} + 52 \\ + 29 \\ \hline 81 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 73 \\ - 21 \\ \hline 52 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 48 \\ + 37 \\ \hline 85 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 87 \\ + 56 \\ \hline 31 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 32 \\ + 46 \\ \hline 78 \end{array}$$

4. 3-masalalarning yechimlarini taqqoslashga o'rgatish.

1) $18 : 3 = 6$ ta daftar.

Javob: Har qaysi o'quvchi 6 tadan daftar olgan.

2) $18 : 3 = 6$ nafar o'quvchi.

Javob: 6 nafar o'quvchi daftar olgan.

5. 4-misol. Tenglamalarni yechib, ularni tekshirishga o'rgatish.

$$27-x=15 \qquad x-15=25 \qquad 17+x=39$$

$$x=27-15 \qquad x=25+15 \qquad x=39-17$$

$$x=12 \qquad x=40 \qquad x=22$$

Tekshirish:

$$27-12=15 \qquad 40-15=25 \qquad 17+22=39$$

$$15=15 \qquad 25=25 \qquad 39=39$$

6. 5-misol. Jadval bo'yicha ifoda tuzib, uni yechish

<i>Qo'shiluvchi</i>	67	55	19	38	53	84
<i>Qo'shiluvchi</i>	3	14	21	5	27	16
<i>Yig'indi</i>						

Namuna: $67+3=70$ va hokazo.

IV. Mustahkamlash. Quvnoq boshqotirma.

$$1 \square 2 \square 3 = 1$$

$$1 \square 2 \square 3 \square 4 = 1$$

$$1 \square 2 \square 3 \square 4 \square 5 = 1$$

Boshqotirmadagi misollar yig'indisi **bir** chiqishi uchun har bir son o'rtasiga to'rt amal: «+», «-», «.», «:» belgilaridan mosini qo'yib bajarish kerakligi tushuntiriladi.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7-misol.

103-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Noma'lum ko'paytuvchini topishga doir misol va masalalar yechish (129-130-betlar).

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: Noma'lum ko'paytuvchini topish haqida bilim berish.

O'quv bilish faoliyati:

Metod: Evristik, interaktiv, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.

Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash, test.

Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar, geometrik shakllar.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'atilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) noma'lum ko'paytuvchini topish haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni xushmuomalalik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, chaqqon bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish fazilatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida noma'lum ko'paytuvchini topish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Dars shiori belgilanadi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut 2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'atilgan mavzuni mustahkamlash. tarqatma materiallar. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 1-misol. 3. 2-misollarni yechish. 4. 3-masalalarni yechilishini taqqoslash. 5. 4-misolni yechish. Tushib qolgan sonlarni qo'yib, misollarni yechish.	muammoli izlanish tushuntirish izlanish izlanish muammoli izlanish	6 minut 6 minut 5 minut 5 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Quvnoq boshqotirma.	muammoli izlanish	6 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	5, 6-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Har bir o‘quvchiga misollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Amal ishoralarini yozuvlar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘yish kerakligi tushuntiriladi.

$$3 \square 4 = 12$$

$$4 \square 2 = 8$$

$$8 \square 3 = 24$$

$$5 \square 5 = 25$$

$$16 \square 2 = 8$$

$$14 \square 2 = 7$$

$$18 \square 3 = 6$$

$$15 \square 5 = 3$$

2. Yangi mavzuni bayon etish.

1) $\underline{6 \cdot 3 = 18}$

$$18 : 6 = 3$$

$$18 : 3 = 6$$

6 va 3 – ko‘paytuvchilar

18 – bu ko‘paytma.



2)



$$2 \cdot 4 = 8$$

$$8 : 2 = 4$$

$$8 : 4 = 2$$

Ikki sonning ko‘paytmasini ko‘paytuvchilardan biriga bo‘lsak, u holda ikkinchi ko‘paytuvchi hosil bo‘ladi.

3. 2-misolni yechish.

$$\underline{3 \cdot 6 = 18}$$

$$18 : 3 = 6$$

$$18 : 6 = 3$$

$$\underline{3 \cdot 4 = 12}$$

$$12 : 3 = 4$$

$$12 : 4 = 3$$

$$\underline{8 \cdot 2 = 16}$$

$$16 : 8 = 2$$

$$16 : 2 = 8$$

4. 3-masalalarni yechib, ularni taqqoslash.

1) $6 \cdot 2 = 12$ kg ikkita bidonga quyilgan asal;

2) $6 + 2 = 8$ kg asal. Ikkala bidonda 8 kilogramm asal bor.

Birinchi masala nima uchun ko‘paytirish amali bilan, ikkinchi masala qo‘shish bilan yechilganligini tushuntirib berish.

5. 4-misol. Tushib qolgan sonlarni o‘rniga qo‘yib yechish.

$$8 \cdot 3 = 3 \cdot 8$$

$$5 \cdot 6 = 6 \cdot 5$$

$$2 \cdot 7 = 7 \cdot 2$$

$$7 \cdot 2 = 2 \cdot 7$$

$$6 \cdot 4 = 4 \cdot 6$$

$$4 \cdot 5 = 5 \cdot 4$$

IV. Mustahkamlash. Quvnoq boshqotirma.

$$1 \square 2 \square 3 \square 4 \square 5 \square 6 = 1$$

$$1 \square 2 \square 3 \square 4 \square 5 \square 6 \square 7 = 1$$

$$1 \square 2 \square 3 \square 4 \square 5 \square 6 \square 7 \square 8 = 1$$

$$1 \square 2 \square 3 \square 4 \square 5 \square 6 \square 7 \square 8 \square 9 = 1$$

Boshqotirmadagi misollar yig‘indisi bir chiqishi uchun har bir son o‘rtasiga to‘rt amal: «+», «-», «·», «:» belgilaridan mosini qo‘yib bajarish kerak.

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 5, 6-misol.

104-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Noma'lum ko'paytuvchini topishga doir misol va masalalar yechish (130–131-betlar).			
Soatlar soni: 1 soat.			
Mavzuning qisqacha ta'rifi: Noma'lum ko'paytuvchini topish haqida egalagan bilimlarini takomillashtirish.			
O'quv bilish faoliyati:			
Metod: Evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.			
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.			
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar, jadval.			
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) noma'lum ko'paytuvchini topish haqidagi bilimlarini takomillashtirish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida noma'lum ko'paytuvchini topish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	suhbat	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirish. 2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 3. Yangi mavzuni bayon etish. 4. Dam olish daqiqasini o'tkazish.	savol-javob test tushuntirish qo'shiq	2 minut 5 minut 7 minut 2 minut

	5. 2-masalani yechish. 6. 3-misolni yechish. 7. 4-misolni yechish. 8. 5-masala.	izlanish tushuntirish izlanish izlanish	4 minut 4 minut 6 minut 4 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	Savol-javob orqali yangi mavzu mustahkamlanadi.	muammoli izlanish	3 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7-misol, masala.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish. 6-misol.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Test.

1) 3 bilan 5 ning ko'paytmasini belgilang.

a) 16 b) 15 d) 14

2) 27 bilan 3 ning bo'linmasini belgilang.

a) 9 b) 8 d) 7

3) Javobi 25 ga teng bo'lgan misolni belgilang.

a) $16+3$ b) $21:7$ d) $5 \cdot 5$


4) To'g'ri yechilgan misolni belgilang.

a) $16:4=4$ b) $15:5=4$ d) $9 \cdot 3=28$

3. Yangi mavzuni bayon etish.

1-misol. Misollarni tushuntirib yechish.

Noma'lum ko'paytuvchini «x» deb olamiz.



$$\begin{aligned} \text{Namuna: } 2 \cdot x &= 8 \\ x &= 8 : 2 \\ \underline{x} &= 4 \\ 2 \cdot 4 &= 8 \end{aligned}$$

$$2 \cdot x = 10$$

$$x = 10 : 2$$

$$\underline{x} = 5$$

$$x \cdot 5 = 15$$

$$x = 15 : 5$$

$$\underline{x} = 3$$

$$3 \cdot x = 9$$

$$x = 9 : 3$$

$$\underline{x} = 3$$

Tekshirish:

$$2 \cdot 5 = 10$$

$$10 = 10$$

$$3 \cdot 5 = 15$$

$$15 = 15$$

$$3 \cdot 3 = 9$$

$$9 = 9$$

Ko'paytuvchilardan biri noma'lum bo'lsa, ko'paytmani ma'lum bo'lgan ko'paytuvchiga bo'lish kerak.

- 4. Dam olish daqiqasida** o'rgangan qo'shiqlardan aytirish.
5. 2-masala. Tenglama tuzib yechish haqidagi bilimlarini puxtalash.
 Yechish: $16-x=6$
 $x=16-6$
 $x=10$ Javob: Javondan 10 ta piyola olingan.

6. 3-misol. Jadval asosida berilgan misollarni yechish.

Ko'paytuvchi	2		5	2	7	
Ko'paytuvchi	2	4	2		2	2
Ko'paytma		8		10		14

Namuna: $2 \cdot 2=4$; $8 : 4=2$

7. 4-misol. Misollarni na'munada ko'rsatilgandek bajarish.

Namuna: $62-34 \square 62-30$ $90-24 > 80-24$ $64-30 < 42+30$
 $\begin{array}{r} -62 \\ 34 \\ \hline 28 \end{array}$ $\begin{array}{r} -62 \\ 30 \\ \hline 32 \end{array}$ $28 < 32$ $87+13 = 13+87$ $47+53 > 57-43$

- 8. 5-masalani yechish.**
 $5 \cdot 6=30$ ta olma. Oltita taqsimchadagi olmalar soni.
 Javob: 6 ta taqsimchada 30 ta olma bor.

IV. Mustahkamlash. Savol-javob orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Namuna: Noma'lum ko'paytuvchini qanday topish mumkin?

V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: 6, 7- misol, masala.

105-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Rasmlarga qarab ko'paytirishga doir misollar tuzib, uni yechish. Qiymati bir xil bo'lgan misollarni topish (131–132-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta'rifi: Rasmlarga qarab ko'paytirishga doir misollar tuzib, uni yechish haqida bilim berish.
O'quv bilish faoliyati:
Metod: Muammoli izlanish, interfaol metodlaridan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar, jadval.

Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.			
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash;			
b) rasmlarga qarab ko'paytirishga doir misollar tuzib, uni yechish haqida bilim berish.			
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.			
Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni har bir narsaga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun o'z ustida ko'proq izlanish qobiliyatini rivojlantirish.			
Kutilayotgan natija			
O'quvchilar dars yakunida rasmlarga qarab ko'paytirishga doir misollar tuzib, uni yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	kommunikativ metod	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	3 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Yangi mavzuni bayon etish. 1) Rasmlarga qarab ko'paytirishga doir misollar tuzib, uni yechish. 2) 2-masalani yechish. 3) 3-misol. Jadvaldan qiymati bir xil bo'lgan misollarni topib, yechish. 4) 4-misol.	savol-javob o'yin izlanish muammoli izlanish izlanish	3 minut 10 minut 6 minut 6 minut 5 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	«O'yla, izla, top!» o'yini.	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		2 minut 2 minut
VI bosqich. Uygavazifa	6, 7-misol.	tushuntirish	2 minut

III. Darsning borishi:

1. Mavzu haqida to'liqroq bilimga ega bo'lish maqsadida «Estafeta» o'yinini tashkil etish. O'qituvchi o'quvchilarni o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Dengizni tasvirlovchi plakat, ikki o'rtoq maketi magnet taxtachasiga yopishtirib qo'yiladi. Ikki o'rtoq Sherzod bilan Bekzod qirg'oqning bu betidan u betiga suzib o'tishi kerak. Albatta, qirg'oqning bu betidan u betiga suzib, o'tishi uchun yo'lda uchraydigan misol, masalalarning javobini topishi kerak. Darslikning 132-betidagi 1-misolning birinchi vazifasini Sherzod, ikkinchi vazifasini Bekzod bajarish kerakligi tushuntiriladi.

Sherzod vazifani bunday bajardi:



$$4 \cdot 3 + 3 = 15$$

$$4 \cdot 3 = 4 + 4 + 4 = 12$$

$$12 + 3 = 15$$

Bekzod esa vazifani bunday bajardi:



$$3 \cdot 5 + 5 = 20$$

$$3 \cdot 5 = 3 + 3 + 3 + 3 + 3 = 15$$

$$15 + 5 = 20$$

2. Ikki o'rtoq o'zlariga berilgan vazifani juda to'g'ri bajardilar. Ular yana suzib ketayotgan edilar 132-betdagi **2-masalaga** duch kelibdilar. Bunda ham Sherzod masalaning birinchisini, Bekzod esa shu masalaning ikkinchisini bajarishi kerakligi tushuntirildi.

Sherzod masalani quyidagicha bajardi:

Yechish: $12 : 2 = 6$ ta bola.

Javob: Bu qalamlar 6 ta bolaga yetadi.

Bekzod esa masalani quyidagicha bajardi:

$12 : 6 = 2$ ta qalam. Javob: Har qaysi bola 2 tadan qalam olgan.

3. Ular yo'lda yana suzishni davom ettirdilar. Yo'lda qiymati bir xil bo'lgan misollarni topish vazifasiga duch keldilar va ularni hisoblab, Sherzod bilan Bekzod misollarning javobini quyidagicha topdilar:

14 : 7	2 • 7	28 : 7	18 : 3
7 • 2	18 : 6	10 : 5	21 : 3
9 : 3	14 : 2	8 : 2	12 : 2

Sherzod:

$14:7=2$

$7 \cdot 2=14$

$9:3=3$

$2 \cdot 7=14$

$18:6=3$

$14:2=7$

Bekzod:

$28:7=4$

$10:5=2$

$8:2=4$

$18:3=6$

$21:3=7$

$12:2=6$

Qaysi o'quvchi misollarning javobini topishda qiynalsa, o'sha o'quvchiga sinfdagi o'quvchilar yordam berishi mumkin.

4. Bolalar qirg'oqqa yaqinlashib qolganlarida 4-misolni bajarish kerakligini bilib qoldilar. Ushbu misoldagi 1-vazifasini Sherzod quyidagicha bajardi.

$18:2=9;$


$18:2+1=9+1=10$

Bekzod esa 2-vazifani quyidagicha bajardi.

$14:2=7;$

$14:2+13=7+13=20$

IV. **Mustahkamlash.** «O'yla, izla, top!» o'yini.



V. **Darsni yakunlash.** O'yin davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholab rag'batlantiriladi.

VI. **Uyga vazifa:** 6, 7-misollar.

106-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Noma'lum bo'linuvchini topishga doir misol va masalalar yechish (133–134-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta'rif: Noma'lum bo'linuvchini topishga doir misol va masalalar yechish haqida bilim berish.
O'quv bilish faoliyati:
Metod: Evristik, kommunikatsion, musobaqa metodlaridan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Matematika darsligi, mavzu asosida didaktik materiallar, jadval.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta'limiy: a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) noma'lum bo'linuvchini topishga doir misol va masalalar yechish haqida bilim berish.
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko'proq o'z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

O'quvchilar dars yakunida noma'lum bo'linuvchini topishga doir misol va masalalar yechish yuzasidan yangi bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	interaktiv metod	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 2. Yangi mavzuni bayon etish. 3. Dam olish daqiqasini o'tkazish. 4. 2-misol. Tenglamalar yechish. 5. 3-masalalarni yechib, ularning yechilishini taqqoslash. 6. 4-misol. Hisoblash. 7. 5-masala. Jadval asosida masala tuzib, uni yechish.	diktant suhbat qo'shiq izlanish muammoli izlanish izlanish muammoli izlanish	4 minut 7 minut 2 minut 4 minut 6 minut 5 minut 6 minut
IV bosqich. Mustahkamlash	O'yla, izla, top!	muammoli izlanish	4 minut
V bosqich. Baholash	1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. 2. Dars yakunlanadi.		1 minut 1 minut
VI bosqich. Uyga vazifa	6, 7 -misol.	tushuntirish	1 minut

III. Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida matematik diktant o'tkazish.

- 1) 4 bilan 5 ning ko'paytmasini toping. Javob: 20;
- 2) 3 bilan 8 ning ko'paytmasini toping. Javob: 24;
- 3) 15 bilan 5 ning bo'linmasini toping. Javob: 3;
- 4) 21 bilan 3 ning bo'linmasini toping. Javob: 7.

2. Yangi mavzuni bayon etish. Misollarni tushuntirib yechish.



$$8 : 2 = 4$$

$$6 : 2 = 3$$

$$8 : 4 = 2$$

$$6 : 3 = 2$$

$$4 \cdot 2 = 8$$

$$3 \cdot 2 = 6$$

Bo‘linuvchi bo‘linmaga bo‘linsa, bo‘luvchi hosil bo‘ladi.
Bo‘luvchi bo‘linmaga ko‘paytirilsa, bo‘linuvchi hosil bo‘ladi.

3. Dam olish daqiqasida o‘rgangan qo‘shiqlardan birini aytirish.

4. 2-misol. Tenglamalarni yechish va ularni tekshirish.

$$3 \cdot x = 9$$

$$x \cdot 5 = 10$$

$$2 \cdot x = 16$$

$$x = 9 : 3$$

$$x = 10 : 5$$

$$x = 16 : 2$$

$$\underline{x = 3}$$

$$\underline{x = 2}$$

$$\underline{x = 8}$$

Tekshirish:

$$3 \cdot 3 = 9$$

$$2 \cdot 5 = 10$$

$$2 \cdot 8 = 16$$

$$9 = 9$$

$$10 = 10$$

$$16 = 16$$

5. 3-masalani yechib, ularni taqqoslashga o‘rgatish.

1) $10 : 5 = 2$ ta kanareyka.

Javob: Har bir qafasga 2 tadan kanareyka qo‘yilgan.

2) $10 : 2 = 5$ ta qafas.

Javob: Kanareykalar uchun 5 ta qafas kerak bo‘lgan.

6. 4-misolni yechish.

$$12 : 2 = 6$$

$$10 : 5 = 2$$

$$14 : 2 = 7$$

$$16 : 2 = 8$$

$$18 : 3 = 6$$

$$14 : 7 = 2$$

$$14 : 7 = 2$$

$$15 : 3 = 5$$

7. 5-masala. Jadval asosida berilgan masalani yechish.



3 kg



3 kg



3 kg



3 kg


Bitta bankaga ketgan asal	Bankalar soni	Hamma bankalardagi asal
3 kg	4 ta	? kg
? kg	4 ta	12 kg
3 kg	? ta	12 kg

Yechish: $3 \cdot 4 = 12$ kg asal. **Hamma bankalardagi asal.**
O‘zaro teskari masalalar tuzib, uni yechishga o‘rgatish.

1) $12 : 4 = 3$ kg bitta bankaga ketgan asal.

2) $12 : 3 = 4$ ta bankalarning soni.

IV. Mustahkamlash. «O‘yla, izla, top!» o‘yini. Har bir mevada berilgan misolning javobini barglardan izlab topish kerakligi tushuntiriladi.



V. Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholab rag‘batlantirish.

VI. Uyg‘a vazifa: 6, 7-misol.

107-DARS

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Millimetr haqida tushuncha. Misol va masalalar yechish (134–136-betlar).
Soatlar soni: 1 soat.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: Millimetr haqida bilim berish.
O‘quv bilish faoliyati:
Metod: Evristik, kommunikatsion metodlardan foydalanish.
Shakl: Jamoa, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan ishlash.
Jihoz: Mavzu asosida didaktik materiallar, geometrik shakllar, chizg‘ich.
Nazorat: Bolalarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e‘lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta’limiy: a) o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash; b) millimetr haqida bilim berish, misol, masalalar yechish.
Tarbiyaviy: a) har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni bilimdon, zukko bo‘lishga, hayotdagi har bir narsani qadrlashga, unga mehr bilan yondashish, muammoli vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq o‘z ustida izlanish qobiliyatini rivojlantirish.
Kutilayotgan natija
O‘quvchilar dars yakunida millimetr yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich. Tashkiliy qism	Darsni tashkil etish. Navbatchi o'quvchining axborotini tinglash. Sinfnng darsga tayyorligi tekshiriladi.	savol-javob	2 minut
II bosqich. (Refleksiya) ehtiyojlarni aniqlash	Dars shiori ishlab chiqiladi. Dars davomida rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.	suhbat	2 minut
III bosqich. Darsning borishi	1. Uy vazifasini tekshirish.	savol-javob	2 minut
	2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	o'yin	5 minut
	3. Yangi mavzuni bayon etish. Millimetr haqida o'qituvchinig nutqi.	tushuntirish	6 minut
